O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SAIDOV SHAVKAT JUMABAYEVICH

MARKAZIY OSIYO ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIGI KONSEPSIYALARI

(Darslik)

Toshkent – 2026

UO‘K:930.1(543)(075.8)

KBK:63.2/3(54)

S - 16

ISBN 978-9910-5210-9-6

Sh.J. Saidov, Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligi konsepsiyalari/darslik. – T.: “TDShU”, 2026.

Mazkur darslik magistratura 70220303-“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi talabalari va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishning zamonaviy konsepsiyalari haqida qo‘shimcha ma’lumot olishni xohlovchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Tarix fanlari doktori, professor

M. M. Is’hoqov

Taqrizchilar:

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

R. R.Alimova

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

X. T. Fayziyev

Mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2026-yil 21-maydagi 143-UM-son buyrug‘i ,bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-5210-9-6

Sh. J.Saidov, 2026.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2026.

“O‘tmishi ko‘milgan xalqning kelajagi
zulmat pardasi ostidadir” (H. Vamberi)

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy o‘choqlaridan biri, bu hududda eng qadimgi davrlardan tili, madaniyati, urf-odatlari va turmushi mushtarak bo‘lgan turkiy va forsiy tilli xalqlar yonma-yon yashab kelmoqda va ular Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining yaratilishiga birgalikda katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, bu ulkan mintaqa jahon antropogen jarayonlari ro‘y bergan, insoniyatning ilk ajdodlari shakllangan makonlardan biridir. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan madaniyat o‘chog‘i sifatida dunyo ilm ahlining e’tiborini tortib kelgan.

Hozirgi kunda mintaqada istiqomat qilib, o‘z milliy davlatchiligini qurayotgan xalqlar – o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar va boshqa o‘nlab xalqlar Markaziy Osiyoda azaldan mavjud bo‘lgan qadimiy madaniyat va davlatlarning merosxo‘rlari hisoblanishadi. Bugungi kunda jahon siyosiy xaritasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berib, Markaziy Osiyoda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ularning har biri o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab, istiqbol sari intilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston ham demokratik jamiyat qurish jarayonini boshdan kechirmoq-da. O‘zbekiston uchun qo‘shni va uzoq mamlakatlar bilan keng qamrovli aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarning samarasini ta’minlash o‘z navbatida kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog‘liqdir. Ayni shu ma’noda Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Mo‘g‘uliston, Dashti Qipchoq, Janubiy Osiyo va O‘rta Osiyo mintaqalarida joylashgan o‘nlab davlatlar, xalqlar, elatlar tarixini biladigan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash o‘ta dolzarbdir. Tarixni bilish esa mamlakatimizning ushbu mintaqa xalqlari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish va samarasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunisi ahamiyatliki, mintaqa tarixi 200 yildan oshiqroq vaqt davomida G‘arb va Sharq tarixchilarining, siyosatchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, qo‘shni milliy respublikalarning mustaqillikka erishishi va rivojlanishi asnosida o‘z tarixini o‘rganish va yoritishga bo‘lgan qiziqish nihoyatda kuchaydi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘izistonda bu borada keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Albatta bunda ayrim siyosiy kuchlar, katta

davlatlar o‘z manfaatlarini ko‘zlayotganligi hech kimga sir emas. Xolis ilmiy tadqiqotlar qatorida, siyosiy va ijtimoiy populizmdan iborat, tor milliy mafkurachilikka asoslangan, ilmiylikdan mutlaqo yiroq bo‘lgan asarlar juda ko‘paydi. Bu borada, ayniqsa internet tarmoqlarida tarix ilmiga umuman aloqasi bo‘lmagan shaxslar tomonidan tariximizning turli davrlaridagi voqeliklarga munosabat bildirib, chiqarilayotgan sayoz maqolalarning mavjudligi achinarli hol bo‘lib, mintaqamiz tarixini xolis va ilmiy jihatdan o‘rganishga xizmat qilmasligi ayondir.

70220303 – “Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi doirasida “Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligi konsepsiyalari” nomli o‘quv kursi dasturi asosida ushbu darslik yaratildi. Darslik, O‘zbekiston, qo‘shni davlatlar va xorijda Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganish, yoritish jarayonida qo‘llanilayotgan yondashuvlar, konsepsiyalarning tub mohiyatini ochib berishni maqsad qilgan.

Magistratura ta’lim bosqichida tahsil olayotgan, kelajakda mintaqa tarixini chuqur o‘rganishni maqsad qilgan yosh tarixshunos, manbashunoslarga ilmiy faoliyatlarini samarali olib borishga yordam berishni ko‘zlagan mazkur darslikning nashr qilinishi albatta foydadan holi bo‘lmaydi. Chunki, “Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligi konsepsiyalari” fani magistrantlarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tarixiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Talabalarni hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasidagi mustaqil davlatlarning (Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston) bir yoqlama milliy mafkuralari va ularning salbiy jihatlari bilan tanishtirish va ularning tahlili to‘g‘risida tasavvurga ega bo’lishadi.

- O‘zbekiston Respublikasining milliy g‘oya mafkurasining asosiy tamoyillari va uning boshqa mafkuralarga nisbatan haqqoniy asosga ega ekanligini bilishi va ulardan foydalana olishadi.

- Talabalar Markaziy Osiyo mintaqasi tarixshunosligining nazariy muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo‘lgan bilimlardan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

Magistratura ta‘lim bosqichida tahsil olayotgan, kelajakda mintaqa tarixini chuqur o‘rganishni maqsad qilgan yosh tarixshunos, manbashunoslarga ilmiy faoliyatlarini samarali olib borishga yordam berishni ko‘zlagan mazkur darslikning nashr qilinishi albatta foydadan holi bo‘lmaydi.

1-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari: yondashuvlik tamoyillari

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarni Markaziy Osiyo - tarixiy-madaniy va geografik jihatdan yagona mintaqa, hudud ekanligi konsepsiyasining mohiyati ekanligi, mintaqa tarixi tarixshunosligidagi nazariy muammolar va ularni yoritishdagi bir yoqlama yondashuvlar, bunda, O‘zbekiston, qo‘shni davlatlar, Rossiya, G‘arb davlatlarida tadqiqotga asos bo‘lgan tarixiy konsepsiyalar, ularning farqlari va xususiyatlari, tarixni o‘rganish va tadqiq etishning usullari, yondashuvlari, Markaziy Osiyo respublikalarida Markaziy Osiyo tarixini yoritishdagi bir yoqlama g‘ayriilmiy qarashlar, O‘zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo tarixini tadqiq etishdagi asosiy nazariy va g‘oyaviy asoslar bilan tanishtirish.

Tayanch tushuncha va iboralar: *Markaziy Osiyo*, *metodologiya, tadqiq qilish usullari*, *tamoyillar, tarixiylik, xolislik, ilmiylik, yondashuviylik tamoyillari.*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi o‘rganish zarurati.
2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari:tadqiqot usullari, yondashuvlar va tamoyillari.
3. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.

Janubiy Afrika Respublikasidagi universitetga kiraverishda shunday so‘zlar yozib qo‘yilgan: «Har qanday millatni yo‘q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq radiusga ta’sir qiladigan raketalarga hojat yo‘q. Faqat ta’lim sifati pasaytirilsa va imtihonlarda talabalarga aldash uchun imkoniyat yaratilsa bas. Bunday vrachlar qo‘liga tushgan bemorlar o‘la boshlaydi. Bunday quruvchilar qurgan binolar qulaydi. Bunday iqtisodchilar va hisobchilar qo‘lidagi pullar izsiz yo‘qoladi. Bunday diniy ulamolar tufayli insonlar ma’nan o‘la boshlaydi. Bunday yuristlar va sudyalar qo‘lida adolat yo‘qlik sari yuz tutadi. Qonun chiqaruvchilar qo‘lida boshqaruv yo‘q bo‘ladi. Ta’limning barbod bo‘lishi — millatning kasodga uchrashidir”.

Haqiqatan ham, millat va xalqlarni yo‘q qilishning vositalaridan biri bu ta’limni izdan chiqarish, xalq va millatning o‘tmishini, haqqoniy tarixini unuttirish va xotiradan o‘chirishdir. Mustamlakachilik mafkurasiga va tuzumiga jonu-dili bilan xizmat qilgan, Rossiyaning shovinist generallaridan bo‘lgan Skobelev: “Millatni yo‘q qilish uchun tarixini yo‘q qilish kifoya,”- degan edi. Hozirgi murakkab va tahlikali

dunyoda xalqlar va millatlarning taqdiri jang maydonlarida emas, ta’lim sohasida, fikr, g‘oya va targ‘ibot maydonlarida hal bo‘layotgan davrda tarixni buzib talqin qiluvchilarning soxta qarashlarni, yolg‘on va falsifikatsiyaga asoslangan nazariya va konsepsiyalarni fosh qilish, xalqimizning haqqoniy tarixini asrash, uni yoshlarimiz va jahon ahliga yetkazish biz tarixchilarning eng asosiy vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham xalq va millatlarning kelib chiqishini ilmiy asosda, xolis o‘rganishni juda muhimdir.

Har bir xalq va davlat uchun o‘z tarixini o‘rganish milliy mafkurasini yaratishda fundamental asoslardan biri hisoblangan. So‘nggi yillarda, ayniqsa, sobiq Ittifoq parchalangach, “sovuq urush” davri tugadi deb hisoblanib, uning o‘rnida mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi natijasida, ushbu mamlakatlarda o‘z tarixi, etnik kelib chiqishi va davlatchilik tarixi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarga e’tibor juda kuchaydi. Shunisi achinarliki, mintaqa xalqlari tarixini yetuk mutaxassislar va tadqiqotchilar emas, balki tarix ilmidan yiroq bo‘lgan jurnalistlar, siyosatchilar va hatto davlat rahbarlari ham yorita boshladi. O‘zlari mansub bo‘lgan millat va xalqni, mintaqada ming yillar davomida yonma-yon yashab kelayotgan, tili, madaniyati va dini umumiy bo‘lgan qo‘shni xalqlardan ustun qo‘yish ushbu tarixiy yondoshuvning mezoniga aylandi. Bu albatta, yagona ildiz va o‘tmishga ega o‘tmishni buzib talqin qilish, nafaqat ilmiy noxolislik, balki jiddiy metodologik xato hamdir.

Bizning nazarimizda, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy va geografik jihatdan bir butun madaniy - etnik yaxlitlikni tashkil etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida: “Bizning mintaqamiz – xalqlarimizni ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy, madaniyat va an’analar birlashtiradi”, - deb aytgan fikrlari fanimizni nazariy- metodologik asoslarini belgilab beradi.

Markaziy Osiyo tarixiga teran, ilmiy nuqtai nazardan, xolis qarash va yondashuv shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqa xalqlari ming yillar davomida hamjihatlikda, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hamkorlikda, o‘zaro chuqur iqtisodiy va etnik integratsiyada, maqbul davlatchilik, tarixiy-madaniy jarayonlar doirasida yashab kelganlar. Natijada, ulkan tabiiy-geografik hududda eng qadim zamonlardan ikkita

subetnos:turkiy va eroniy tilli xalqlar istiqomat qilganligi, ularda davlatchilik va madaniy birlik, etnik belgilardan tashqari, diniy, etnik chegarasi qat'iy belgilanmagan urug‘- qabila qadriyatlarning uyg‘unligi asosiga qurilganligi tarix, etnografiya, etnologiya va boshqa fanlar vakillari tomonidan isbotlangan. Albatta, tarix ilmida voqealarni absolyut haqiqat darajasida bayon qilish mushkul vazifa. Ammo, tarixni tor, siyosiy-mafkuraviy maqsadlarni ko‘zlagan, tarix ilmidan yiroq bo‘lgan shaxslarning o‘tmishni soxtalashtirish, afsonalashtirish orqali bayon qilish kabi yondashuvlarni fosh etishda qo‘llanadigan ilmiy usul va yondashuvlardan foydalanish malakasini bo‘lajak tadqiqotchilarda shakllantirish hozirgi davrda tarix fanining ustuvor vazifalaridan biridir.

Mazkur darslik Markaziy Osiyo xalqlari tarixini respublikamizda, qo‘shni davlatlarda, G‘arb tarixshunosligida o‘rganish, tadqiq qilishda qo‘llanayotgan usul, yondashuv va konsepsiyalarni tahlil qilishni maqsad qilgan. Ushbu mantiqdan kelib talabalarga avval olgan bilim va malakalariga suyangan holda tarixni o‘rganish va tadqiq qilishda qo‘llanadigan usullar, yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot berish zarur deb hisoblaymiz. Bunda, talabalarni umumjahon miqyosida qabul qilingan ilmiy yondashuvlarni aks ettiradigan metodologiya fani va usullar (metodlar) bilan tanishtiramiz.

Metodologiya – tarixiy faktlarni tadqiq qilish usullari haqidagi ta'limotdir. Quyidagi tadqiqot usullar va yondashuvlardan foydalanish tarixni xolis va ilmiy asosda o‘rganishga yo‘l ochib beradi. Bular:

1. Tarixiy-genetik usul – tarixiy voqelikni rivojlanish jarayonlarning o‘zida, ya'ni vujudga kelishidan to halokatiga yoki hozirgi holatiga qadar o‘rganadi.

2. Tarixiy-qiyosiy usul – tarixiy obyektlarni makon va zamonda, o‘xshashlik va farqlarni qiyosiy tahlil qilish orqali o‘rganadi.

3. Tarixiy-tipologik usul – tarixiy rivojlanishning umumiy xususiyatlarini ajratadi va bir xil taraqqiyot darajalarini belgilab beradi.

4. Tizimli usul – tarixiy voqelikning ichki mexanizmlarini faoliyat olib borishi, rivojlanishi, taraqqiyot tizimini va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish.

5. Xronologik usul – tarixiy voqealarni xronologik izchillikda o‘rganishdan iborat.

Tarixni o‘rganishda yondashuviylik tamoyillari:

1. Diniy-ilohiy yondashuv – tarixni o‘rganishning o‘rta asrlarda vujudga kelgan shakli;

2. Ratsionalistik yondashuv (ratsionalizm) – aql bilishning birdan bir manbaidir;

3. Texnologik yondashuv – har qanday tarixiy taraqqiyot texnologiyalar rivojining natijasidir;

4. Subyektiv yondashuv (subyektivizm) – tarixda shaxsning roli va o‘rni ustun hisoblanadi

5. Liberal yondashuv – tarixiy jarayonlarni fuqarolik jamiyati, inson huquqlari va erkinligi ta’sirida shakllangan qarash;

6. Marksistik (formatsion) yondashuv – XIX asrda yashagan nemis faylasuvi va iqtisodchisi K. Marks asos solgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra kishilik jamiyati taraqqiyoti 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga bo‘linadi.

7. Sinxron yondashuv – bir vaqtning o‘zida turli joylarda ro‘y berayotgan voqeliklarni o‘rganish.

8. Sivilizatsion yondashuv – XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida N. Danilevskiy, A. Toynbilar tomonidan asos solingan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, har bir xalq, mamlakatlar tarixiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati bor, ular paydo bo‘lish, o‘sish, gullash, inqiroz va tushkunlikni boshidan kechiradi.

8. Modernizatsion yondashuv – XX asr boshida nemis olimi Veber tomonidan ilgari surilgan. Eskidan-yangiga, an’anaviylikdan-zamonaviylikka o‘tish, doimiy takomillashib borish – ushbu yondashuvning asosini tashkil etadi.

9. Ijtimoiy (sotsial) yondashuv – tarixning rivojlanishi va o‘rganilishi ijtimoiy institutlar, ya’ni oila, davlat, ta’lim orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birgalikda, tarixiy jarayonlarni o‘rganish, tahlil va bayon qilishning tamoyillari ham mavjud. Bo‘lar:

1. Tarixiylik – voqealarni ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari, kishilik jamiyati rivojlanishining o‘zaro bog‘liqlik, dialektika qonuniyatlari doirasida o‘rganishni talab qiladi.

2. Xolislik – tarixiy voqealarni yoritishga xizmat qiluvchi tarixiy faktlarni, dalillarni xolislik bilan, g‘araz maqsadlarsiz, vijdonan bayon qilishni talab etadi.

3. Ilmiylik – chuqur ilmiy mushohada, tahlil, qiyoslash usullariga suyanib, voqelikni haqqoniy, to‘g‘ri, obyektiv bayon qilishni talab etadi.

Markaziy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiya asoslari eng qadimgi

davrlarga, ya’ni mezolit va neolit bosqichlariga borib taqaladi. Xuddi shu davrda dehqonchilik manzilgohlari paydo bo‘lgan. Eneolit davriga kelib sug‘orma dehqonchilikning vujudga kelishi mintaqa taraqqiyotida keskin ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga yo‘l ochib berdi. Bronza davriga kelib esa shaharsozlik boshlandi. Ilk davlat uyushmalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar, ya’ni yer haydab dehqonchilik qilish, metall eritish va undan foydalanish yuksak taraqqiy qilgan jamiyatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Aynan shu davrda mintaqada ilk yozuv elementlari yaratildi. Markaziy Osiyoning janubida, ya’ni Turkmaniston va O‘zbekiston hududlarida mahalliy davlatchilik asoslari vujudga keldi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshiga kelib Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya kabi qudratli, yirik, markazlashgan davlatlar siyosiy maydonga chiqdi. “Avesto” yaratilganligining va Qarshi shahrining 2700, Samarqand shahrining 2750 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Ota-bobolarimiz ahamoniy va yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uzoq yillar davomida shiddatli kurash olib bordi. Buning natijasi o‘laroq mustaqil davlatlar: Qadimgi Xorazm, Choch, Parkana, Parfiya, Yunon-Baqtriya kabi davlatlar vujudga keldi, yuksaldi. Antik davrning buyuk davlatlari Qang‘, Kushon kabi saltanatlar nafaqat mintaqada balki, Sharq va G‘arb mamlakatlari tarixida ham sezilarli iz qoldirdi. Jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li aynan shu davrda shakllandi va rivojlandi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo – eng qadim zamonlardan boshlab ko‘plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlar kechgan tarixiy-geografik hudud hisoblanadi. Shuningdek, bu ulkan mintaqa jahon antropogen jarayonlari ro‘y bergan, insoniyatning ilk ajdodlari shakllangan makonlardan biridir. Markaziy Osiyo ming yillar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan madaniyat o‘chog‘i sifatida dunyo ilm ahlining e’tiborini tortib kelgan. Bugungi kunda jahon siyosiy xaritasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berib, Markaziy Osiyoda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ularning har biri o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab, istiqbol sari intilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston ham demokratik jamiyat qurish jarayonini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston uchun qo‘shni va uzoq mamlakatlar bilan keng qamrovli aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarning samarasini ta’minlash o‘z

navbatida kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog‘liqdir. Ayni shu ma’noda Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Mo‘g‘uliston, Dashti Qipchoq, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqalarida joylashgan o‘nlab davlatlar, xalqlar, elatlar tarixini biladigan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash o‘ta dolzarbdir. Tarixni bilish esa mamlakatimizning ushbu mintaqa xalqlari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish va samarasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo - tarixiy – madaniy mintaqasi haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Tarixning nazariy-metodologik asoslari nima?
3. Metodologiya-tarixiy faktlarni tadqiq qilishning usullari haqida gapirib bering.
4. Tarixni o‘rganishda yondashuviylik tamoyillari deganda nimani tushunasiz?

2-mavzu. Xalqlarning kelib chiqishi haqida zamonaviy konsepsiyalar

Darsning o‘quv maqsadi. Talabalarga xalqlarning kelib chiqishiga oid jahon va Markaziy Osiyo respublikalarida mintaqamiz tarixi tarixshunosligidagi nazariy muammolar va ularni yoritishdagi bir yoqlama yondashuvlar, konsepsiyalar haqida ma’lumotlar berish, tahlil qilish orqali tushuntirish. Yoshlarni Markaziy Osiyo respublikalarida xalqlarning kelib chiqishi masalasini yoritishdagi bir yoqlama g‘ayriilmiy qarashlar, O‘zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo tarixini tadqiq etishdagi nazariy va g‘oyaviy asoslar bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Xalqlarning kelib chiqishi, etnogenez masalasi, konsepsiyalar, yondashuvlar, davlat, davlatchilik, tub aholi yashagan hududlar, madaniyati, milliy shovinizm g‘oyalari.*

Darsning rejasi:

1.Xalqlarning kelib chiqishi: o‘rganish zarurati

2.Xalqlarning kelib chiqishi haqidagi yondashuv va konsepsiyalar

Har bir xalq o‘zining tarixini, ajdodlarining merosini, ma’naviy ildizlarini bilishni istaydi – bu tabiiy hol, albatta. Busiz taraqqiyotning bo‘lishi mumkin emas. G‘arblik tadqiqotchi Samuel Hantington bu haqda 1990 yillarda shunday yozadi: “Xalqlar va millatlar, odam bolasi o‘zidan so‘rashi mumkin bo‘lgan savollar ichida eng asosiysi, “Biz kimmiz? ” degan savolga javob topishdir… Insonlar o‘zlarini ajdodlari, dinlari, tili, tarixi, qadriyatlari, an’analari va an’anaviy muassasalari orqali anglaydi”. Darhaqiqat, har bir inson o‘z xalqining tarixini bilishi, boshqa xalqlarning madaniyatiga ham hurmat bilan qarashi, lozim. Mustaqillik yillarida mintaqamizda yashovchi xalqlar va millatlar jahon hamjamiyatida o‘rnini topish va milliy davlatchilikni shakllantirish, uni keyingi taraqqiyot yo‘lini tanlab olishda o‘z tarixini o‘rganishni ustuvor vazifa sifatida belgilashgan.

Shuni qat’iy qayd qilish lozimki, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi ming yillar davomida mushtaraklikda kechgan. Shuning uchun ularning kelajagi ham birgalikda barpo etilishi kerak. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar davri istibdodi 130 yil davomida amalda mintaqa xalqlari o‘rtasiga rahna solib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilishga urinib keldi. Afsuski, bu holat hozirgi davrda ham davom etmoqda. Ushbu jarayonga G‘arb olimlari ham qo‘shilmoqda. Shu bilan birgalikda, mustaqillikka erishgandan qo‘shni respublikalarining ba’zi olimlari orasida faqat o‘z xalqining tarixini ulug‘lab, ko‘kka ko‘tarib, uni soxtalashtirishga va qo‘shni xalqlarning mintaqa tarixida tutgan ahamiyatini kamsitishga urinishlar kuzatilmoqda. Sovetlar davrini qoralash bahonasida tarix sohasida

erishilgan tadqiqot natijalari, ilmiy yutuqlar inkor etilib, asossiz va noilmiy xulosalar chiqarilmoqda. Bunda, tarixni yoritishda turli xil yondashuvlar va konsepsiyalardan foydalanishni asos qilib olmoqdalar.

Ma'lumki, etnologiya fanida amal qilayotgan ilmiy konsepsiyaga ko‘ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi uch bosqichdan iborat bo‘ladi: Birinchi bosqich-da qo‘shni, hududiy jihatdan yaqin, turli til va lahjalarda so‘zlashuvchi qabila va elatlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari asosida etnomadaniy yaqinlashish, aralashish va etnik qorishuv, ya'ni etnogenetik jarayonlar kechadi. Bu hodisa har bir xalq tarixida juda uzoq davom etadigan obyektiv tarixiy jarayon bo‘lib, uning yakuni aynan olingan xalqning shakllanishiga olib keladi, ya'ni etnogenetik jarayon yakunida xalq shakllanadi. Demak, xalqlarning kelib chiqishi bu biologik hosila emas, balki uzoq davom etadigan tadrijiy ijtimimoiy hodisa natijasi bo‘lib, etnogenetik jarayonlar mahsuli va etnik birliklar yig‘indisidir. Xalq tarixining etnogenez qismi, uning elat, xalq bo‘lib shakllanishiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Etnogenezning boshlang‘ich nuqtasi, uning ibtidosi qabiladan boshlanadi. Agar biz O‘rta Osiyoning eng qadimgi o‘troq, tubjoy aholisi - o‘zbek va tojik xalqlari misolida oladigan bo‘lsak, u holda o‘zbek va tojik xalqlari etnogenezi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ibtidoiy jamoa tuzumi oxiridan (so‘nggi bronzadan) boshlanib, to rivojlangan o‘rta asrlar an‘anaviy jamiyatigacha, yani XI asrigacha davom etgan. Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik alomatlar birin-ketin yuzaga chiqib, mujassamlashgan bo‘ladi. Etnik alomatlarni esa hududiy birlik, iqtisodiy-xo‘jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi, etnik nom, o‘zlikni anglash, til birligi va nihoyat siyosiy uyushma birligi tashkil etadi.Mana shunday etno tarixiy jarayon barcha xalqlarga xosdir. Ammo, xalqlarning kelib chiqishi haqida turli qarash va konsepsiyalar mavjud.

Biz tarix ilmida mavjud bo‘lgan va hozir ham qo‘llanilayotgan ayrim konsepsiyalar haqida o‘z fikrimizni bildirib o‘tamiz:

Yevrosentrizm – Yevropa, alohida makon-jahon taraqqiyoti, takomili, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarning ildizi, manbasi degan g‘oyaga asoslanadi. G‘arb sivilizatsiyasiga asoslangan dunyoqarash yoki uni g‘arbiy bo‘lmagan sivilizatsiyalardan ustun qo‘yuvchi, noxolis qarash. "Yevrosentrizm" ta'limoti dastlab qadim Yunoniston va Rimda paydo bo‘lib, o‘rta asr Yevropasida yanada takomillashtirilgan. Ularning asosiy mazmuni hozirgi jahonda mavjud barcha sivilizatsiyalarning vatani bu Yevropadir. "Yevrosentrizm" g‘oyasiga ko‘ra, dunyoning qolgan xalqlari "yovvoyilik" - "qoloqlik" ka mahkum xalqlar bo‘lib, ularga madaniyat va

yuksak ma’rifatlik yot, begona tushuncha bo‘lib, XX - asrgacha G’arbda ustun turuvchi qarash bo‘lgan. XX - asrdan mazkur g‘oyaga ishonch ancha o‘z ta’sirini yo‘qotdi. Hozirgi kunda “modernizatsion dunyo” – g‘oyasi, G‘arb dunyosi ma’rifatchiligining ustun mafkurasiga aylanmoqda.

Shu bilan birgalikda tarix ilmida sharqsentrizm konsepsiyasi ham mavjud bo‘lib Sharq dunyosi – alohida makon, jahon taraqqiyoti, takomili, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarning ildizi, manbasi degan g‘oyaga asoslanadi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Eron, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar insoniyat sivilizatsiyasining o’chog‘I, makoni deb qaraladi. Bundan tashqari xalqlarning kelib chiqishi masalasida turli mintaqaviy, milliy-diniy qarashlar, konsepsiyalar ham paydo bo‘lgan. “Irqchilik”, “Oriylik” - “Xudo tanlaganlik” kabi qarash va mafkuralar G’arb dunyosida vujudga kelgan. Shu bilan birgalikda “Panturkizm”, “Panislomizm” va boshqa konsepsiyalar ham mavjud bo‘lib, bunda asosiy urg‘u biron-bir etnik birlikni va jahon dinini tarixiy voqelikni yaratishda ustun qo‘yish g‘oyasi asos qilib olingan. Shuningdek, “Shovinizm” - ulug‘ millatchilik, “Ulug‘davlatchilik” – ulug‘saltanatlar, davlatlarni qayta tashkil qilish, ularning ustunligini ta’minlash uchun tarixni qayta yozish harakatlari ham mavjud. Bunday harakatlar hozirgi Rossiya davlatida ayrim tarixchilar va siyosatchilar tomonidan ilgari surilayotgan imperialistik qarashlar fikrimizning yorqin dalilidir. Masalan, Rossiyalik siyosatchi Zaxar Prilepinning sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan mustaqil davlatlarni qo‘shib olish g‘oyasi hozirgi zamon shovinizmning bir ko‘rinishidir. Aynan shu g‘oyalar u yoki bu darajada Markaziy Osiyo mintaqasiga ham kirib kelgan. SSSR davrida ta’qiqlangan ushbu qarashlar, mustaqil davlatlar rivojlanishiga, taraqqiyot yo‘liga kirib kela boshladi. So‘nggi yillarda, ayniqsa sovet davlati parchalangach, “sovuq urush” davri tugadi deb hisoblanib, uning o‘rnida mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi natijasida, uzoq va qo‘shni mamlakatlarda o‘z tarixi, etnik kelib chiqishi va davlatchilik tarixi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarga e’tibor yanada kuchaydi. Afsuski, bunday yondashuvlarga “ilmiy qiziqishlar” emas, balki, siyosiy voqealar, eng avvalo, etnik nizolar kontekstida vujudga kelgan yangi reallik o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Qo‘shni davlatlarning ayrim “tarixchilari” o’zlari mansub bo‘lgan millat va xalqlarning kelib chiqishini “qadimiyligi”, mintaqaning “tub aholisi ekanligini” ta’kidlashdan charchmayaptilar. Ularning bunday yondashuvi “milliy avtoxtonizm” nazariyasi sifatida etnogenez faniga kirib kelgan. Mazkur soxta tarixchilar, o‘zlari mansub bo‘lgan millatni boshqa xalqlardan “etnik ustun qo‘yish”, “sara”, “tanlangan” xalq degan g‘ayriilmiy qarashlarni ilgari surib, hozirgi kunda mavjud, shakllangan va tan olingan

“tarixiy chegaralar”ni o‘zgartirishga asos qidirib, ularni o‘zgartirishni xohlovchi “soxta”, milliy tarixiy qarashlarni bayon qilishmoqda. O‘zbekistonlik marhum akademik E. Rtveladze xalqlarning kelib chiqishiga oid bunday da’volarni “etnik ustunlik konsepsiyasi” deb ataydi.

Siyosiy, arzon populizm ortidan quvadigan, ilmni “tovar” qilib sotishga qodir ayrim soxta “ilm ahllari”, tarixiy jarayonlarni soxtalashtirish**,** uni bir yoqlama yoritish (tendension yondashuv) tufayli siyosiy – tarixiy holatga moslashuvchan (konyukturaviy) qarashlar (konsepsiyalar) tarixiy faktlarni izohlaydigan (interpretatsiya) yo‘nalishini belgilab bera boshladi. Oqibatda, tarix fani asl tarixiy-ilmiy qarashlarga emas, balki, siyosatga xizmat qiladigan bo‘ldi. Ammo, muammo shundaki, ushbu tendensiyani ayrim davlat rahbarlari nafaqat qo‘llab-quvvatladi, balki o‘zlari ham ushbu yo‘nalishda “millatchilik”, “buyuk davlat”, “ulug‘lash” kabi g‘oyalarni bayroq qilib olganlarning nuqtayi nazarlari tarixda qanday vayronagarchiliklarga olib kelganligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham real tarixiy voqelikni anglash, yaratish, nafaqat tarix fanida haqiqatni tiklashga, balki, to‘g‘ri davlat mafkuralarini shakllantirishga xizmat qilishi tayin. Shunisi achinarliki ayrim davlatlarda “traybalizm**”** nazariyasiga amal qilish, ya’ni **–** tor doiradagi urug‘ - aymoqchilik, etnik birlik, alohidalik, o‘ziga xoslik, yaratuvchanlik bo‘lgan xalq-millat haqidagi ta’limotni tarixni yaratishda ilmiy asos sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan, Turkmaniston, Tojikistonda shunday yondashuvlar mavjud.

XX asrning o‘rtalarida G‘arbda tarixni yoritishda “Modernizatsiya” konsepsiya paydo bo‘ldi. Modernizatsiya - jamiyatni islohotlar, innovatsiyalar, ilmiy kashfiyotlar orqali uzluksiz yangilash jarayonidir. Modernizatsiya natijasi taraqqiyotdir. Modernizatsiya Evropada 15-asr oxirida paydo bo‘lgan va buyuk jo‘g ’rofiy kashfiyotlar davrining yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

O‘z millatini ulug‘lash va faxrlanishda tarix voqealari, qahramonlariga murojaat qilish har qanday, shu jumladan, mintaqamiz hududida vujudga kelgan davlatlarga ham xos hodisadir. Tarixning “shonli” davrlariga urg‘u berish, qahramonlarni madh etish, antik davrning eng yirik adabiy yodgorliklarining nashrlari, tillari va folklorini jonlantirish – bularning barchasi endi mustaqillikka erishgan davlatlar tomonidan yaratilayotgan mafkura uchun asosiy manba, omil bo‘lib xizmat qila boshladi.

Bunday tajriba mustamlakachilik sharoitida yashagan barcha xalqlarga xos bo‘lib, bu jarayon mustaqillikka erishgandan keyin ham davom etdi. XIX va XX asrda mustaqillikka erishgan Osiyo, Afrika va

Lotin Amerikasi mamlakatlari tarixida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin edi. Bu jarayon Osiyo va Yevropani bog'lovchi geostrategik nuqtada joylashgan – Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan xalqlarga ham tegishli. Ushbu hududda yashagan, jahon tarixida katta iz qoldirib, insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan eron tilli, turkiy tilli xalqlar va elatlar o‘zlarining davlatlari, imperiyalarini tuzganlar, madaniyat yaratganlar. Qo‘shni respublikalarda mavjud milliy-mahalliy mafkura ijodkorlari bugungi kunda ushbu voqealarga murojaat qilmoqdalar. Ular ma'lum bir hududda yashovchi xalqlarning qaysi biri o‘zini "eng qadimiy" deb atash huquqiga ega ekanligini aniqlash muammosini hal qilishni ustuvor ilmiy tadqiqot sifatida belgilamoqdalar. "Qadimiylik" uchun raqobat Markaziy Osiyo davlatlari mafkuralarining eng muhim xususiyatidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘shni davlatlarda keyingi yillarda xalqlarning kelib chiqishiga qiziqishlarning sabablari va bu boradagi yondashuvlarning mohiyati haqida gapirib bering.
2. "Yevrosentrizm" nazariyasi o‘zi nima?
3. "Etnik ustunlik konsepsiya"ga tushunchasiga ta'rif bering.
4. Markaziy Osiyoning zamonaviy konsepsiyalari haqida ma'lumot bering.

3-mavzu. Markaziy Osiyo respublikalarida milliy davlatchilik konsepsiyalari

Darsning o‘quv maqsadi. Sovet davlati parchalangandan so‘ng Markaziy Osiyo respublikalarida milliy davlatchiliklar tashkil topishi jarayonida mintaqa tarixiga qiziqishning ortishi, qo‘shni davlatlarda davlatchilik tarixini o‘rganish va yoritishda qo‘llanilayotgan milliy mafkura, g‘oyalar haqida tushuncha berish va ularni tahlil etish. Respublikalarda nashr etilayotgan kitoblarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish**.**

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Sovet davlati, davlat, davlatchilik, milliy davlatchilik, paniranizm, milliy shovinizm, natsizm, fashizm, oriylar, irqchilik, falsifikatsiya.*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo respublikalarida milliy davlatchilik konsepsiyalari yaratilishining tarixiy sharoitlari
2. Markaziy Osiyo respublikalarida tarix faniga qiziqishning ortishi sabablari va oqibati

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi 200 yildan oshiqroq vaqt davomida G‘arb va Sharq tarixchilari, siyosatchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, qo‘shni milliy respublikalarning mustaqillikka erishishi va rivojlanishi asnosida o‘z tarixini o‘rganish va yoritishga bo‘lgan qiziqish nihoyatda kuchaydi. Milliy va davlat qurilishi sharoitida mustaqillikka erishgan davlatlar tarixdan doimo asosiy mafkuraviy vositalardan biri sifatida foydalanganlar.

XX asrning 90-yillari va XXI asr boshida Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonda mustaqillik sharofati bilan tarixga qiziqish yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bunda, xalqni, millatni muayyan maqsad mustaqil rivojlanish yo‘lida birlashtirish uchun yangi mafkura, g‘oya va ma’naviy qadriyatlarlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Tarix fani mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilishda qulay vosita sifatida ko‘rildi. Millatning shonli tarixi, mifologik shaxslarning qahramonliklari, buyuk ajdodlar merosi – yangi mafkura va qarashlarning poydevori sifatida qaraldi. Kelajakdan ko‘ra, o‘tmishga e’tibor berildi. Buyuk shoirimiz Abdulla Oripov yozganlaridek: “Bir xalqda g‘alati odati bor edi, o‘lganlar azizu tiriklari xor edi”. Ushbu haqiqat qo‘shni respublikalarda tarixiy haqiqatdan ancha yiroq bo‘lgan voqealarning badiiy bezaklarda ifodalash, tarixiy jarayonlar va shaxslarning ideallashtirilishi, ba’zi xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlar tarixini

afsonalashtirilish kuzatildi. Zamonaviy nashrlarning ko‘plab mualliflari tinmay o‘z xalqining eng qadimgi o‘tmishini ko‘klarga ko‘tarishga hamda aksincha, mintaqaning boshqa xalqlari tarixi ahamiyatini pasaytirishga va ularning sivilizatsiya rivojiga qo‘shgan hissasini ochiqdan-ochiq rad etishga urinish va tarixni yozish oddiy holga aylandi. Turli kasb, toifa vakillari yozgan asarlarni barchasi birlashtiradigan bitta umumiylik bor, o‘z xalqi tarixini ulug‘lash, unga “saralangan” , “ tanlangan” xalq, millat deb baho berishdir. Bunday yondashuvlarni marhum ustozimiz, akademik E. Rtveladze “Etnik ustunlik konsepsiyasi “ (“Konsepsiya etnicheskoy isklyuchitelnosti”) deb aynan to‘g‘ri ta’rif bergan edilar. Bunday holat asl tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqot usullarini e’tiborsiz qoldirib, soxta tarixiy nazariyalarning ommaviy yaratilishiga olib kelmoqda.

O‘tmish tarixni bilishga qiziqish va foydalanish istagi shu darajada yuqoriki, maktab o‘quvchisi, oddiy blogerlardan tortib davlatlar rahbarlarigacha bu sohada qalam tebratmoqda. Biz, tarixni o‘rganuvchilarni ko‘pligidan shartli ravishda uch toifaga bo‘lish mumkin hisobladik: 1.Professional tarixchilar – soha bo‘yicha yetuk mutaxassis, manbashunos va tarixshunos, tarixiy tadqiqot metodlarini puxta o‘zlashtirgan va o‘tmish voqealarni ro‘y-rost talqin qiluvchilar; 2.”Professional tarixchilar” – hukmron mafkura, elita manfaatlariga mos tarixni yaratuvchilar, bularni “diletant tarixchilar “deb nomlashadi; 3. “Soxta tarixchilar”, o‘zlarini tarixchi qiyofasida ko‘rishni xohlovchi jurnalistlar, injenerlar, ayrim davlat rahbarlari, davlat arboblari, siyosatchilar, madaniyat sohasi vakillari ham o‘z munosabatini bildirmoqdalar.

O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘izistonda bu borada keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Albatta, bunda ayrim siyosiy kuchlar, katta davlatlar o‘z manfaatlarini ko‘zlayotganligi hech kimga sir emas. Xolis ilmiy tadqiqotlar qatorida, siyosiy va ijtimoiy populizmdan iborat, tor milliy mafkurachilikka asoslangan, ilmiylikdan mutlaqo yiroq bo‘lgan asarlar juda ko‘paydi. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari o‘z tarixini yaratish uchun milliy davlatchilik konsepsiyalarini ishlab chiqishdi. Biz ushbu mavzuni yoritishdan oldin davlat, davlatchilik va milliy davlatchilik haqida tushuncha berishimiz kerak.

Davlat – bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida ro‘y bergan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan, aholining ma’lum qatlamlarining manfaatlarini ifodalaydigan, qonunchilik va huquq targ‘ibot asosida jamiyat

boshqaruvining majburlash tizimiga qurilgan tuzilmadir (apparatdir). Davlatlarning shakllanishi va amal qilishi ilk sivilizatsiyaning yakuniy bosqichi hisoblanib, go‘yo, muayyan mintaqada istiqomat qiluvchi xalqlar, millatlarga boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilish “vakolatini” beradi.

Davlatchilik – muayyan xalqlar va millatlarning turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari asosida shakllangan va amal qilib kelgan, davomiylik va vorisiylik an’analariga muvofiq uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlari sinovlaridan o‘tgan, jamiyat boshqaruvi tizimi to‘g‘risidagi nazariy qarashlar.

Milliy davlatchilik – bir xalq va millatga tegishli bo‘lgan, shu mintaqa yoki hududda shakllanib, o‘ziga xos xususiyat va belgilarga ega bo‘lgan, boshqa xalqlar va millatlardan qisman o‘zlashtirilgan yoki qabul qilingan, singdirilgan, vorisiylik tamoyiliga ko‘ra asriy an’ana va qadriyatlarga asoslangan, boshqaruv tizimi nazariyasidir.

Xalqlarning murakkab shakllanishi haqida gapiradigan sovet etnogenez ta'limoti qadimgi ajdodlar qatoriga aholining keng xilma-xil guruhlarini kiritish imkonini berdi. Natijada, ilk temir asridagi eronzabon ko‘chmanchilarning “oriy merosi”ga qo‘shilish imkoniyatini ochib beradi. Biroq, bu imkoniyat va undan foydalanish istagi ortida turli motivlar mavjud, bu esa “oriylik” mohiyatini boshqacha tushunishga olib keladi. Qo‘shni respublikalarda, ayniqsa, Tojikiston va Turkmaniston milliy davlatchilik konsepsiyalarida “oriylik” nazariyasiga asosiy urg‘u berilgan.

Ushbu nazariyaning tarixni o‘rganish va yoritishda asos qilib olinishiga bir qancha sabablar bor. Bular:

1. Xalq uchun oriylarning o‘tmishini egallash, birinchi navbatda, uning “mahalliy xalq” (“avtoxton”) maqomiga ega bo‘lishini anglatadi va shuning uchun ham Markaziy Osiyo hududida o‘z davlatlarini qurish huquqini qonuniylashtiradi (legimitatsiyalashtitiradi).
2. Ayrim tarixchilarning da’vosicha “Oriylar”ga qarindoshlik xalqlarga qadimiy tarixda sharafli o‘rin beradi va ularni yevropaliklar bilan tenglashtiradi, kamsitish kompleksidan xalos bo‘lishga yordam beradi.
3. Oriylarning jangovar ruhi qadr-qimmatli bo‘lib, odamlarda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi va o‘z vatanini tashqi dushmanlardan himoya qilishga doimo tayyor bo‘lishga undaydi.
4. Oriylarning yuksak ahloqiy ideallariga, ularning “ma’naviy pokligi”ga katta ahamiyat beriladi.

Markaziy Osiyoning yangi, mustaqil davlatlari urug‘- qabilachilik va mahalliychilik qoldiqlarini yengish va millatni birlashtirish uchun o‘tmishda o‘tgan buyuk ajdodlarning xotirasi va qahramonligiga muhtoj edi. Chunki, ayrim qo‘shni davlatlarda “o‘z qobig‘ida o‘ralashish”, ya’ni, “traybalizm” – mafkurasidan voz kechish uchun asos zarur bo‘lgan. Shuning uchun, Markaziy Osiyodek katta mintaqada o‘z huquqini da’vo qilishda “oriylik nazariyasi” asos bo‘lib xizmat qilish kerak edi.

SSSRning parchalanishi jarayonida va keyingi yillarda qo‘shni davlatlarda faoliyat olib borgan tadqiqotchilar o‘z millatini kelib chiqishi, uzoq o‘tmishini ulug‘lash, mintaqaning yagona “tub aholisi”, “avtoxton” xalqi sifatida mintaqada mavjud davlatlar, madaniyat yutuqlariga nisbatan ustun “huquqi”ni da’vo qilishni ko‘zlaganlar. Shu bilan birgalikda, aksincha, mintaqaning boshqa xalqlari tarixining ahamiyatini ataylab pasaytirib, ularning jahon sivilizatsiya rivojiga qo‘shgan hissalarini ochiqchasiga inkor etadilar. Shu tariqa, asl tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqot usullari e’tibordan chetda qolib, ommaviy ravishda soxta konsepsiyalar, nazariyalar yaratish yo‘lidan bordilar.

Tarixni yoritishda sovetlar davrida ustun yondashuv sifatida mavjud bo‘lgan kommunistik mafkura va andozalardan voz kechildi, shundan kelib chiqib milliy tarixchilar ham o‘z uslublarini o‘zgartirish zarurligini yaxshi anglaganlar. Chunki, bu davrda zamonaviy tarixshunoslik jiddiy inqirozini boshdan kechirdi. Tarixni marksistik metodologiya asosida baholash, o‘tmishni o‘rganish va yoritishning formatsion yondashuvidan, sivilizatsion yondashuv va davriylashtirishga o‘tish, G‘arb maktablari tomonidan ishlab chiqilgan usullar bilan tanishish va ularni qo‘llash tarafdorlari ham mahalliy tarix faniga kirib kela boshladi.

Ammo, qo‘shni respublikalarda tarixshunoslik xalqlarning kelib chiqishini mifologiyalashtirish, tarixni soxtalashtirishga moyil tarafdorlar ustunlik qila boshladi. Ushbu oqim tarixni bayon qilishda quyidagi usullar, yondashuvlar va tushunchalarni qo‘llashni ma’qul ko‘rishgan:

- xalq ertak va rivoyatlaridan tarixiy manba sifatida foydalanish;
- qadim va o‘rta asrlarda o‘z xalqining “oltin davri”ning buyukligini targ‘ib qilish, ularning etnonimi (o‘zini belgilash) va davlatchiligini asossiz, sun’iy ravishda kengaytirish;
- mintaqadagi barcha xalqlarning tarixiy-madaniy merosni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi tengligini inkor etish;
- ma’lum bir xalqning “fenomen”i, ularning mintaqadagi boshqa xalqlarga, hattoki butun insoniyatga nisbatan “etnik

tanlanganligi” va madaniy ustuvorligi nazariyasini keng targ‘ib qilish;

-tarixga qiyosiy-raqobatli yondashish, qaysi xalq qadimiy ekanligi, ilk davlat va shaharlarga asos solgan, birinchi g‘ildirak, arava ixtiro qilgan, metallar eritishni boshlagan va hokazolar;

- tarixdan hozirgi siyosiy konyunktura maqsadlarida foydalanish.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo respublikalarida yashovchi xalqlarning tarixini yoritish bo‘yicha turli qarash va konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ular asosan siyosiy populizm maqsadlariga xizmat qilmoqda. O‘tmishda mintaqada yaratilgan barcha moddiy - ma’naviy madaniyat yutuqlari ushbu hududda yashovchi barcha xalqlarga tegishlidir va ularni ajratish, bir-biriga qarama-qarshi qilish g‘oyasi xalqlarning birdamligi va kelajagiga rahna soladi.

Umuman, qo‘shni davlatlarda tarixni bunday talqin qilish, uni davlat siyosati darajasiga olib chiqishga undagan omillar nima bo‘ldi?, degan haqli savol tug‘iladi. Tadqiqotchilar va mening ham fikrim shunday: 1-chidan , ”avtoxton”, “eng qadimgi xalq”, “eng qadimgi davlatchilik asoschisi”, “barcha ilm-fan, madaniyat yutuqlarni yaratuvchisi” , “saralangan”, “ tanlangan” xalq, millat kabi da’volari bilan, go‘yoki ular shu yerning, mintaqaning, davlatchilikning, madaniyatning “egalari”, bu ularning haqi, demak hozir ularga qurgan va qurayotgan davlatlar “qonuniy”, “merosxo‘ri” bo‘lish imkoniyatini beradi; 2-chidan, xalqlar shu jihatdan “yaratuvchan” , “sivilizatsion” , “madaniy” (“Yevrosentrizm” va Germaniyada paydo bo‘lgan “oriylik “nazariyasi”sin eslang) va “urushqoq”, “o‘zlashtiruvchi” “yovvoyi” xalqlarga bo‘linmoqda. Bunday qarashlarni targ‘ib va amal qilish o‘tmishda xalqlar hayotida qanday oqibatlarga olib kelganligini tarix unutmagan.

Mintaqamizning o‘tmish va yaqin tarixi talqini va fan sifatidagi taqdiri, shuni ko‘rsatadiki, afsonalar, emotsiyalar, davlat rahbarlari, hukmdorlarning xohish –irodasi va qosh-qovag‘iga asoslangan, soxta mafkuralarga, mantiqsiz siyosatga xizmat qiladigan, “folk-xistori” konsepsiyasiga asoslangan “soxta tarix”ni umri qisqa bo‘ladi, ilmiy asoslangan, chuqur fundamental yondashuv, metodlarga suyanib bitilgan tarix umrboqiydir.

Shunday qilib, hozirgi davrda Markaziy Osiyo respublikalarida ayrim tarixchilar va “soxta tarixchilar” mintaqa tarixni o‘rganish, bayon qilishda quyidagi ustuvor talqinlar asos qilib olishmoqda:

1-chidan, o‘z xalqining Markaziy Osiyoning eng qadimgi, “tub aholisi”, “avtoxton” xalq, millat ekanligini isbotlashga urinish. Bunda ayrim davlat rahbarlarini namuna bo‘layotganligi ham achinarli holatdir. Turkman xalqi olti ming, tojik xalqi sakkiz ming yil oldin vujudga kelgan qarashlarning paydo bo‘lishi tarixni buzib talqin qilishning ifodasidir. 2-chidan, muayyan xalq, millat go‘yoki, neolit, eneolit davrlaridayoq mintaqada ilk bora “eng qadimgi davlatchilik“ asoslarini yaratganligigiga da’vo qilish ham tarixni soxtalashtirshidan boshqa narsa emas. Hatto, Turkmanistonning birinchi prezidenti Saparmurod Niyozovga tegishli bo‘lgan “Ruhnoma” asarida qadimgi davr va o‘rta asrlar Osiyo va Yaqin Sharqda hukmronlik qilgan yetmishta hukmron sulola – turkmanlardan kelib chiqqan deb da’vo qilinishi o‘ziyoq qo‘shni respublikalarda “mifologik tarix” davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini bildiradi. 3-chidan, o‘z tarixida “ nufuzli” ajdodlarni izlash va ularning “shonli tarixi” haqidan afsonalar to‘qish. Bunda o‘tmishda, Yevroosiyo qit’asining juda katta qismida istiqomat qilgan, “tanlangan” xalq deb hisoblanadigan “oriylar”ga avlod bo‘lish ham katta sharafdir. Bunday qarashlar Tojikiston, Turkmanistonda davlat siyosati darajasida e’tirof etilsa, Qozog‘istonda ayrim tarixchilar tomonidan bayon qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Davlatchilik va milliy davlatchilik farqlarini ayting.
2. Markaziy Osiyo respublikalarida milliy davlatchilik konsepsiyasi nimaga asoslangan?
3. Hozirda Markaziy Osiyo xalqlari tarixini talqin qilishda “milliylik”ning ahamiyati qanday?

4-mavzu. Qozog‘istonda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganilishi: yondashuv va talqinlar

Darsning o‘quv maqsadi. Qozog‘iston Respublikasining milliy konsepsiyalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishidagi bir yoqlama qarashlar bilan tanishtirish va ularni tahlil etish. Qozog‘iston olimlari tomonidan nashr etilgan kitoblarda ilgari surilgan g‘oyalar va ularning mazmun mohiyati haqida tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Qozog‘iston***,** *ko‘chmanchi qabilalar, saklar, qipchoqlar, qozoqlar, qozoq juzlari, Qozoq xonligi, Dashti Qipchoq, “Buyuk Dasht sivilizatsiyasi”, “Milliy avtoxtanizm”.*

Darsning rejasi:

1. Qozog‘iston davlatchilik tarixidagi bugungi kun qarashlari. Konsepsiyalar.
2. Qozog‘iston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi.

Mustaqillik, Markaziy Osiyo respublikalarida milliy davlatchilikka asoslangan ijtimoiy tuzumni qurishga qaratilgan o‘z milliy mafkurasini shakllantirish vazifasini qo‘ydi. Qozog‘istonda ham shu davrda o‘z o‘tmishiga qiziqish yanada kuchaydi. Asosiy e’tibor qozoqlar kelib chiqishi jihatidan tub, “avtoxton” xalq degan g‘oya, nazariyaga qaratildi. Bu sohada muammo shunda ediki, tarixni yoritishga, soha mutaxassislari bir chekkada qolib, siyosatchilar, jurnalistlar, injenerlar, yozuvchilar va boshqalar tarixni bayon qilishga aralasha boshladilar. Qozoqistonlik tadqiqotchilarning asosiy da’vosi shundaki, o‘tmishda “Dashti Qipchoq” deb atalgan tarixiy – geografik mintaqa qozoqlarning bevosita ajdodlari bo‘lgan turkiyzabon xalqlar uchun vatan, boshpona vazifasini bajargan. Shu bilan birga, qozoq olimlari tarixiy qarashlarini asoslash maqsadida ilmiy va arxeologik izlanishlarni kuchaytirdilar. ”Milliy avtoxtonizm” konsepsiyasi ushbu tadqiqotlar uchun bosh g‘oya sifatida qabul qilindi. Qozoq tarixchisi Musat Axinjanov qozoq xalqi faqat avtoxton shaklda shakllangan deb qat’iy ta’kidlaydi. Uning fikricha eramizdan avvalgi ikkinchi va birinchi ming yilliklarda mintaqamizda yashagan skiflar va saklar turkiyzabon qabilalar bo‘lgan, miloddan avvalgi III asr xitoy yilnomalarida “qozoq” etnonimini uchraydi. Arxeolog Ruslan Ismailov ham mazkur qarashni qo‘llab quvvatlab, skif va sak populyatsiyalari orasida turkiyzabon guruhlar borligiga da’vo qiladi va qozoq xalqining avtoxton kelib chiqishi haqidagi g‘oyani mustahkamlashga xizmat qilgan. Uning fikricha, bunday yondashuv qozoqlarning “oriylar”ga qarindoshligini kamaytirmadi, chunki “oriylar” turkiy tillarning asl so‘zlashuvchilari bo‘lgan.

“Avtoxtonizm” g‘oyasi 2000 yilda qabul qilingan “Qozog‘iston Respublikasida tarixiy ongni shakllantirish konsepsiyasi” davlat dasturining o‘zagi bo‘lib, unga ko‘ra bronza davridagi manzilgohlar va bu davrning eng mashhur “Andronovo” nomli shaharchasi qozoqlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajdodi ekanligi ta’kidlanadi. Til nuqtayi nazaridan bu madaniyatlarning barchasi “asosan turkiyzabonlar” deb talqin qilingan. Bunday talqin, qozoq olimlarining ko‘p jildlik “Qozog‘iston tarixi: qadim zamonlardan to hozirgi kungacha” nomli fundamental tadqiqotida ham o‘z aksini topgan.

Ammo, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va yashagan mintaqa masalasida qozoq mualliflari orasida to‘liq birlik yo‘q. Ba’zilar saklarni eroniyzabon aholi sifatida ta’riflaydilar, qozoqlarning kelib chiqishini saklarning begona turkiy qabilalar bilan aralashuvi natijasi deb hisoblab, o‘tgan tarixiy davrda madaniyat va urf-odatlar unchalik o‘zgarmaganligini ta’kidlaydilar. Boshqa bir guruh tadqiqotchilari, bular ko‘pchilikni tashkil qiladi, bronza va ilk temir davri yashagan mintaqa aholisining “prototurkiy tillar” bo‘lganligini da’vo qilishadi. Masalan, qozoq arxeologi Kamol Akishev qozoq xalqining shakllanish jarayonini avtoxton hind-yevropa aholisi va begona turk-mo‘g‘ullarning sintezi sifatida talqin qiladi, mahalliy etnik muhitda muhim prototurk komponentlar mavjud bo‘lganligini asoslashga urinadi. Mazkur bahslarga Qozog‘istonning sobiq rahbari Nursulton Nazarboyev ham qo‘shilib, qozoqlarni “ariylar” dan kelib chiqqanligini va shuning uchun ham “ma’naviyatning qadimiy ildizlari” mustahkam asoslarga ega ekanligini iddao qiladi. Nursulton Nazarboyev “Buyuk Dasht sivilizatsiyasi” nazariyasini ilgari surib, qozoqlarni Dashti Qipchoq tamadunining asoschisi va ijodkori sifatida ko‘rsatadi.

Qozoq arxeologlari va tarixchilari Oltoy mintaqasida topilgan ilk temir asriga oid skiflarga tegishli bo‘lgan mashhur “Paziriq qo‘rg‘onlari”ini qozoqlar etnogenezinining muhim elementi sifatida qarashadi.

Yana bir qozoq tarixchisi Aleksandr Qodirov ham qozoqlarni oriylar va saklarni ajdodlari qatoriga kiritadi. Uning ta’kidlashicha, eramizdan avvalgi VI asrda forslarga qarshi muvaffaqiyatli kurashgan va eramizdan avvalgi IV asrda Makedoniyalik Aleksandr qo‘shinining ko‘chmanchi xalqlarga qilgan tajovuzini daf qilgan sak va skif qabilalarinihg “zafarli davrlari”, ularning jangovar faoliyatlari qozoq xalqining ruhiyatida saqlab qolingan. Ammo, tadqiqotchining fikricha oriylar va saklar Kavkaz irqiga

mansub bo‘lib, eron tilida gaplashgan va uzoq davom etgan evolyutsiya bois zamonaviy qozoqlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Mazkur qarashlar maktab darsliklariga ham singdirilib, 5-sinf uchun darslikda bronza davri Qozog‘istonning qadimgi aholisi hind-eron (oriy) va oltoy tillarida so‘zlashganlar deyiladi. U yerda saklar “qozoq xalqining ajdodlari” deb atalsa, 10-sinf darsliklarida esa saklar “oriylar” yoki “turkiy tilli qabilalar” sifatida taqdim etilgan.

Kasbi tarixchilikdan mutlaqo yiroq bo‘lgan muhandis-mexanik Shaxmurat Quanganov qadimda “argun oriylari” bo‘lganligini va aynan shular buyuk sivilizatsiyaga asos solgan deb da’vo qiladi. Shu bilan birgalikda qozoqlarning qadimiy ajdodlarini turkiylar bo‘lganligini ham inkor qilmaydi.

Siyosatshunos Iskandar Undasinov bundan ham uzoqroqqa boradi. Qozoq xalqi tarixiga qiziqib, qozoqlarning qadimgi va o‘rta asrlardagi ajdodlariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitob nashr ettiradi. U qozoq xalqi asosidagi eng qadimiy qatlamni hind-yevropaliklar, so‘nggi bronza davrining “Andronovo madaniyati”ni yaratuvchilari bilan bog‘lagan va ularni “oriylar” deb atagan. Undasinov “Qozog‘iston va unga tutash hududlar oriylarning vatani bo‘lgan”, barcha hind-eron xalqlarining vatani “Buyuk Dasht”, uning markazi esa hozirgi “Qozog‘iston dashtlari” ekanligini ta’kidlaydi. Ilk temir davrida Yevroosiyo dashtlarida yashagan oriy qabilalari, savromatlar, sarmatlar, saklar va usunlarni qozoqlarning bevosita ajdodiga kiritadi. O‘sha davrning texnologik yutuqlari aravalar, zirhlar, harbiy anjomlar, otliq qo‘shinlari qozoqlarning ajdodlari ixtirolari sifatida talqin qilib, o‘tmishda yirik imperiyalarni tashkil qilganlar deb iddio qiladi.

Qozoq yozuvchisi O‘ljoy Suleymenov ham qozoqlar etnogenezi va tarixi bo‘yicha tadqiqotlarida o‘g‘uzlarni sak, skiflardan kelib chiqqan va ularning turkiy qabilarlar bo‘lgan degan fikrni ilgari suradi. Ammo, qadimgi skiflar orasida turk qabilalari ham bo‘lganligi haqidagi g‘oya ayrim tadqiqotchilar tomonidan avvalroq ilgari surilgan. Eramizdan avvalgi IV – mingyilliklarda qadimgi Mesopatamiyaning janubida yashagan shumerlar ham turkiy tilli xalq bo‘lgan va ularni qozoqlarning avlodi sifatida talqin qilishadi. Shummer tilining qadimgi turk til bilan o‘xshash tomonlari haqida ham bir qator ilmiy maqolalar va kitoblar yozilgan. O‘zbekistonlik turkolog tarixchi G‘aybullo Babayorov ham mazkur nazariyani qo‘llavchi fikr bildirgan.

Ammo, ushbu masala hali ham o‘z yechimini topmagan va jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan qabul qilinmagan. Chunki, avvalo, ushbu

qarashlarni ishonchli manbalar asosida isbotlash kerak. Ilmiy xulosa yetarli darajada isbotlangan bo‘lsa, uning natijasi shundoq ham ijobiy bo‘ladi. Qolaversa, bunday munozarali ilmiy masalalar bilan adabiyotchilar va yozuvchilar emas, mutaxassislar shug‘ullanishi kerak.

Mustaqillik davrida Qozog‘istonda ayrim qozoq “olimlari” o‘zbek xalqining etnogenezi bo‘yicha ilmiy jamoatchilik qabul qiligan konsepsiyani inkor etib, aslida o‘zbek degan xalq bo‘lmagan, ular qozoqlardan tarqalgan va ularning bir qismi bo‘lgan degan fikrni tarqata boshladilar. Ularning talqinicha, Amir Temur ham aslida qozoq bo‘lgan, Toshkent shahri ham qozoqlarga qarashli bo‘lgan. Ayrim, Qozog‘iston olimlari orasida, etnik qozoqlarga yaqin bo‘lgan qirg‘izlarga nisbatan ham noxolis qarashlar mavjud.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlar tarixi umumiy o‘tmish va madaniyatga ega ekanligini, tarix - mintaqa davlatlarini birlashtiruvchi ma’naviy-mafkuraviy omil bo‘lib xizmat qilishini anglayotgan tadqiqotchilar safi ortmoqda. Astana shahrida Nursultan Nazarboyev xalqaro universitetida xalqaro ilmiy markaz, shuningdek, Xalqaro Turk akademiyasi va boshqa bir qator xalqaro maqomdagi tarixiy tadqiqot muassasalarida Rossiya, Amerika, Yevropa, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan taklif etilgan olimlar faoliyat olib bormoqdalar. Xorijlik olimlar yordamida qozoq olimlari Markaziy Osiyo tarixini yangidan yozmoqdalar.

2026 yil may oyida Astana shahrida “Oltin O‘rda dasht sivilizatsiyasining modeli sifatida:tarix, arxeologiya, madaniyat, milliy o‘ziga xoslik” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro simpoziumida Qozoqiston tarixchilari qozoqlarni Oltin O‘rdaning to‘g’ridan to‘g’ri vorisi deb e‘lon qildilar. O‘zbekistonlik tarixchi Baxtiyor Alimdjanov qardosh xalq vakillarining bunday yondoshuvnini “qozoq imperializmi”ga da‘vo qilish deb baholagan edi[1]. Bu erda turkiy xalqlarning davlatchiligi sifatida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan “Oltin O‘rda” xonligi merosiga faqat qozoqlar haqli deyilishi tarixni soxtalashtirishning yana bir qo‘pol ko‘pinishidir.

O‘zbekistonlik olimlar ham qozoq olimlari bilan mintaqa tarixini o‘rganish boradasida hamkorlik qilmoqda. To‘g‘ri, mintaqada yashovchi xalqlar etnogenezi va tarixi haqida bahsli qarash va tahlillar ham berilmoqda. Albatta, tarixiy jarayonlarni talqin qilishda turli qarashlar, yondashuvlar bo‘lishi, tabiiy. Chunki, qozoqlar bizga yaqin va qardosh

[1] Алимджанов Б. Узбеков пугает казахский империализм.Altyn – Orda.kz.htttps://share.google

xalq, mintaqamizning qadimiy o‘zaklarga ega etnos. Qozoqlar Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham yashaydilar. Ular Mo‘g‘iliston, Sharqiy Turkiston va O‘zbekistonda, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida nisbatan ko‘proq. Qozoq xalqi yagona tariximizning ajralmas qismidir. Bizning nazarimizda, tarix fani mintaqamizda yashovchi xalqlarni ajratishga emas, aksincha, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy jihatdan birlashtiradigan vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak. Markaziy Osiyoda yshovchi xalqlar tarixini bag‘rikenglik, xolislik, ilmiylik asosda o‘rganish va bayon qilish, qardosh va do‘st xalqlarning taraqqiyotiga yo‘l, o‘zaro ishonchli hamkorligiga ijobiy turtki bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik yillarida Qozog‘istonda mintaqa tarixiga oid qarashlarning shakllanishiga ta’sir qilgan omillar va sabablar haqida gapirib bering.
2. “Milliy avtoxtonizm” konsepsiyasining qozoq tarixchilari tomonidn talqin va bayon qilinishi etnogenez masalasida nima uchun ustuvor qarash sifatida qaralmoqda?
3. ”Buyuk Dasht sivilizatsiyasi” qanday konsepsiya?

5-mavzu. Turkmanistonda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganilishi: qarash va konsepsiyalar

Darsning o‘quv maqsadi. Turkmaniston respublikasining milliy konsepsiyasida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishidagi bir yoqlama qarashlar bilan tanishtirish va ularni tahlil etish. Turkmaniston olimlari tomonidan nashr etilgan kitoblarda ilgari surilgan g‘oyalar va ularning mazmun mohiyati haqida tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar*: Turkmaniston, mustaqillik, turkmanlarning kelib chiqishi, saklar, massagetlar, o‘g‘uzlar, ko‘chmanchi qabilalar, “Ruhnoma”, “oriylik” konsepsiyasi, turkman davlatlari.*

Darsning rejasi:

1. Turkmaniston davlatchilik tarixidagi bugungi kun qarashlari. Konsepsiyalar.
2. Turkmaniston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi.

Har bir xalq va millat o‘zining kelib chiqishi tarixini bilishni istaydi. Zotan, tarix - milliy davlatchilik shakllanishi va yuksalishining mafkuraviy asosini tashkil etadi. Sunisi e’tiborliki, mustaqillik yillarida Turkmanistonda o‘z o‘tmishiga qiziqish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Turkman xalqining kelib chiqishi, davlatchilik tarixi, millat qahramonlari shaxsini o‘rganish va bayon qilishda tarix ilmida mavjud tadqiqot metodlaridan chekinib, to‘qima va soxta manbalar asos sifatida qabul qilindi. Miliy davlatchilik konsepsiyasi – tarixiy jarayonlarni millat markazidan turib talqin qilishga haddan ziyod moyil bo‘lgan tarixshunoslik yondashuvi bo‘lib u transregional aloqalar va tashqi ta’sirlarni ikkilamchi darajaga tushiradi va barcha siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy voqealar, tarixiy jarayonlar markazida “millat” tushunchasini yetakchi qilib ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo respublikalarida tarixiy tadqiqotlarni milliy davlatchilik konsepsiyasi ruhida yozishga harakat Turkmaniston va Tojikiston tarixshunosligida kuzatiladi.

Turkmanistonda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish masalasida bir qator subyektiv va obyektiv fikrlar shakllangan. Quyida bu holatni davlat rahbarlarining fikrlari turkman tarixchilari, o‘zbek tarixchilari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Turkmanistonning birinchi prezidenti Saparmurad Niyazov “Ruhnoma” kitobida “Bizning tariximiz 5000 yil avval yashagan O‘g‘o‘z xon turkman davriga boradi. Bu davrda bizning davlatimiz Hindistondan O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan imperiya edi.

Turkmanlar o‘zlarining yerlarida 70 dan ziyod davlat qurishdi. Anau, Altintepe, Marg‘iyona, Parfiya, Saljuqiy turkmanlar imperiyasi….”, [2] - shular jumlasidandir.

Mazkur jumlalarda sanab o‘tilga hududlarning aksariyati bugungi Turkmanistonning zamonaviy chegaralariga to‘g‘ri kelmaydi. Tarixiy legitimlik, milliy davlatchilik va etnosiyosiy konsepsiyalar mavjud. Tarixda O‘g‘uzxon afsonaviy hukmdor hisoblanadi u haqida manbalarda aniq ilmiy fikrlar uchramaydi. Bu yerda tarixni soxtalashtirish, mifologik - ideologik yondashuv, ya’ni mif va afsonalarga asoslanib tarix yozish holati mavjud.

Turkman tarixchisi Ovez Gyundogdiyev o‘zining kitobida turkman millatining nafaqat mintaqada balki Rossiya hududida ham eng tub xalq ekanligiga da’vo ruhida yozilgan. Kitobda yozilishicha “Sharqiy slavyan xalqlarining etnogenezida turkiy qabilalar - xunlar, avarlar, xazarlar, o‘g‘uzlar va qipchoqlar muhim rol o‘ynagan va ularning integratsiyasi kelajakdagi rus xalqining shakllanishida asosiy omil bo‘lgan. Bu xalqlarning hammasi turkman ajdodlari hisoblanadi. Qadimgi rus sof slavyanlar emas, turk qabilalari bugungi Rossiyaning haqiqiy yadrosini tashkil qiladi”.[3]

Shamsiddin Kamoliddin “Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar” kitobida “Turkmaniston tarixshunosligida tarixiy turkmaniston tushunchasi mavjud. Bugungi Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Janubiy Qozog‘iston hududlari Shimoliy Turkmaniston, Ko‘hna Urganch turkmanlari nomlari ostida tarixiy turkmanistonga tegishlidir. Turkmaniston hududidan topilgan Anov, Namozgoh, Oltintepa yodgorliklari Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy merosidir”. [4]

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, tarixiy jarayonlarni bir millat yoki monoetnos markaziga jamlab tushuntirish mintaqadagi ko‘p qatlamli siyosiy, etnik va madaniy qarashlarni inkor etishga olib keladi. Natijada tarix ilmiy tahlil obyekti emas balki milliy identitetni mustahkamlash vositasi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy tarixshunoslikda Markaziy Osiyo hududi transregional makon sifatida qaraladi va mintaqadagi

[2] Niyazov S. “Ruhname”, Türkmen döwlet neşirýat gullugy. - Ashxobod 2001. – S. 10

[3] Gyundogdiyev O. “ Proshloye turkmen” Interstamo. - Moskva :1998. - C . 176, 177

[4] Shamsiddin Kamoliddin. “ Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar”. - Toshkent: 2023. - S . 45, 46

sivilizatsion yutuqlar umum mintaqa xalqlarining yutuqlari deb qarash to‘g‘ri hisoblanadi. Xususan Anov, Namozgoh, Oltintepa Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan proto-sivilizatsion jarayonlar va mintaqaviy madaniy aloqalarning mahsuli hisoblanadi. Turkmanistondagi milliy davlatchilik konsepsiyasi faqat siyosiy legitimatsiya emas balki, sovet davridan meros qolgan insitutsional bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida shakllandi. Bunday ruh mustaqillikka erishgan barcha sovet republikalarida tarixni yozishda qo‘llanildi va tarix fanida subyektivlik uni mafkura ruhiga mos tarzda qayta yozish an’anasi shakllandi. Mintaqa tarixini bir yoqlama mafkura ruhida yaratish tarixshunoslikda bir qancha metodologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, tarixiy manbalarni tanlab talqin qilish, tadqiqot natijalarini oldindan belgilangan konseptual doiralarga bo‘ysundirilishi hamda tarixiy jarayonlarning ko‘p qirrali va ziddiatli tabiatini soddalashtirilgan nazariy konstruksiyalar orqali izohlash tendensiyasini kuchaytiradi.

O‘zbekiston tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixini yagona etnik makon tarixi sifatida emas balki turli davrlarda birlikta shakllangan sintez mahsuli sifatida ko‘riladi. Ayrim o‘zbek tarixchilari, A. Asqarov, M. Is’xoqov, Q. Rajabov, F. Maqsudovlar tarixiy manbalarni ideologik-siyosiy konteksdan holi xolda talqin qilib, asosiy e’tiborni arxeologik, antropologik, lingvistik va genetik tadqiqot mahsullariga qaratishmoqda. Ya’ni tarix fani milliy davlatchilik mafkurasidan holi konteksda tahlil bosqichiga o‘tmoqda bu esa subyektiv fikrlar kamayishi va Markaziy Osiyoning yagona tarixiy madaniy mintaqa doirasida ko‘rish va tarixiy tadqiqotlarni shunga monand tarzda olib borishga keng yo‘l ochmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki Turkmaniston tarixshunosligida milliy davlatchilik konsepsiyasi doirasida yaratilgan ayrim ilmiy ishlar neytrallikdan chekinish, ideologik diskursning ustuvorligi va nazariy metodologik pluralizmning yetishmasligi bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston tarixshunosligida esa, manbalararo sintez va transmilliy tarix ustuvorligi va metodologik pluralizm mavjudligini ko‘ramiz.

Mazkur tadqiqot davomida Turkmanistonda milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanishi va bu jarayonga sabab bo‘lgan vaziyatni tarixiy jarayonlar hamda zamonaviy tarixshunoslik

konsepsiyalari orqali tahlil qildindi. O‘rganish natijalarida shuni ko‘rishimiz mumkinki, mazkur konsepsiya Turkmaniston mustaqillikka erishgach siyosiy legitimatsiyani ta’minlsh bilan bir qatorda, milliy identifikatsiya va davlat qurilish jarayonlarini markazlashtirilgan model asosida yo‘naltirishga xizmat qilgan murakkab hodisa hisoblanadi. Markaziy Osiyoni qamrab olgan barcha tarixiy jarayonlarni yagona millat yoki etnosga bog‘lab organish haqiqiy ilmiy tarixshunoslikka yod holat hisoblanadi. Mintaqada qadimdan yaratilgan sivilizatsiyalar, madaniy-tarixiy yutuqlar, texnologiyalar umum mintaqa mulkidir va Markaziy Osiyo tarixshunosligi yagona tarix nuqtai nazaridan o‘rganilgandagina haqiqiy ilmiylik kasb etadi.

Aytish mumkinki, Turkmanistonda milliy davlatchilik konsepsiyasi mifologik asoslarga qurildi. Davlat va uning ifodasi sifatida mamlakat rahbari turkmanlar uchun fenomen, universal hodisa, xalqning yagona millatga aylanishi, uning hamjihatligi, tashqi tahdidlardan himoyalanishi, baxtli va erkin hayot kechirishi uchun otalik g‘amxo‘rligini ko‘rsatadigan panoh sifatida ko‘ra boshladilar. Mustaqil Turkmanistonning birinchi Prezidenti Saparmurod Niyozov (1990-2006) “Ruhnoma” asarida turkman xalqi, davlatchiligi tarixini afsona va rivoyatlar asosida bayon qilgan. Unda shunday yoziladi: “Turkman xalqi ulkan tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi, Qodir Tangri yuborgan buyuk sinovlarni yengib o‘tdi. Biz tariximiz besh ming yil avval yashagan millat asoschisi O‘g‘uzxon Turkman davriga borib taqaladi. Ushbu tarixiy davrda turkmanlar Hindistondan O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan qadimiy sivilizatsiyalarning ajralmas qismiga aylangan buyuk moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratib, o‘zlarining asl maqsadlarini dunyoga qayta-qayta namoyish etdilar. Faqat o‘z erlarida ular 70 dan ortiq davlat qurdilar! Ular orasida Anau, Oltin-Depe, Marg‘iyona, Parfiya, Saljuqiy turkmanlari imperiyasi, Koneurganch turkman davlati jahonga mashhur. Turkman g‘ildiragi nafaqat armiya va davlat hayotini o‘zgartirdi, balki tarixning o‘zini ham o‘zgartirdi, jahon ilm-fanining rivojlanishini tezlashtirdi. Turkmanlar birinchi bo‘lib rudani eritishgan”. Turkmanlarning kelib chiqishi, davlatchiligi tarixining bunday bayon qilinishi va yoritilishi Turkmanistoning barcha ta’lim muassasalarida, o‘quvchilar va talabalar bilim oladigan kitoblar, darsliklarga asos sifatida kirirtilgan.

Saparmurod Niyozov xalq orasida “Turkmanboshi”, yani xalq otasi sifatida e’tirof etilgan va barcha turkmanlarning, jumladan, xorijda yashayotgan vatandoshlarini ham “otasi” deb e’lon qilinadi. Shu tariqa, turkman davlati, uning Prezidenti muqaddaslashtiriladi, milliy qadriyatga aylantiriladi, xalq unga to‘la ishonadi, qo‘llab-quvvatlaydi va jonlari evaziga bo‘lsa ham himoya qilishga tayyor bo‘ladi. Shu asosda, Turkmanistonda kommunistik mafkura, islom dini g‘olari va asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, qadriyatlar aralashtirilib yuborilgan o‘ziga xos yangi davlatchilik konsepsiyasi, mafkurasi majmuasini shakllantirishga muvaffaq bo‘linadi. Davlat mafkurasi turkmanboshi g‘oyalarini rivojlantirish uchun umumiy qoidaga amal qiladi, birinchi navbatda tarixga murojaat qilinadi. “Ruhnoma”da yozilishicha tarix - xalqning eng qadimiy izlarini, uning “Oltin davri”ni va davlat an’analarining kelib chiqishni topishga yordam beradi. Shu tariqa, tarix talqini zamonaviylik talqiniga aylanib boradi va Turkmaniston o‘tmishda bo‘lganidek, Turkmanboshi “turkmanlarning oltin davri”ga olib borayotgani haqidagi da’volarni asoslashga xizmat qiladi. Baxtli kelajakka erishish uchun uchta ustunga tayanish talab qlinadi. Bular:

1. Mustaqillik;
2. Betaraflik;
3. Bashoratli kitob (“Ruhnoma” asari).

Turkmanboshi “Ruhnoma” asarida milliy davlatchilik konsepsiyasini batafsil bayon qilgan. Unda ta’kidlanishicha turkman xalqining har qanday muvaffaqiyatli taraqqiyotining garovi Saparmurot Turkmanboshidir. Uning fikrlari va g‘oyalari, qarashlari qonunlarga, siyosiy dasturlarga, hatto, arxeologik topilmalarning talqiniga va arxitekturasiga singib ketgan. “Ruhnoma” asarida bitilishicha, arxeologik qazishmalar paytida topilgan moddiy madaniyat izlari hozirgi Turkmaniston hududida miloddan avvalgi 4000 yillikda, bundan 6000 yil avval turkmanlar borligidan dalolat beradi. Turkmanlarning eng qadimiy ajdodi O‘g‘uzxon bo‘lib, u go‘yoki 5000 yil avval birinchi turkman davlatiga asos solgan. Ushbu afsonaviy davlatning markazi, aynan Turkmanistonda joylashgan. O‘g‘uzlar imperiyasining o‘zi Balxdan Volga bo‘yigacha cho‘zilgan. Mazkur tarixiy talqin Turkmaniston tarixi bilan shug‘ullanuvchilar va mafkurachilar uchun mutloq haqiqat sifatida qabul qilingan. Boshqacha talqin qabul qilinmagan. Ushbu qarashni ilmiy jihatdan tasdiqlash maqsadida Turkmaniston hududlarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qilinadi. Xususan, qadimgi o‘g‘uzlar yurti sifatida e’tirof etilgan Marv

vohasida o‘rganishlar olib boriladi. “Ruhnoma”da mazkur hududda joylashgan davlat “Marg‘ushlar mamlakati” deb nomlangan, aslida bu davlat qadimiy Marg‘iyana davlati bo‘lib, kamida 3000 yillik tarixga ega. “Ruhnoma” asarida ushbu davlat birinchi O‘g‘uzlar imperiyasi deb ataladi. Kitobda qayd qilinishicha, aynan shu davrda turkman adabiyotining ilk yodgorliklaridan biri – “O‘g‘uznoma” ham yaratilgan bo‘lib, “Ruhnoma” asarining ma’naviy asosi sifatida qabul qilinadi. Asarda ta’kidlanishicha “o‘g‘o‘z”, “turkman” nomlari bitta ma’noda qabul qilinadi, zamonaviy turkman davlatchiligining asoslari va turkman jamiyatining tuzilishining asosi O‘g‘uzxon davlati hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan O‘g‘uzxon – turkmanlar xalq qahramoni va yangi “oltin davr”ga asos solgan Saparmurod Niyozov nomlari bir xil darajada e’zozlanadi. Turkman tarixchilarining tarixiy tadqiqotlari va asarlarida mazkur yondashuv mutlaqo haqiqat sifatida, hech qanday bahs va munozarasiz qabul qilunadi.

Turkmaniston davlatchilik konsepsiyasiga ko‘ra turkmanlar, boshqa xalqlardan “ustun” bo‘lgan, masalan, ulkan hududlarga egalik qilgan yoki o‘z qo‘shnilariga madaniy ta’sir ko‘rsatgan. Turkmanlar Osiyo, Afrika va Yevropa hududlarida hukmronlik qilgan 70 dan ortiq davlat va sulolalarga asos solishgan bo‘lib, ular “Ruhnoma”da batafsil bayon etilgan. Turkmanlar davlatchiligida eng yirik va eng ulug‘vor davlatlar hozirgi Turkmaniston hududida vujudga kelgan.

Turkman tarixchisi va mafkurachisi Ovez Gundogdiyevning fikricha, turkmanlarning ajdodlari Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari – skiflar va massagetlar bo‘lib, ular “prototurkmanlar” deb atalgan. Hozirgi turkman tarixnavisligida markazi qadimgi Niso shahri bo‘lgan, bir qismi Turkmanistonnnig janubiy - g‘arbida joylashgan Parfiya imperiyasiga ham turkman davlatchiligini “shonli sahifalaridan” biri sifatida qaraladi.

Davlatchilik konsepsiyasida turkmanlar “oltin asrlar” deb ataladigan tarixiy bosqichlarni Go‘rkut ota, Go‘ro‘gli, kabi afsonaviy shaxslar bilan bog‘lanadi. Go‘yoki, O‘g‘uzxondan keyin Go‘rkut otaning besh yuz yillik davri keladi. Go‘rkut Muhammad payg‘ambar davrida yashagan bo‘lib, turkmanlar orasida islom dinini yoyishda xizmat qilgan, o‘zi esa Makka va Madinaga borgan birinchi ziyoratchilardan bo‘lgan. Ushbu ma’lumotlar “Go‘rkut ota” turkman dostonidan olingan bo‘lib, shu faktning o‘ziyoq Turkmaniston tarixida dostonlar, afsonalar tarixiy manba sifatida qo‘llanilib, o‘tmishni soxtalashtirish maqsadida foydalanilganligiga misol bo‘la oladi.

Turkman tarixining “eng yorqin” sahifalari qatoriga “Go‘rqut ota” davlatidan keyin tashkil tohgan Saljuqiylar imperiyasi, uning “so‘nggi sultoni Sanjar” hukmronligi davri kiradi. Sulton Sanjarning ajdodlari – hukmdorlar Tog‘rulbek, Alp Arslon, Malikshohlar “Ruhnoma”da “buyuk ajdodlar” yoki “turkman diyorining buyuk farzandlari” sifatida ko‘p bora tilga olinadi. Ushbu “namunali va halol” hukmdorlar Turkmanistonning mustaqillik davridagi etakchilariga etalon, namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

Rasmiy turkman tarixshunosligi turkmanlarning madaniyat va ilm-fanning barcha sohalarida ajoyib ixtirochi bo‘lganini ta’kidlaydi. Masalan, Nisoda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog‘ida “yozuv apparatlari”ga o‘xshash ashyolar topilgan bo‘lib, turkman mafkurachilari tomonidan 4000 yil avval turkman yozuvi mavjudligini isbotlash uchun to‘liq foydalanilgan. Turkmanlar boshqa hududlarga madaniy ta’sir ko‘rsatishgan. Masalan, “Kiyev” nomi turkman qabilasidan Kiya, “Tver” esa Tuver qabilasidan kelib chiqqan. Turkman davlatchiligining uzluksiz an’analari turkmanlar tomonidan mukammal qonunlar yaratishda o‘z aksini topgan bo‘lib, bu qonunlar keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham ta’sir ko‘rsatgan. Turkman tarixchisi va mafkurachilardan biri Maratgaldi Atayevning fikricha, “turkman-usmonli” davlatining qudratli hukmdori Sulton Sulaymon davrida ishlab chiqilgan qonunlar to‘plami 1787 yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasining manbai bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda, turkmanlarning “milliy” davlatchiligini barbod qilgan Chingizxon istilolaridan so‘ng ularning ilmiy yutuqlari butun dunyoga tarqalgan va ularning aksariyati G‘arbga, Yevropagacha yetib kelgan. Mana shunday ertaknoma qarashlar, talqinlar zamonaviy turkman tarixshunosligiga asos sifatida qabul qilingan. Albatta, bunday yondashuv va talqinlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixini soxtalashtirish va buzib ko‘rsatishdan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, Turkmanistonda mifologiyaga asoslangan tarixni 1990 yillarda Marat Durdiyev boshlab bergan bo‘lib u irqiy tipni turkman jamoasining asosiy xususiyati deb atadi va oriylarni turkmanlarning tug‘ridan-to‘g‘ri ajdodi bo‘lgan degan da’voni ilgari surdi. Uning fikricha: "....u yoki bu xalqning tili va madaniyati o‘zgarishi mumkin, ammo irqiy turi o‘zgarmasa, aynan shu xalq bo‘lib qoladi". Ovaz Gundo‘g‘diyev ham Marat Durdiyev singari midiya, skif, sak, massaget va parfiylarni turkmanlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ajdodlari qatoriga kiritgan. Turkmanistonning birinchi rahbari Saparmurat Niyozov mahalliy tarixchilarga tayanmasdan, ulug‘vor milliy afsona yaratishni o‘z

zimmasiga olishga qaror qildi. Bu ishning natijasi ularoq “Ruhnoma” kitobi paydo bo‘ldi. Bu kitobda da’vo qilinishicha turkman davlatchiligining asoschisi hisoblangan O‘g‘uzxonning yashagan davri miloddan avvalgi 3-4 ming yillik boshlariga to‘g‘ri keladi, turkmanlar go‘yo millat siftida kamida 5 ming oldin yashab, shu davrlarda davlatga asos solishgan. Shunday qilib, turkmanlar haqiqiy “avtoxton”larga aylandilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Turkmaniston Respublikasi milliy davlatchilik konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. ’Ruhnoma” asari haqida gapirib bering.
3. Zamonaviy turkman tarixshunosligida qanday yondashuv va talqinlar ustunlik qiladi?
4. Turkmaniston milliy davlatchilik konsepsiyasida “oriylar” masalasi.
5. Turkmanlarning kelib chiqishi qanday yoritilgan?

6-mavzu. Tojikistonda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganilishi: qarash va konsepsiyalar

Darsning o‘quv maqsadi: Markaziy Osyio xalqlari tarixini Tojikstonda o‘rganilishini, tojik xalqlarining kelib chiqish masalalarining zamonaviy tarixshunoslikda yoritilishi va bu borada mavjud mifologik qarashlarni talabalarga tushuntirish, tojik etnonimi xususidagi fikrlar, Somoniylar va tojiklar masalasi, hududiy da’volar, oriylik nazariyasi: mohiyati va qarashlar bilan bog‘liq tushunchalarni yoritish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Tojikiston respublikasi, tojik xalqi, “Tarixiy Tojikiston” konsepsiyasi, tojik etnonimi, somoniylar, “oriylik” nazariyasi.*

Darsning rejasi:

1. Tojikiston olimlarining mintaqa tarixiga oid qarashlari.
2. Tojikiston milliy davlatchilik konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyoning janubida joylashgan, 1991 yilda mustaqil bo‘lgan davlat. Mazkur davlatda o‘nlab xalqlar va elatlar istiqomat qiladi. Tojiklar – ushbu mamlakatning mutloq ko‘pchiligini tashkil etib, mintaqaning qadimiy xalqlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik davrida qo‘shni davlatlarda bo‘lgani kabi, yosh davlat o‘z taraqqiyot yo‘lining mafkuraviy asoslarini shakllantirishda tarix fani asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo, muammo shundaki, mustaqillik yillarida har bir davlat mafkurachilari mintaqada yashovchi barcha xalqlarning umumiy o‘tmishini o‘zlarini tor siyosiy manfatlariga mos ravishda buzib talqin qilish umumiy normaga aylandi. Tojik tadqiqotchilari qo‘shni davlatlardagi ayrim turkiy mualliflarning “oriylar” ga avlodlik masalasidagi qarashlar bilan bahslashib, tojiklar “oriy”larning bevosita avlodi ekanligiga da’vo qiladilar. 1924/1925 yilarda Turkistonda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi natijalaridan norozilik kayfiyati tojik olimlarining tarixni yoritish pozitsiyasiga katta ta’sir qilgan. Ularning da’vosicha, 1920-yillarda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishi davrida aholi gavjum yashaydigan unumdor yerlar O‘zbekistonga o‘tgan. Shu bois, bugun tojik ziyolilari o‘zbeklarni tarixiy tojik yerlariga, tojik madaniy merosiga egalik qilishmoqda degan g‘ayriilmiy nazariyani ilgari surishmoqda. “Oriylar’larga mansubligini ta’kidlab, Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy yutuqlariga asosiy merosho‘r sifatida ko‘rishadi. 2000-yillarning boshlarida bu tendensiya tojik hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib “oriylik” ni tojiklarning milliy g‘oyasiga aylantirishga harakat boshlandi. 2006-yilda Tojikiston

“Oriy sivilizatsiyasi yili” ni tantanali ravishda nishonladi, prezident Imomali Rahmonning so‘zlariga ko‘ra, ushbu g‘oya tojik xalqini milliy-mafkuraviy jihatdan birlashtirishi kerak edi.

Tojikistonlik tarixchi Numan Negmatov 1997 yilda “Tarixiy Tojikiston” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Unga ko‘ra, o‘tmishda butun Markaziy Osiyo hududlarini qamrab olgan mazkur davlat miloddan avvalgi III – II ming yilliklardan boshlab mavjud bo‘lgan va o‘sha davrlarda bobilliklar, xettlar, finikiyaliklar va boshqa qadimiy xalqlar bilan aloqa qilgan. Olimning fikricha, turkiy xalqlar Markaziy Osiyoda faqat madaniy qadriyatlarni vayron qilish va boshqa xalqlarni yo‘q qilish bilan shug‘ullanganlar. Uning kitobida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari Markaziy Osiyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan turkiy tilda ijod qilgan mutafakkirlar va shoirlar haqida umuman bir og‘iz ham so‘z aytilmagan. Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan somoniylar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar kabi sulolalar davrida tojik xalqining madaniyati gurkirab rivojlanganligi haqida ham hech gap aytilmagan. Numan Negmatovning fikriga ko‘ra, tojiklar qadimda nafaqat Markaziy Osiyo, balki, butun Osiyo va Sibir hududlarida yashaganlar. Sibirdagi Ob, Angara daryolari, Baykal ko‘lining nomlari tojik tilidan olingan. Bunday talqinlar hech qanday ilmiy asosga ega emas. Olim garchi arxeolog bo‘lsada, tilshunoslik sohasida fikr yuritishi masalani jiddiy o‘rganmaganligini bildiradi. Chunki uning asl maqsadi hammaga ma’lum va ilmiy tadqiqot natijalari va boshqalarning fikrlari esa ahamiyatsiz. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon ham o‘zining “Tojiklar tarix nigohida: oriylardan somoniylargacha” (2006) nomli kitobida ham bir qancha g‘ayriilmiy qarashlar ilgari surilgan. Xususan:

1. Tojiklar eng qadimgi davlatchilikka ega;
2. Tojik xalqi O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng qadimgi xalqdir;
3. Tojik xalqi qadimdan butun Markaziy Osiyo hududida yashab kelgan;
4. Tojik xalqi O‘rta Osiyo hududida yaratilgan barcha madaniy qadriyatlar: dehqonchilik va shaharchilik madaniyati, hunarmadchilik mahsulotlari, savdo aloqalari, san’at asarlari, ilm-fan va boshqa barha ne’matlarning yaratuvchisi va egasidir. Turklar esa bu madaniyatni tojiklardan o‘rganganlar va guyo ularning barcha madaniy qadriyatlarini o‘zlashtirib olganlar. Ammo, tarixdan ma’lumki, Markaziy Osiyoda qadimdan dravid va urol-oltoy tillarida, shu jumladan, qadimgi turk tilda so‘zlashuvchi xalqlar yashagan. Bunga eramizdan avvalgi 5-4 ming

yilliklarga tegishli Anov, Kalta Minor, Hisor madaniyatlari dalildir. Ma'lumki, milodddan avvalgi II mingyilliklarda hududimizga oriy qabilalari bostirib kelgandan keyin sug'dlar, xorazmliklar, boxtariylar, parfyanlar, saklar va boshqa sharqiy eroniy tillarda so'zlashuvchi xalqlar tashkil topgan. Tojik tili esa g'arbiy eroniy tillar oilasiga mansub bo'lib, Markaziy Osiyoga chetdan kirib kelgan til hisoblanadi va arablar istilosi davrida tarqala boshlagan. Tojiklarni "oriylar", ya'ni oliy irqning avlodlari deb hisoblash va bundan foydalanish millatlararo munosabatlarda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. XX asrning 20-30 yillarida nemislar irqiy va madaniy jihatdan o'zlarini slavyanlar, fransuzlar, inglizlar va boshqa Yevropa xalqlaridan ustun qo'ygan bo'lsalar, hozirgi kunda tojiklar xuddi shunday o'zlarini Markaziy Osiyoning turk tilida so'zlashuvchi xalqlaridan ustun qo'ymoqdalar. Millatchilik g'oyalari, ayniqsa, tojik akademigi Rahim Masovning kitoblarida ham oilgari surmoqda. Olim tomonidan 1991 yilda yozilgan " Qo'pol bo'linish" («Topornoye razdeleniye») asari bir necha tillarga tarjima qilingan. Uning yozishicha, o'zbeklar, O'rta Osiyoga ko'chib kelgan kelgindi xalq bo'lib, mo'g'ul va turklardan, qipchoqlardan tarqalganlar. Shuni aytish joizki, R. Masov ilgari etnogenez va etnik tarix yoki qadimgi davr tarixi bilan hech qachon shug'ullanmagan. Olim, sovetlar davri tarixi va siyosati sohasida ilmiy ishlar olib borgan. Endi esa, tadqiqotchi o'zini qadimgi davr tarixi bo'yicha eng yirik mutaxassislar qatorida ko'radi. Masovning asosiy qarashlari turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning tarixini buzib talqin qilishga qaratilganligi hech kimga sir emas.

Umuman, Tojikistonda ham mintaqa tarixini yozishda bunday qarash va konsepsiyalar juda keng tarqaldi. Bu ishlarning boshidaa akademik Rahim Masov turgan desak xato qilmaymiz. 1990 va 2000 yillarda ushbu tadqiiqotchi tomonidan yozilgan asarlarning asosi g'oyasi, tojik xalqi Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisi bo'lib, xalq sifatida bundan taxminan 7/8 ming yil oldin paydo bo'lgan. Mintaqadagi eng qadimgi sivilizatsiyalar: Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, Marg'iyona, Parfiya va boshqalarga bevosita tojiklar asos solgan. Tojik olimlarining "Tarixiy Tojikiston " konsepsiyasiga ko'ra Xitoydan tortib Erongacha bo'lgan hududlarda tojiklar yashaganlar. Davlatchilik, yozuv, shaharsozlik, din, hunarmandchilik va savdo-sotiq , qo'yingki barcha madaniy yutuqlar tojik xalqining mehnati, aql - zakovati va yaratuvchanligining natijasidir. Turkiylar esa, shu jumladan o'zbeklar ham "yovvoyi" , "buzg'unchi" , " urushqoq" xalqlar bo'lib, dasht -

cho‘llarda istiqomat qilishgan, madaniy hududlarga bostirib kirib, tojiklar yaratgan, tayyor ilm - fan, madaniyat yutuqlariga egalik qilishgan. Tojiklar o‘zlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri oriylarning avlodlari deb bilishadi. ”Oriylik” nazariyasi Tojikisonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, hatto 2006 yil “Oriylar yili “ deb katta masshtabda nishonlandi.

Tojik olimlarining tarixiy qarashlarida mintaqa yashagan buyuk shaxslarni hech qanday asossiz faqat tojik millatiga mansub degan da’volari ham g‘ayriilmiy hisoblanadi. Shuningdek, tariximizning mashur sulolari, davlatlariga tojiklar asos solgan deb, o‘tmishni buzib ifodalash va talqin qilish borasida faol harakat qilmoqdalar. Ammo, bunday qarash va talqinlar haqiqiy ilmdan yiroq bo‘lib, qardosh va yaqin xalqlarning o‘zaro hurmati, integratsiyasiga, mintaqaning istiqboliga halaqit beradi. O‘zbeklar va tojiklar ikki tilda co‘zlashuvshi bitta xalqdir. Aynan shu qarashlar tarix tadqiqotlarga asos bo‘lmog‘i kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Tojikiston davlati milliy konsepsiyasi haqida nimalarni o‘rgandingiz?
2. Tojik xalqining kelib chiqishiga oid qarashlar haqida gapirib bering.
3. “Oriylik” nazariyasi Tojikiston tarixshunosligida qanday o‘ringa ega?

7-mavzu. Qirg‘izistonda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganilishi: yondashuv va talqinlar

Darsning o‘quv maqsadi: Qirg‘iz xalqining kelib chiqish masalalarining zamonaviy tarixshunoslikda yoritilishi. “Manas” eposi va mifologik qarashlar. “Qirg‘iz” etnonimi xususidagi fikrlar. Qirg‘iz davlatchiligi va etnogenezi haqidagi qarashlar haqidagi nazariyasi va konsepsiyalarni talabalarga tashuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Qirg‘iziston*, **“***Manas” eposi, qirg‘iz etnonimi, qirg‘iz davlatchili,Turq hoqonligi, Uyg‘ur hoqonligi, mustaqillik.*

Darsning rejasi:

1. Qirg‘iziston davlatchilik tarixidagi bugungi kun qarashlari.
2. Qirg‘iziston milliy davlatchilik konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

Qirg‘iziston Markaziy Osiyoning sharqiy qismida joylashgan davlat. Bu davlatning asosiy qismini qirg‘izlar tashkil qiladi. Qirg‘izlar turkiy qabilalaridan kelib chiqqan mintaqamizning qadimiy xalqlaridan hisoblanadi. Qirg‘izlar Markaziy Osiyoning iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, turkiy davlatchiligi tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Qirg‘izlarning kelib chiqishi masalasi, ularning turkiy xalqlar tarixida to‘tgan o‘rni masalasida Markaziy Osiyoning hozirgi zamon tarixshunoslik ilmida turlicha qarash va talqinlar mavjud. Bu masalada Qirg‘izistonning sobiq prezidenti, akademik Askar Akaev ham o‘z qarashini bayon qilgan bo‘lib, uning fikricha ilk qirg‘iz davlati hozirgi kundan 2300 yil ilgari tashkil topgan. Bunday xulosaga xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga tayangan holda keladi. Bu erda ikkita jihatga e’tibor qaratish kerak. 1-dan, Askar Akaevning mutaxassisligi fizik, tarixshunoslikdan umuman yiroq, ayniqsa xitoy manbalarini bilmasligi tayin. 2-dan, xitoy manbalaridagi ma’lumotlar chuqur o‘rganish va tadqiqotnianiq talab qiladi, boshqa manbalardagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanmasa, ularning quruq o‘ziga asoslanib tarixni yozib bo‘lmaydi.

“Qirg‘iz” etnonimi turkiy xalqlar orasidagi eng qadimiy nom sifatida qirg‘iz darsliklarida ochiq-oydin yozilgan. Ularda turkman, o‘zbek, qozoq, uyg‘ur, tatar, boshqird kabi turkiy etnonimlar ancha keyin paydo bo‘lgani izohlanadi. Unga ko‘ra, turkman so‘zi tahminan VIII asrda paydo bo‘lgan, o‘zbeklar Qaroxoniylar va Temuriylar davrida (XIII–XIV asrlar) shakllangan, qozoq etnosi esa qozoq tarixchilari tomonidan XV asrda paydo bo‘lgani aytilgan. “Folk-xistori” yo‘nalishi tarafdorlari

qirg‘izlarni Markaziy Osiyoning qadimgi aholisi sifatida tan olishgan va hozirgi Qirg‘iziston hududida ham yashagan saklar bilan bog‘lashga urinishlar bo‘lgan. Vaholanki, saklar yashagan davrlarda bu hududlarda qirg‘izlar yashaganligi hafida birpor bir ishonarli ma’lumot yo‘q.

Xolis ilmiy qarashlarda qayd qilinishicha, qirg‘izlar Turk xoqonligi davrida (VI - VIII asrlar) chekka bo‘linmalaridan birida xizmat qilganlar. Qirg‘izlar IX asr o‘rtalarida xitoyliklar yordamida Uyg‘ur xoqonligining yerlarini bosib olib, o‘z davlatini tuzishga muaffaq bo‘lganlar. Lekin qirg‘zlar “davlati” uzoq yashamadi. Chunki, ko‘chmanchilar taraqqiy etgan davlatchilik tizimini boshqara olmasligi tabiiy hol edi. Shuning uchun ko‘p o‘tmay qirg‘izlar hokimiyatni qo‘ldan boy berdilar va Qarluq xoqonligiga bo‘ysunishga majbur bo‘ldilar. Shundan keyin qirg‘izlar hech qanday davlatchilikka ega bo‘lmaganlar. Bu ma’lumotlardan kelib chiqib, qirg‘izlarning davlatchiligi 2300 yillik tarixga ega degan da’volarning ilmiy jihatdan asossizligi o‘z-o‘zidan tabiiydir. To‘g‘ri, xitoy manbalarida miloddan avvalgi III-II asrlarda Xitoy yerlaridan tashqaridagi dashtlarda ko‘chib yurgan “yovvoyi” qabilalar orasida qirg‘izlar ham tilga olingan. Lekin , ularning davlati haqida hech nima deyilmagan. Tarixiy manbalarda qayd etilgan IX asrdagi qisqa vaqt ichida mavjud bo‘lgan qirg‘iz davlatidan boshqa tarixda ular bilan bog‘liq biror bir davlat bo‘lmagan. Qirg‘izlarning davlatchiligi faqat sho‘rolar davrida tashkil topgan.

Qirg‘izistonda nashr etilayotgan kitob va maqolalarda “qirg‘iz” etnonimi ham eng qadimgi xalq nomlari qatorida tilga olingan, qirg‘izlar esa dunyoning eng qadimgi xalqlaridan biri va butun dunyoga mashhur bo‘lgan buyuk imperiya asoschilari deb atalgan. Qirg‘iz olimlarining fikricha “qirg‘iz” etnonimi miloddan avvalgi III asrda xitoy manbalarida qayd etilgan. Yuqorida aytganimizdek, xitoy manbalari o‘z holicha ishonchli manba hisoblanmaydi. Xitoyliklar miloddan avvalgi II asrga qadar O‘rta Osiyo haqida juda yuzaki ma’lumotga ega bo‘lganlar. Faqat, miloddan avvalgi II asrda Chjan Czianning “G‘arbiy o‘lka”ga sayohatidan so‘ng batafsil ma’lumotga ega bo‘lganlar. “Eng qadimgi etnonim” deganda biz shuni ham bilishimiz kerakki, qadimgi davrlarda etnik, ya’ni qabilaviy nomlar asosan ko‘chmanchi qabilalarga xos bo‘lgan. Ko‘chmanchi qabilalarning qadimgi manbalarda qayd etilganligi ham hech qanday ahamiyatga ega emas. Avstraliyadagi ayrim aborigen qabilalar uch ming yil oldin ham o‘sha yerlarda yashaganligi aniqlangan. Shu vaqt ichida ularning madaniyati deyarli o‘zgarmagan va uch ming yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shundayligicha saqlangan. Ularda

haligacha ibtidoiy jamoa tuzumi amal qiladi. Bu qabilalarning madaniy merosi etnografik jihatdan bebaho ahamiyatga ega, chunki mazkur qabilalarning hayoti insoniyat taraqqiyotidagi dastlabki bosqichlardan biri haqida jonli ma'lumot beradilar. Bunday qabilalar dunyoning boshqa hududlarida ham mavjud. Yevrosiyo mintaqasida istiqomat qilayotgan Sibirning ayrim xalqlarini ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Ko'chmanchi xalqlardan bo'lgan qirg'izlar X asrga qadar janubiy Sibir va Oltoy tog'larining yon bag'rlarida yashaganlar. Hozirgi vaqtda Sibirda yashovchi hakaslar bilan qirg'izlar ilgari bir xalq bo'lgan. Ularning yashash tarzi va madaniyati 2300 yil oldin qanday bo'lgan bo'lsa, XX asr boshlarida ham deyarli o'zgarishsiz shundayligicha saqlangan.

Markaziy Osiyo mintaqasida ko'chmanchi qabilalardan farqli ravishda o'troq aholi etnik nomlar bilan atalmagan. Ular ko'proq davlat yoki geografik hudud nomi bilan atalgan. Masalan, sug'dliklar, farg'onalik, xorazmlik, baqtriyalik, parfiyaliklar va boshqa xalqlarning joy nomlaridan kelib chiqqan. Bu joy nomlari milloddan avvalgi VII - V asrlarga mansub, mintaqaning eng qadimgi yozma manbasi "Avesto"da, yunon manbalari va eron toshbitiklaridan ma'lum. O'troq aholining madaniyati esa uzluksiz rivojlanishda bolgan: avval dehqonchilik, keyin hunarmandchilik, savdo munosabatlari o'sib borgan, shaharsozlik va shaharchilik madaniyati vujudga kelgan, pul va yozuv muomalaga kiritilgan va nihoyat davlatchilik tizimi va an'analari taraqqiy etgan.

Tarixda dastlab ko'chmanchi bo'lib, keyin o'troqlashgan qabilalar ham bo'lgan: kushonlar, xioniylar, eftaliylar, turklar, o'g'uzlar, qarluqlar va boshqa qabila va urug'lar shunday jarayonlarni boshidan kechirgan. Lekin qirg'izlar ularning qatoriga kirmaydi. Qirg'izlarning an'anaviy hayot tarzi ko'chmanchilik, xo'jalik faoliyati esa qadimdan yaqin vaqtlargacha har doim chorvachilik va yilqichilik bo'lgan.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin o'tgan yillar mobaynida Qirg'iziston olimlari orasida qirg'iz xalqining kelib chiqishiga haqida turli qarash va talqinlar ko'paydi. Masalan, Olmos Karatayevning fikricha, turkiy xalqlari tarixida ma'lum bo'lgan deyarli barcha qabilalar va urug'lar qirg'iz etnonimlari qatoriga kiritilgan. Ayrim qirg'iz olimlariga ko'ra, Qo'qon xonligi aslida qirg'izlarning davlati bo'lgan, Farg'ona vodiysi ham qirg'izlarga qarashli bo'lgan, hozirgi o'zbeklarning tomirlarida ham qirg'izlarning qoni oqadi kabi da'volari ham ilmiy jihatdan asoslanmagan. Chunki, yuqorida aytilgan turkiy qabilalar etnik jihatdan Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan hozirgi turkiy tilli xalqlarning etnogenezisida va qisman eron tilli xalqlarning kelib

chiqishida ham qatnashganligi sir emas. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo xalqlari etnik jihatdan bir - biriga juda yaqin va qardoshlik rishtalari bilan bog‘langan va ular o‘rtasida hech qanday nizo va qarama-qarshilik bo‘lmasligi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Qirg‘iz xalqining kelib chiqish masalalarining zamonaviy tarixshunoslikda yoritilishi haqida qanday qarash va yondashuvlarni bilasiz?

2.“Qirg‘iz” etnonimi haqida gapirib bering.

3.Qirg‘iz davlatchiligi va etnogenezi haqidagi qarashlar haqidagi nazariya va konsepsiyalar haqida nimalarni bilasiz?

8-mavzu. O‘zbekiston olimlarning qarashlari: a’nanaviylik va ilmiylik

Darsning o‘quv maqsadi: O‘zbekiston tarixshunosligida shakllangan ilmiy qarashlar tizimi an’anaviy tarixiy tafakkur va zamonaviy ilmiy metodologiya uyg‘unligi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek tarixshunosligining shakllanish bosqichlari, sovet davri ilmiy yondashuvlari hamda mustaqillikdan keyingi tarixiy tafakkur rivoji tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganiladi. O‘zbekistonda tarix sohasida ayrim olimlar tomonidan ilgari surilayotgan g‘ayriilmiy va yetarli ilmiy asosga ega bo‘lmagan qarashlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *O‘zbekistonda tarix ilmi, o‘zbek olimlarning qarashlari, sovet davrida o‘zbek tarixshunosligi, mustaqillik davri tarixshunosligi, sartlar, yarim ko‘chmanchi o‘zbeklar, o‘troq madaniyat, dehqonchilik, shaharchilik madaniyatii.*

Darsning rejasi:

1. O‘zbekistonda tarix ilmi: shakllanishi va xususiyatlari
2. O‘zbek olimlarning qarashlari: sovet davri
3. Mustaqillik davri tarixshunosligi

O‘zbekistonda tarixiy bilimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qadimiy ildizlarga ega. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy yozma manbasi hisoblangan zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da qagimgi davrlarda mintaqada yashagan xalqlar, o‘lkalar va mamlakatlar haqida ma’lumotlar berilgan. Ammo, ushbu manbada keltirilgan ma’lumotlar diniy-mifologik xarakterda bo‘lib, tarixiy fakt va haqiqat sifatida foydalanish tadqiqotchilar orasida bahs, munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Undagi ma’lumotlarni talqini va bayon qilish yondashuvlarida G‘arb olimlari, Rossiya, jumladan, O‘zbekistonlik olimlar bir-biridan tubdan farq qiluvchi ilmiy natijalarga suyanishadi. O‘zbek olimlari orasida “Avesto”ning vatani hozirgi Ozbekiston hududlari, qadimgi Baqtriya yoki Xorazmga nisbat beradiganlar ko‘plab topiladi. Hatto, Xorazmda 2001 yilda YUNESKO shafeligida “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

Ammo, G‘arbda “Avesto” va zardushtiylikning kelib chiqqan mintaqasi Eron degan nazariyaga asoslanishadi. Markaziy Osiyo olimlari orasida ham ushbu masalada yagona qarash yo‘q. Nima bo‘lgandayam, “Avesto” – Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma manbasi hisoblanadi, undagi ma’lumotlar o‘lkamizning qadimiy xalqlari hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar beradi va uni yurtimizda tarixiy ilmlarning vujudga kelishining ilk bosqichi sifatida qarash mumkin.

O‘zbekiston hududlarida ilk tarixiy asarlar IX-XIII asrlarda yozilgan bo‘lib, ularda mintaqa tarixi haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Bu davrda asarlar arab, fors va turkiy tillarda bitilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bayon etiladi. Keyingi bosqich, XIII, XIV va XV asrlarga tegishli bo‘lib, mug‘ullar istilosi arafasida Markaziy Osiyo hududlarida mavjud bo‘lgan davlatlar, sulolalar haqida, undan tashqari mug‘ullar istilosi va temuriylar davriga oid ma’lumotlar manbalarda berilgan. XVI-XIX asrlardagi manbalarda esa Xiva va Qo‘on xonliklari, Buxoro amirligining hayotiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Markaziy Osiyo xalqlarining ming yildan oshiqroq hayoti aks etgan mazkur manbalarda tarixiy jarayonlar va voqeliklar asosan “diniy-mifologik yondashuv”, “sulolalar tarixi”, “saroy tarixchiligi” usullarida, an’anaviy yo‘sinda bitilgan bo‘lib, ko‘proq siyosiy elita, hukmdorlar manfaatlarini aks ettirgan. Ammo, bu manbalarda har bir davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid ma’lumotlarning mavjudligi, mazkur tarixiy asarlarning ilmiy qimmatini oshiradi.

Rossiya imperiyasi davrida mintaqa tarixi “sayohatnomalar”, “ma’lumotlar to‘plash” va qisman ilmiy tadqiqotlar talablari doirasida bajarilgan. Bu ikki davrda ham o‘zbek ziyolilari orasida tarximizni bitishda asrlarda davomida amal qilib kelingan an’anaviy tarix uslubi saqlanib qolingan.

Sovetlar davrida tarixga munosabat tubdan o‘zgardi. Bu davrda tarixshunoslik jamiyatning mafkuraviy tayanchi sifatida qaralgan. Tarix ilm-fani siyosiy tizimga xizmat qilganligi bois, tarixchilar ko‘pincha mavjud tuzum manfaatlariga mos ravishda tarixni talqin qilishga majbur bo‘lganlar. Ushbu holat tarixshunoslikda bir yoqlama yondashuvlar, faktlarning tahriri yoki yashirilishi, tarixiy shaxslarning rolini o‘zgartirish kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Mashhur rus tarixchisi E. V. Tarle ta’kidlaganidek, "Sovet tarixshunosligi birinchi navbatda “sinfiy” manfaatlar asosida tarixni anglashga harakat qiladi". Sovet tuzumi hukm surgan vaqtda tarixnavislik tadqiqotlari asosan, “buyirtma” asosida "markaz" nazoratida olib borilgan.

Akademik Ahmadali Asqarov sovet davrida mavjud yondashuvlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Sho‘rolar tuzumi hukmron bo‘lgan yillarda tarix kitoblari bir tomonlama, millatimiz hamda ruhimizga yot bo‘lgan marksizm-leninizm deb atalmish g‘oya ta'sirida yozildi. Yuz bergan voqea va hodisalar biryoqlama yoritildi, buyuk olimlarimiz, ma'rifatparvar bobokalonlarimizning peshonasiga «dinparast», «teskarichi», «bid'atchi» degan tamg‘alar bosildi; qadriyatlarimiz, boy va bemisl ma'naviyatimiz «erga urildi»; bebaho kitoblarimiz diniy yoki xonlar, podsholar saroyida

yozilgan kitoblar deb qoralandi, ulug‘ o‘tmishimiz haqida ozmi ko‘pmi fikr yuritmoqchi bo‘lganlar e'tiborda bo‘lmadi, ular bilan hech kim hisoblashmadi.”

“SSSR tarixi” kabi darslik va asarlarda ittifoqdosh respublikalar davlatchiligi ko‘pincha yuzaki bayon etilgan, ya'ni ular davlatchilikning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, davlat tuzilmalari tipologiyasi, davlat xizmatlari va institutlari haqidagi ma'lumotlar keltirilmasdan, u yoki bu davlatning mavjuddigini tasdiqlash shaklidagina yoritilgan, xolos. Masalan, buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur shaxsi va faoliyati ataylab salbiy va biryoqlama yoritilgan. U “qonho‘r”, “bosqinchi” hukmdor sifatida tasvirlangan. Bu yondashuvlar mafkuraviy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy haqiqatdan ko‘ra sinfiy va mustamlakachilik mafkurasi ustuvor bo‘lgan. Sovet tarixshunosligi marksistik metodologiya va formatsion yondashuvga tayangan. Unga ko‘ra insoniyat tarixi “sinfiy kurash” prizmasida, kishilik jamiyatinig taraqqiyoti esa sinfiy kurash natijasi ularoq formatsiyalar almashinuvi konteksida talqin qilinadi. Markazlashgan davlatlar va kuchli shaxslar “ekspluatator sinf vakillari” sifatida baholanadi. Shu sababli orta asrlarda hukmronlik qilgan barcha tarixiy shaxslar “feodal hukmdor”, “bosqinchi”, “reaksion shaxs” sifatida tasvirlangan. Diniy ulamolar, mutafakkirlar ham “xalqlarni ezuvchi”, dindan g‘araz maqsadlarda, xalqni aldash, ularni itoatda ushlash va hukmron sinf manfaatlariga xizmat qilish vositasi sifatida foydalangan shaxslar sifatida qoralangan. Shunisi achinarliki, bu davrda tarix ilmi bilan shug‘ullangan o‘zbek olimlarining mutloq ko‘pchiligi o‘z tadqiqotlarida “buyirtma tarix” asosida yuritganlar va o‘z xalqi tarixini shunday noilmiy, noxolis yondashuvlar asosida bitganlar.

Mustaqillik tufayli tarix ilmiga munosabat tubdan o‘zgardi. Har holda O‘zbekiston tarixi olimlari orasida ham mustaqillik davrida turli masalalar, xususan, o‘zbek xalqining kelib chiqishi muammosi bo‘yicha turli fikrlar, shu jumladan, ilmiy asoslanmagan, yoki yetarli isbotlanmagan va hatto g‘ayriilmiy fikrlar ilgari surilgan. Ayrim tadqiqotchilar, o’zbek xalqining tarkib topishi asosida Markaziy Osiyoga XVI asr boshlarida bostirib kelgan Dashti Qipchoq qabilalari yotadi degan fikrni ilgari surganlar. Bu bilan u sovet davrida qabul qilingan va ilmiy asoslangan etnogenez nazariyasini asossiz inkor etganlar.

Biznigcha, ushbu qarashlarning asosida hozirgi kunda chet ellarda keng tarqalgan konstruktivizm nazariyasi yotadi. Rossiyada mazkur nazariya V. A.Tishkov va S. Abashin tomonidan mahalliy sharoitga moslashtirilib, yana ham rivojlantirilgan. Ularning fikricha millatlarning

hech qanday tarixi yo‘q. Har bir millat siyosiy jarayonlar orqali vujudga kelgan. Masalan, guyo, O‘zbekiston va o‘zbek xalqi ham 1924-yilda bolsheviklar tomonidan sun’iy ravishda vujudga keltirilgan. Bu bilan o‘zbek xalqi va davlatchiligining uch ming yillik tarixi inkor qilinadi. Natijada bunday “tadqiqotchilar” o‘zbek xalqining tarixini buzib ko‘rsatishgan. O‘zbek olimlari bunday nashrlarga o‘z vaqtida munosib javob berganlar.

Sovet davlatining parchalanishi va mustabid tuzumning qulashi natijasida ilm-fanning kommunistik g‘oya bilan bevosita bog‘liq bo’lgan sohalarga ixtisoslashgan, sovet davrida o‘z ta’siriga ega olimlarga, aytish mumkinki yangi davrda talab bo‘lmay qoldi. Masalan, marksizm-leninizm falsafasi, sovetlar davri tarixi, KPSS tarixi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy ishlar yoqlagan mutaxassislarga ehtiyoj qolmadi. Bunday tadqiqotchilar tarix fanining boshqa yo‘nalishlarida ilmiy faoliyatlarini davom ettirishga harakat qildilar. Natijada, saviyasi past va sifatsiz tadqiqotlarning soni ko‘payidi.

O‘zbekiston olimlari ham mustaqillik yillarida o‘z tarixini istiqlol nuqtai-nazaridan qaytadan yozishni boshladilar. Ammo, qo‘shni respublika olimlaridan farqli ravishda, o‘tmishni afsonalashtirishda kamtarroq bo‘lishdi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar, davlatchilik tarixi masalasida bahsli farashlarga suyanatgan bo‘lsalarda, xalqlarning kelib chiqishi masalasi o‘ta nozik masala ekanligni anglab, masalaga ilmiy metodologik nuqtayi nazardan yondashishga harakat qilmoqdalar. Bizning olimlarda, o‘zbek xalqi bevosita ham eroniy va ham turkiy xalqlarnini ming yilardan beri davom etayotgan o‘zaro qorushuvi va integratsiyasi natijasida vujudga kelgan degan qarash ustunlik qiladi. “Oriy”, “ saralangan”, “tanlangan” xalq degan nazariyalardan yiroqmiz.

Albatta, o‘zbek olimlari mustaqillik bergan imkoniyatlaridan foydalanib, o‘zbek xalqi tarixining sovetlar davrida yoritish taqiqlangan mavzulari, o‘tmishning “oq dog‘lari” ini erkin o‘rganishni boshladi. Bunda tarixni o‘rganishning markisistik metodlari, metodologiyasidan va yondashuvlaridan voz kechildi. Mustaqillik davrida istiqlol va milliy mafkura talablaridan kelib o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishning yangi, ilmiy asoslarga, xolis yondashuvlarga tyangan, shuningdek, jahon ilmi-fanida asos sifatida qabul qilingan tadqiqot metodologiyasini qo‘llashni boshladilar. Natijada, O‘zbekistonda tarixiy tadqiqotlarda sivilizatsion davlatlarda qo‘llanilyaotgan metodlardan foydalanish yurtimiz tarix ilmida ilmiy yondashuvlardan foydalanish ustun mavqeiga ega bo‘la boshladi. O‘tgan yillar davomida yangi, jahon tarix fanida ishlatilyatgan tarix metodologiyasi asosida xalqimiz tarixini o‘rganish o‘zbek davlatlarchiligi,

boy o‘tmish madaniyatimizni qayta anglash imkoniyatini berdi. O‘zbek xalqini kelib chiqishi, turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha yirik tadqoqotlar, asarlar paydo bo‘ldi. O‘n bir jildlik “O‘zbekiston tarixi”, uch jildlik mustamlakichilik va mustaqillik tarixi nashrdan chiqdi, ta’lim muassasalari uchun o‘nlab, yuzlab o‘quv qo‘llanmalar yozildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Shu bilan birgalikda tarixshilarimiz orasida tarixni o‘rganishning siyosiy mafkuraga, konyuktiraga moslashuvchan, ilmdan yiroq bo‘lgan qarashlar asosida yozilgan asarlar bitila boshlandi. Masalan, buyuk mutafakkirlarni, tarixiy shaxslarni faqat o‘zbeklar ajdodi ekanligiga da’volar hech qanday ilmiy asosga ega emas. Zardusht, Tumaris, Shiroq, Muqanna, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Farg‘oniy, Farobiy kabi o‘nlab, yuzlab tarixiy shaxslar Markaziy Osiyoda yashovchi bitta xalqga tegishli bo‘lmagan. Ular mintaqada asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan va mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga hissa qo‘shgan barcha xalqlarga aloqadordir. Xuddi shunday yondashuv mintaqa mavjud bo‘lgan barcha davlatlar va sulolalarga ham tegishli.

Albatta, bizda ham tarixiy shaxslar ulug‘landi, ko‘klarga ko‘tarildi, milliy ruh va davlatchililikning qaddini tiklashda asos sifatida foydalanildi va foydalanilmoqda. Bizda ham tarix fani siyosatga va mafkuraga xizmat qildi va qilmoqda. Masalan: “Avesto”ning 2700 yilligini Xorazmda nishonlanishi, sovetlar davrida “bosmachilar” (biz bunday qrashni qoralaymiz, albatta) deb atalgan harakat qatnashchilarini yoppasiga “istiqlolchilar”deb baholash kabi bahsli masalalar ham ko‘p, albatta. Nima bo‘gandayam, tarixni idellashtirishning qamrovi O‘zbekistonda qo‘shni davlatlarga nisbatan ancha past.

Albatta, keyingi yillarda “yutub” kanallaridagi o‘nlab ko‘rsatuvlarda, “O‘zbekiston tarixi” kanali ko‘rastuvlarida, ijtimoy tarmoqlarda tarixchi mutaxassislar, mutaxassis bo‘lmagan jurnalist, adabiyotchi, yozuvchi, blogerlar va hakozalar, o‘zbeklar qachon paydo bo‘lgan, ayrim tarixiy shaxslarning tariximizdagi o‘rni (Shaybanixon va Bobur masalasi), o‘tmish mutafakkirlar millati kim bo‘lgan?, Chingizxon kim bo‘lgan? (hatto o‘zbekmi?) degan savollar ham qo‘yilayapti, Mug‘ullar istilosini oqlashga urinishlar, mug‘ullar istilosidan keyin mintaqamizda “turk-mug‘ul sivivlizatsiyasi” paydo bo‘lgan deb da’vo qiluvchilar ham paydo bo‘lmoqda. Uzoq tariximizni qo‘yaylik, yaqin o‘tmishimiz, istiqlolga erishishi va keyingi rivojlanishimiz tarixi ham hozirgi kunda bahs-munozara maydoniga aylanmoqda. Bunda O‘zbekistonnong birinchi Prezidenti Islom Karimoning o‘rni va roli masalasi ayniqsa qizg‘in muhokama qilinmoqda.

Uning “Mustaqillik asoschisi” bo‘lganligi va unga tegishliligi tarix fanida, adabiyot, matbuotda tinmasdan bong urilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” konsepsiyasi savol ostiga qo‘yilmoqda. Umuman, I. Karimov davriga siyosiy baho berish kerak degan g‘oya tarafdorlari paydo bo‘lmoqda. Hech kimga sir emas, maktablarda o‘n yillar davomida o‘qitilgan mustaqilligimiz tarixi aks etgan darsliklar muallifi jurnalist N. Jo‘rayevning yozgan tarixi bir shaxs faoliyatini ulug‘lashdan iborat bo‘lib qolgan degan ta’riflar tug‘ilmoqda. Shuni o‘zi ham bizda ham tarixni yozishi va bayon qilish “zamona zayli” ekanligini, O‘zbekiston tarixchilari ham tarixni buzib talqin qilishda ildam ekanlgimizni bildiradi.

Umuman, shuni e’tirof etish kerakki, o‘zbekistonlik tadqiqotchilar, davlatchilik tarixi masalasida bahsli qarashlarga suyanayotgan bo‘lsalarda, xalqlarning kelib chiqishi masalasi o‘ta nozik masala ekanligni anglab, masalaga ilmiy - metodologik nuqtayi nazardan yondashishga harakat qilmoqdalar. Bizning olimlarda, o‘zbek xalqi bevosita ham eroniy va ham turkiy xalqlarnini ming yillardan beri davom etayotgan o‘zaro qorushuvi va integratsiyasi natijasida vujudga kelgan degan qarash ustunlik qiladi. “Oriy”,”saralangan”, “tanlangan” xalq degan nazariyalardan yiroqmiz,

Markaziy Osiyoda o‘tmishda davlatlarni bitta millat yoki xalq tomonidan yaratilgan, asos solingan degan qarash tarixni soxtalashtirish va falsifikatsiyalashtirishdan boshqa narsa emas. Lekin shunisi aniqki, o‘zbeklar mintaqaning qadimiy xalqlaridan bo‘lib, insoniyat sivilizatsiyasiga, taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan xalqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. “O‘zbek” nomi qachon vujudga kelgan?
2. Markaziy Osiyo tarixini soxtalashtirish kimlarga va nima uchun kerak?
3. “O‘zbekiston” atamasi qaysi manbalarda uchraydi?
4. Haqqoniy tarixni ochib berish uchun qanday tamoyillarga amal qilish kerak?
5. Tarixni an’anaviy va ilmiy bayon qilishda qanday farq bor?

9-mavzu. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiyasi

Darsning o‘quv maqsadi. 1999 yilda O‘zbekiston tarixchilari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiyasi” bilan tanishtirish va uni tahlil etish. Ushbu konsepsiya sovet davri tarixshunosligida hukmron bo‘lgan sinfiy-marksistik yondashuvdan voz kechgan holda, milliy, sivilizatsion va tarixiylik tamoyillariga asoslanganligini talabalarga tushuntirish berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *O‘zbekiston davlatchiligi Ilk davlatchilik uyushmalari, forslar va yunonlar hukmronligi, kushonlar, Qang‘ davlati, eftaliylar,Turk xoqonligi, arab xalifaligi, mo‘g‘ullar istilosi, Temuriylar davlati, Shayboniylar davlati, O‘zbek xonliklari.*

Darsning rejasi:

1. O‘zbekiston davlatchiligi: shakllanishi va taraqqiyoti

2.O‘zbekiston davlatchilik tarixi konsepsiyasi: ilmiy va nazariy asoslari

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiyasi o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy metodologiyasini shakllantirish, shu asosda o‘zbek xalqi va uning davlatchiligining haqqoniy tarixini yaratish, xalqimizda, ayniqsa, yosh avlodda tarixiy tafakkurni va tarixiy xotira tuyg‘usini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Ushbu konsepsiya “O‘zbekiston tarixi” jurnalining 1999-yil 1-sonida e’lon qilingan. Konsepsiyaning asosiy, tayanch ilmiy g‘oyalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi o‘troq, sun’iy sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligi zaminida bronza davridayoq Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida yirik davlat uyushmalari sifatida rivoj topgan;

- o‘zbek davlatchiligi tarixi salkam 3 ming yildan beri umumjahon tarixi hamda insoniyat jamiyati taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Turli nomlar bilan atalishi, sulolalarning almashinuvi kabi omillar o‘zbek davlatchiligi tarixining bosqichlari bo‘lib, uning bir butunligini va asosiy mohiyatini o‘zgartirmaydi;

- o‘zbek xalqi O‘zbekistonning mahalliy tub aholisi bo‘lib, uning antropologik qiyofasida O‘rta Osiyo – Farg‘ona antropologik tipi belgilari yetakchidir. O‘zbek xalqining tarixi Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida barcha qadimiy davrlarda kechgan etnik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘lanadi;

- O‘zbekiston hududlari sivilizatsiyasi O‘rta Osiyo xalqlari tarixiy-madaniy taraqqiyotining uzviy qismi sifatida mingyillar davomida rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi hamda insoniyat sivilizasiyasining taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Bu makon umumjahon sivilizasiyasini rivojlantirishda xizmat qiluvchi ilg‘or g‘oyalarni yuzaga keltiruvchi, saqlovchi dunyoga tarqatuvchilik rolini o‘ynab kelgan;

- konsepsiyaning manbashunoslik va tarixshunoslik asosini ulkan moddiy yodgorliklar majmui, yozma yodgorliklar va dunyo tarix fani erishgan holisona ilmiy xulosalar tashkil etadi.

O‘zbek davlatchilik tarixi konsepsiyaning maqsadi va vazifalari:

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o‘tmishning tarixiy tajribasi, o‘zbek xalqining qadimiy davlatchilik an’analari beqiyos ahamiyat kasb etishi O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida, davlat rahbarlarining asarlarida, mamlakat taraqqiyotining rivojlanishini belgilab berayotgan “2022-2026 yillarga muljallangan Taraqqiyot dasturi”, “O‘zbekiston 2030” konsepsiyasida o‘z aksini topgan. Shundan kelib chiqib, konsepsiyada istiqlol mafkurasi va milliy o‘zlikni anglashning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek davlatchiligining xolisona, haqqoniy tarixini yaratish maqsadi belgilanadi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- O‘zbekistonda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o‘troq aholining madaniyati hal qiluvchi omil bo‘lganini ko‘rsatib berish;

- miloddan avvalgi IX – VIII va VII – VI asrlarda ilk davlatchiligimiz taraqqiyoti jarayonini chuqur va izchil tadqiq etish;

- Ahamoniylar bosqini, makedoniyalik Iskandar va uning vorislari davrida qadimiy davlatchiligimizni tiklash uchun kurashning mohiyatini ochib berish. Kushonlar sulolasi davri tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi asosida chuqur tadqiq etish;

- Buyuk Ipak yo‘lining vujudga kelishi va uning ichki, tashqi savdo, iqtisodiy va madaniy munosabatlarda tutgan o‘rnini yoritib berish;

- ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligining barcha bosqichlari tarixini yaxlit tizim sifatida o‘rganish va uning jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish;

- XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda markazlashgan o‘zbek davlatchiligi rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini, Amir Temurning jahon tarixida yirik davlat arbobi, madaniyat va fan homiysi sifatida tutgan o‘rnini chuqur yoritish;

- XVI – XIX asr birinchi yarmida o‘zbek davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini, siyosiy tarqoqlik sharoitida boshqarish usullaridagi nuqsonlarni, madaniyat, fan, san’at sohalaridagi tanazzul alomatlarini o‘rganish;

- o‘zbek xalqining Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho‘rolar istibdodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy ahvoliga xolisona baho berish; :

- o‘zbek davlatchiligi tarixining istiqlol qo‘lga kiritilgandan keyingi eng yangi davrini har taraflama keng yoritish.

Konsepsiyaning g‘oyaviy asoslari:

- O‘zbekiston hududida tub aholi va uning ajdodlarining ko‘p mingyillar davomida o‘troq yashab kelganligi haqida mahalliy madaniyatning boy qadimgi ildizi va o‘tmishi bo‘lganligi;

- O‘zbekistonda davlatchilikning vujudga kelishi va o‘zbek xalqining shakllanish jarayonida tub o‘troq dehqonchilik aholisining tutgan o‘rni. Bugungi o‘zbek xalqi tarixan shu zaminda yashagan xalq shajarasining davomi va shu yerda shakllangan turmush tarsi va madaniyatining to‘laqonli vorisi ekanligi;

- O‘zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishida miloddan avvalgi III va II mingyilliklarda shakllangan sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi, hunarmandchilik va mahsulot almashishning asosiy omil ekanligi;

- O‘zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishida ilk shaharlarning muhim ahamiyati;

- O‘zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tub aholining urf-odatlari, an’analari va ma’naviyati, azaliy ijtimoiylashuv birlashtiruvchi omil bo‘lganligi;

- O‘zbekistonning ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma’noda nafaqat bugungi O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo miqyosidagi qadimiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinmog‘i lozim;

- O‘zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari, uning jahon sivilizasiyasi rivojlanishi va dunyo xalqlari tarixidagi tutgan muhim o‘rni.

O‘zbekiston tarixida quyidagi davrlar alohida ahamiyatga ega:

- O‘zbekistonda davlatchilikka o‘tish davri (miloddan avvalgi II mingyillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmi);

- Diplomatik munosabatlar va savdo, fan, madaniyat, san’atning taraqqiyoti. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson. Shohruh va Ulug‘bek;

- Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar sulolalari. O‘rta Osiyoda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘zbek davlatchiligining siyosiy parokandalik davri sifatida. Ulardagi boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.

- Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, soliqlar, davlatchilikning huquqiy asoslari. Xalqaro savdo va diplomatik munosabatlar rivoji. Fan, maorif, san’at va madaniyat. Adabiyot va tarixnavislik;

- Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining o‘rnatilishi. Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan qo‘llangan Rossiya protektorati maqomining mohiyati. Milliy Ozodlik uchun kurash. Xalq qo‘zg‘olonlari. Jadidchilik harakati;

- Turkistonda sho‘rolar istibdodining qaror topishi;

- Turkistonda ozodlik va mustaqillik uchun kurash. Turkiston muxtoriyati. Uning tugatilishi sabablari. Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi. “Xalq jumhurriyat” larining tashkil topishi. Sho‘rolarning “milliy siyosati”. Istiqlolchilik harakati va uning yengilish sabablari;

- “milliy davlat chegaralanishi” ning siyosiy mohiyati. Totalitar tuzumning qaror topishi. Sanoatlashtirish, yer-suv islohoti, madaniy inqilob va ularning oqibatlari. Sho‘rolarning qatag‘on siyosati qurbonlari. O‘zbekiston Ikkinchi Jahon urush iyillarida. 50-80-yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, fan va madaniyat. Ma’muriy buyruqbozlik tizimining kuchayishi. Sovetlar davlatining barham topishi;

- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida milliy tarixni qayta baholash va ilmiy asosda tadqiq etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi, rivoji va uzluksizligi masalasi tarixshunoslikda muhim nazariy muammo sifatida kun tartibiga chiqdi. Shu ehtiyoj natijasida O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasi shakllandi[5].

Ushbu konsepsiya sovet davri tarixshunosligida hukmron bo‘lgan sinfiy-marksistik yondashuvdan voz kechgan holda, milliy, sivilizatsion va tarixiylik tamoyillariga asoslanadi[6].

O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasining vujudga kelishi. Sovet tarixshunosligida O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar

[5] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — T.: O‘zbekiston, 1998.
[6] Тойинби А.Постижиние истории. — Москва , 1972.

mustaqil siyosiy tuzilma sifatida emas, balki “quldorlik” yoki “feodal” formatsiyalar doirasida talqin qilindi[7]. Sinfiy yondashuvga misol “Sarbadorlar harakati” sovet tarixshunosligida alohida sinfiy-inqilobiy harakat sifatida talqin qilingan. Sovet davri tarixchilari bu harakatni asosan feodal zulmga va mo‘g‘ul amaldorlariga qarshi xalq qo‘zg‘oloni sifatida izohlaganlar. Bu markisistik va sinfiy yondashuv mahalliy davlatchilik an’analarining inkor etilishiga olib keldi.

1991 yildan so‘ng:

- milliy tarixni qayta yozish,
- davlatchilik tarixini uzluksiz jarayon sifatida ko‘rsatish,
- xalqni tarixiy subyekt sifatida talqin qilish ehtiyoji paydo bo‘ldi[4].
- Natijada O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasi ilmiy muomalaga kiritildi.
- Davlatchilikning qadimiyligi va uzluksizligi masalasi
- Konsepsiyaga ko’ra, O‘zbekiston hududida davlatchilik, miloddan avvalgi I ming yillikda ug‘orma dehqonchilik, shaharsozlik, ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari asosida vujudga kelgan.

Qadimgi davlatlar sifatida: **So‘g‘d, Baqtriya, Xorazm, Qang‘, Kushon** davlati tilga olinadi[8]. Bu davlatlarda: markazlashgan boshqaruv,soliq tizimi, harbiy tuzilmalar mavjud bo‘lgan. Bu holat davlatchilikning tasodifiy emas, balki tarixiy zarurat natijasi ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasi davlatchilikni faqat tashqi bosqinlar natijasi sifatida talqin qiluvchi nazariyalarni rad etadi[7]. Shu bilan birga, konsepsiya mutlaq avtoxtonizm g‘oyasini ham tan olmaydi.

Davlatchilik shakllanishida: mahalliy siyosiy an’analar, turkiy boshqaruv tajribasi,

eroniy huquqiy-madaniy omillar sintezi muhim rol o‘ynagan.

Masalan:

- Turk xoqonligida harbiy-siyosiy boshqaruv,
- Somoniylar davrida markazlashgan ma’muriy tizim,
- Temuriylar davrida qonun ustuvorligi yaqqol namoyon bo‘ladi[9].

[7] Pokrovskiy M.N. Russkaya istoriya. — M., 1933.
[8] Вартольд В. Сочинения. Т.1. — М., 1963.
[9] Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. — Leiden, 2003.

Konsepsiyada o‘rta asr davlatlari O‘zbekiston milliy davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Xususan:

- Qoraxoniylar davlati turkiy davlatchilik an’analarini mustahkamladi;
- Xorazmshohlar davlati hududiy yaxlitlikni ta’minladi;
- Amir Temur davlati markazlashgan davlat modelini yaratdi[10].

Amir Temurning “Tuzuklar”i: davlat boshqaruvi, huquqiy tartib, ijtimoiy adolat masalalarini qamrab olgan muhim manba hisoblanadi. Rossiya imperiyasi va sovet davrida milliy davlatchilik siyosiy jihatdan cheklangan,ammo xalq ongida va madaniyatida saqlanib qolgan. Sovet davrida respublika davlat atributlariga ega bo‘lgan, biroq real siyosiy mustaqillik mavjud bo‘lmagan.

1991 yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi tarixiy davlatchilik an’analarining mantiqiy davomi sifatida baholanadi. O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasi quyidagi metodologik asoslarga tayanadi:

- sivilizatsion yondashuv;
- tarixiylik va uzluksizlik tamoyili;
- qiyosiy-tarixiy metod;
- madaniy-antropologik tahlil.

Mazkur konsepsiya milliy tarixshunoslikni rivojlantiradi, ta’lim tizimida nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va milliy o‘zlikni anglash jarayonini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi eng yangi davr. Mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishi. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati, mustaqillik yillarida Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgarishlar, O‘zbekistonda huquqiy demokratik fuqarolik davlati asoslarining shakllantirilishi va rivovlanishi. O‘zbekistonda 2016 yildan keyin amalga oshirilgan islohotlar va “Yangi O‘zbekiston” va yangilanish. “Uchinchi Renesans” va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot asoslari. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim, fan va madaniyat sohasida ulkan o‘zgarishlar. “Islom sivsilisatsiyasi” Markazining ochilishi va uning mamlakat va mintaqa hayotidagi ahamiyati. Ma’naviyat va ma’rifat, milliy va diniy an’analar, progressiv urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarining tiklanishi.

[10] Temur tuzuklari. — T.: Sharq, 1991.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda davlatchilik tartixi haqida ma’lumot bering.
2. “O‘zbekiston davlatchiligi konsepsiyasi”ning mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston hududlarida davlatchilik shakllanishiga ta’sir qilgan omillar haqida gapirib bering.
4. O‘zbekistonda davlatchilik tarixining qanday konsepsiyalari mavjud?
5. Davlat va davlatchilik haqida nimalarni bilasiz?

10-mavzu. G‘arbda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganilishi: yondashuv va talqinlar

Darsning o‘quv maqsadi: Yevropa va Amerika tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi haqida umumiy tushuncha berish. Rossiya Federatsiyasida tarixshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda bir yoqlama qarashlar va ularning tahlil qilish. Konstruktivizm nazariyasining hayotga tatbiq etilishi va uning asl maqsadlari. G‘arb tarixshunosligi va unda Markaziy Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi, Yevropadan Markaziy Osiyoga sayohat qilgan sayyohlarning asarlar tahlili. Konstruktivizm nazariyasi hamda uning mohiyati. Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasining yoritilishi: uydirma va haqiqat. Sartlar tushunchasi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *G‘arb dunyosi, Markaziy Osiyo, G‘arb traixshunosligi, qarashlar, talqinlar, “Katta o‘yin”, konsepsiyalar, sayohatchilar, arxeologik kashfiyotlar, sharqshunoslik, kartografiya, yevropotsentrizm, geosiyosat.*

Darsning rejasi:

1. G‘arbda Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi tarixidan
2. G‘arb tarixshunosligi: maktablari va yunalishlari.

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan yo‘llarning kesishuvida joylashgan bo‘lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. G‘arb olimlari Markaziy Osiyoni ko‘pincha imperiyalar strategiyasi nuqtai nazaridan obyekt sifatida talqin qilgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan G‘arb tarixshunosligida mintaqaga bo‘lgan yondashuvlar ham o‘zgarib bordi. Shuning uchun jahonning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga doimo qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda. G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoni o‘rganish masalasi uzoq tarixiy jarayonga ega bo‘lib, u har bir davrning siyosiy, mafkuraviy va ilmiy paradigmalari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Markaziy Osiyo G‘arb olimlari nigohida bir xil tarzda talqin qilinmagan: dastlab u geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan qaralgan bo‘lsa, keyinchalik madaniy-tarixiy makon, undan so‘ng esa mustaqil tarixiy subyekt sifatida baholana boshlangan. Angliyalik tarixchi Peter Hopkirk g‘arblik olimlarning umumiy qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: “Markaziy Osiyo buyuk davlatlar o‘z raqobatini olib borgan shaxmat doskasiga aylandi va bu jarayonda bu hududda yashovchi xalqlarning taqdiri deyarli e’tiborga olinmadi”.

Markaziy Osiyo haqidagi dastlabki ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchilari va geograflarining asarlarida keltirilgan. Arab xalifaligi davrida yevropaliklar Markaziy Osiyoning musulmon olimlari – Farg‘oniy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino (Avitsenna), Beruniy va boshqalar haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar. XIV – XV asrlarda Yevropaning ba’zi hukmdorlari Amir Temur va Temuriylar sulolasiga mansub hukmdorlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yganlar. XVI – XVIII asrlarda yevropalik kartograflar va sayohatchilar Markaziy Osiyoning tasviri va ta’rifi tushirilgan ko‘plab xaritalar tuzdilar. XIX asr o‘rtalarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “yevroposentrizm” tarixiy-madaniy va geosiyosiy konsepsiyasi yoyiladi. Unga ko‘ra, jahondagi taraqqiyot va madaniy jarayonlarda G‘arbiy Yevropa xalqlarining qadriyatlari alohida mavqega va ahamiyatga ega bo‘lgan. Bunday g‘oyalar o‘rta asrlarda ham mavjud bo‘lib, ularning ta’siri va keng tarqalishining eng dastlabki va yorqin namoyishlari sifatida dunyoning turli dinlari tarafdorlari o‘rtasidagi davlatlararo va mintaqalararo to‘qnashuvlarni ko‘rsatish mumkin. Xususan, o‘rta asrlarda Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqalari katoliklar bilan aqidaparast ortodokslar, nasroniylar bilan musulmonlar o‘rtasidagi diniy to‘qnashuvlar maydoniga aylandi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yevropaliklar dunyodagi boshqa ko‘plab xalqlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Lekin ularning madaniy qadriyatlarni baholashdagi noto‘g‘ri yondashuvi, boshqa xalqlar madaniyatining o‘ziga xosligini, ularning ilm-fan va texnika sohasidagi yutuqlarini tan olishga imkon bermadi. Ularning fikriga ko‘ra, mahalliy aholining tarixiy qismati qullik va mustamlakaga qaramlikdan iborat edi. XIX asrga kelib yevropaliklarning boshqa xalqlar va ularning tarixiga nisbatan qarashlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bunga Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy va Amerikada topilgan noyob arxeologik kashfiyotlar sababchi bo‘ldi. Chunki, endilikda Yevropa tamaddunidan ko‘ra yana ham qadimgiroq bo‘lgan tamaddunlar mavjudligi haqida dalillar taqdim etilgan edi. Lekin ushbu dalillar Evropada shakllangan an’anaviy nuqtai nazarni butunlay o‘zgartira olmadi, shunday bo‘lsa ham, yevropaliklar bilan boshqa xalqlar o‘rtasidagi munosabatlardagi bir qator jihatlarda o‘zgarishlar yuz berdi. Yevropalik bo‘lmagan xalqlarning iqtisodiy (ayniqsa, sanoat va harbiy) rivojlanish darajasi va sur’atlarida yaqqol ko‘zga tashlanuvchi qoloqligi yevropotsentrizm g‘oyasining tarafdorlariga kuch bag‘ishlagani va past darajadagi irqlar mavjudligi haqidagi g‘oyaning kelib chiqishiga asos

bo‘lib xizmat qilgan. Peter Hopkirk ushbu yondashuvni quyidagicha ifodalaydi: “Markaziy Osiyo buyuk davlatlar o‘z raqobatini olib borgan shaxmat doskasiga aylandi va bu jarayonda bu hududda yashovchi xalqlarning taqdiri deyarli e’tiborga olinmadi”. Bu iqtibos XIX asr G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoning geosiyosiy obyekt sifatida talqin qilinganini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu davr talqinlarining nazariy asosi “yevrosentrizm” bo‘lib, Edward Saidning “Sharq deyarli Yevropaning o‘zi tomonidan yaratilgan tushuncha” degan fikri bu qarashlarning mafkuraviy ildizlarini ochib beradi.

Ammo, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi olimlarning asarlarida yevropotsentrizm g‘oyalarining ta’siri yaqqol seziladi. Xususan, ko‘pgina yevropalik olimlarning asarlarida Osiyodagi hind-eron xalqlarining tarixiga qiziqish nihoyat darajada katta, chunki ular Yevropa xalqlari bilan kelib chiqishi umumiy bo‘lgan oriylarning avlodlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning asarlarida Osiyodagi tamaddun taraqqiyoti tarixida turkiy tilli xalqlarning qo‘shgan hissasi kamsitilib, ahamiyatsiz va ko‘pincha salbiy bo‘lgan deb noto‘g‘ri xulosalar chiqarildi.

XX asr boshlarida G‘arb sharqshunosligida nisbatan ilmiy va tizimli yondashuv shakllana boshladi. Bu davrda Markaziy Osiyo faqat bosqinlar yoki siyosiy raqobat maydoni sifatida emas, balki murakkab tarixiy-madaniy rivojlanishga ega hudud sifatida o‘rganildi. Klassik sharqshunoslik maktabi vakillari mahalliy manbalar va tarixiy jarayonlarga ko‘proq e’tibor qaratdilar. Vasiliy Bartoldning “Turkiston tarixi shunchaki bosqinlar ketma-ketligi emas, balki murakkab madaniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonidir” degan fikri ushbu bosqichga xos yondashuvni ifodalaydi.

XX asr boshlarida Yevropa va jahon hamjamiyatida yetakchilik qilish masalasi keskinlashdi. Bu masala tez orada Yevropaning kommunistik va kapitalistik qismlarga bo‘linishiga olib keldi. Ular orasida jahonda yetakchilik qilish va ta’sir o‘tkazish uchun keskin geosiyosiy va harbiy raqobat boshlandi. Ikkinchi jahon urushida davom etgan qarama-qarshilikdan so‘ng, Yevropa o‘zining jahondagi yetakchilik ahamiyatini yo‘qotdi va XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab “yevropotsentrizm” tushunchasi ikkilamchi ma’noga ega bo‘ldi. Bir tomondan, unda Yevropa qit’asida qolgan o‘zlarining Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Janubiy Afrikadagi sobiq vatandoshlarining taqdiri haqida tashvishlari o‘z aksini topdi.

Eski Yevropaga Yaponiya raqobatlashuvchi davlat edi. Boshqa tomondan, “anglo-sakson” (Angliya va Amerika) dunyosining umumiy

qadriyatlarining jahonda ustunligi haqida ilgari surilgan yangi g‘oyalar “yevropotsentrizm” g‘oyasining rivojlanishiga yangi turtki bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, Sovet davri va “Sovuq urush” sharoitida G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoga bo‘lgan munosabat yana o‘zgardi. Mintaqa ko‘pincha sovet tizimi doirasida, yopiq va tashqi nazorat ostidagi hudud sifatida o‘rganildi. G‘arb tadqiqotchilari Markaziy Osiyoni sovet modernizatsiyasi ta’siri ostida shakllangan jamiyat sifatida talqin qildilar. Shu bilan birga, milliy va diniy omillarning yashirin saqlanib qolganiga alohida urg‘u berildi. G’arblik tadqiqotchilardan bo‘lgan Carrère d’Encausse : “…Sovet Markaziy Osiyosida islom rasmiy institut sifatida emas, balki chuqur ildiz otgan madaniy kuch sifatida saqlanib qoldi”, - deb ta’kidlaydi. Bu iqtibos G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyo sovet mafkurasi bilan to‘liq singib ketmagan hudud sifatida baholanganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganishga ixtisoslashgan eng yirik ilmiy markazlar AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Italiya, Avstriya va Niderlandiyada joylashgan. Bu mamlakatlarda Markaziy Osiyo xalqlarining tillari ham o‘rganiladigan maxsus markazlar mavjud. Germaniyada “Central Asiatic Journal” nomli jurnal chop etiladi. Yevropalik olimlarning qiziqishlari davr jihatdan mintaqaning qadim zamonlardan tortib eng yangi zamongacha bo‘lgan butun tarixini o‘z ichiga oladi, mavzu jihatdan esa tarix, arxeologiya, etnografiya, geografiya, din, adabiyot, siyosat singari sohalarni qamrab oladi. Umuman olganda, zamonaviy Yevropadagi ilm-fan chuqur va izchil izlanish, ilmiy yondashuvda haqqoniylik va tarixiy tadqiqotlarda siyosiylashtirish yo‘qligi bilan ifodalanadi.

Yevropada va umuman jahon ilm-fanida eronshunoslik sohasi turkshunoslik va turk xalqlarining tarixi sohasiga nisbatan ancha ko‘proq rivojlandi. Faqat so‘nggi o‘n yilliklar davomida Markaziy Osiyodagi qadimgi turklar tarixi va madaniyati tarixi bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borildi, bir qator olimlar, xususan, P. B.Golden, S. Stark, S. Skaff, S. I.Bekvit kabi evropalik olimlar va rus tadqiqotchilaridan D. Vasiliev, I. V. Stebleva, I. L.Kizlasov, T. Arjanseva va boshqalarining tadqiqotlarida turkiy xalqlarning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ta’kidlangan.

Zamonaviy bosqichda G‘arb tarixshunosligida transmilliy va global yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Bu yondashuv Markaziy Osiyoni alohida hudud sifatida emas, balki Yevrosiyo miqyosidagi tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida tahlil qiladi. Savdo yo‘llari,

migratsiya, madaniy va diniy almashinuvlar orqali mintaqaning global tarixdagi o‘rni qayta baholanmoqda. S. Frederick Starr tahriri ostidagi tadqiqotlarda “Markaziy Osiyo uzoq vaqt davomida Yevrosiyo sivilizatsiyalarini o‘zaro bog‘lab turgan almashinuv markazi bo‘lib kelgan”, - degan xulosa ilgari suriladi.

Sovet davrida va postkolonial tahlillarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy, madaniy va dini jarayonlari ilmiy diqqat markaziga kiritildi. Shu tariqa tarixshunoslikdagi yondashuvlar faqat geopolitik manfaatlar bilan cheklanmasdan, mahalliy subyektlarni ham tahlil qilishga yo‘naltirildi.

G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoni o‘rganish masalasi uzoq tarixiy jarayonga ega bo‘lib, u har bir davrning siyosiy, mafkuraviy va ilmiy paradigmalari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Markaziy Osiyo G‘arb olimlari nigohida bir xil tarzda talqin qilinmagan: dastlab u geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan qaralgan bo‘lsa, keyinchalik madaniy-tarixiy makon, undan so‘ng esa mustaqil tarixiy subyekt sifatida baholana boshladi. Ushbu jarayonda yondashuvlar va talqinlar sezilarli darajada o‘zgarib, boyib bordi. Mazkur maqolada G‘arbda Markaziy Osiyoni o‘rganishdagi asosiy davrlar ketma-ket tahlil qilinib, har bir bosqichdagi ilmiy qarashlar ochiq manbalardagi asarlar va iqtiboslar orqali asoslab beriladi.

XIX asrda G‘arbda Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqish asosan imperiyalararo raqobat, xususan, Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasidagi “Buyuk o‘yin” bilan bog‘liq edi. Bu davr tadqiqotlarida mintaqa mustaqil tarixiy makon sifatida emas, balki strategik hudud sifatida talqin qilindi. G‘arb mualliflari Markaziy Osiyoni buyuk davlatlar manfaatlari to‘qnashadigan makon sifatida tasvirlab, mahalliy xalqlarning ichki taraqqiyotini ikkinchi darajaga tushirdilar. Peter Hopkirk ushbu yondashuvni quyidagicha ifodalaydi: “Markaziy Osiyo buyuk davlatlar o‘z raqobatini olib borgan shaxmat doskasiga aylandi va bu jarayonda bu hududda yashovchi xalqlarning taqdiri deyarli e’tiborga olinmadi”[11]. Bu iqtibos XIX asr G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoning geosiyosiy obyekt sifatida talqin qilinganini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu davr talqinlarining nazariy asosi “yevrosentrizm” bo‘lib, Edward Saidning “Sharq deyarli Yevropaning o‘zi tomonidan yaratilgan tushuncha” degan fikri bu qarashlarning mafkuraviy ildizlarini ochib beradi.

[11] Hopkirk, P., The Great Game. - London: John Murray, 1990. - P-22.
Bartold, V., Turkestan Down to the Mongol Invasion. - Oxford: Oxford University Press, 1928.- P 80–82.

XX asr boshlarida G‘arb sharqshunosligida nisbatan ilmiy va tizimli yondashuv shakllana boshladi. Bu davrda Markaziy Osiyo faqat bosqinlar yoki siyosiy raqobat maydoni sifatida emas, balki murakkab tarixiy-madaniy rivojlanishga ega hudud sifatida o‘rganildi. Klassik sharqshunoslik maktabi vakillari mahalliy manbalar va tarixiy jarayonlarga ko‘proq e’tibor qaratdilar. Vasiliy Bartoldning “Turkiston tarixi shunchaki bosqinlar ketma-ketligi emas, balki murakkab madaniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonidir” degan fikri ushbu bosqichga xos yondashuvni ifodalaydi[12]. Bu davrda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalar chorrahasi, Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arbni bog‘lovchi makon sifatida talqin qilina boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, Sovet davri va “Sovuq urush” sharoitida G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoga bo‘lgan munosabat yana o‘zgardi. Mintaqa ko‘pincha sovet tizimi doirasida, yopiq va tashqi nazorat ostidagi hudud sifatida o‘rganildi. G‘arb tadqiqotchilari Markaziy Osiyoni sovet modernizatsiyasi ta’siri ostida shakllangan jamiyat sifatida talqin qildilar. Shu bilan birga, milliy va diniy omillarning yashirin saqlanib qolganiga alohida urg‘u berildi. Carrère d’Encausse “Sovet Markaziy Osiyosida islom rasmiy institut sifatida emas, balki chuqur ildiz otgan madaniy kuch sifatida saqlanib qoldi[13]” deb ta’kidlaydi. Bu iqtibos G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyo sovet mafkurasi bilan to‘liq singib ketmagan hudud sifatida baholanganini ko‘rsatadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida G‘arb tarixshunosligida postkolonial yondashuvlar keng tarqala boshladi. Ushbu yondashuv avvalgi yevrosentrik va sovet-markazlashgan talqinlarni tanqid qilib, Markaziy Osiyoni tarixiy jarayonlarning faol subyekti sifatida ko‘rsatishga intildi. Endilikda mintaqa xalqlari zamonaviylikni tashqi kuchlar ta’sirida emas, balki ichki madaniy va intellektual harakatlar orqali shakllantirgani ta’kidlandi. Adeeb Xalidning “Markaziy Osiyo xalqlari zamonaviylikni passiv tarzda qabul qilmagan, balki uni o‘z madaniy qadriyatlari asosida faol ravishda shakllantirgan[14]” degan fikri ushbu yangi talqinning mohiyatini ochib beradi.

Zamonaviy bosqichda G‘arb tarixshunosligida transmilliy va global yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Bu yondashuv Markaziy Osiyoni alohida hudud sifatida emas, balki Yevrosiyo miqyosidagi tarixiy

[12] Bartold, V. “ Turkestan Down to the Mongol Invasion” . - Oxford: Oxford University Press, 1928. - P 80–82.
[13] Carrère d’Encausse, H.” Islam and the Russian Empire” 1988. - P-20
[14] Khalid, A. “The Politics of Muslim Cultural Reform” Berkeley: University of California Press, 1998, P-44.

jarayonlarning ajralmas qismi sifatida tahlil qiladi. Savdo yo‘llari, migratsiya, madaniy va diniy almashinuvlar orqali mintaqaning global tarixdagi o‘rni qayta baholanmoqda. S. Frederick Starr tahriri ostidagi tadqiqotlarda “Markaziy Osiyo uzoq vaqt davomida Yevrosiyo sivilizatsiyalarini o‘zaro bog‘lab turgan almashinuv markazi bo‘lib kelgan[15]” degan xulosa ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoni o‘rganish yondashuvlari bir necha bosqichda shakllangan va rivojlangan.

Birinchidan, XIX asrda “Buyuk o‘yin” davrida G‘arb olimlari mintaqani ko‘pincha strategik obyekt sifatida talqin qilgan. Ular Markaziy Osiyoni imperiyalararo raqobat nuqtai nazaridan ko‘rib, siyosiy va harbiy manfaatlar bilan chegaralangan qarashlarni ilgari surgan. Hopkirkning The Great Game asarida mintaqa shaxmat doskasi sifatida tasvirlanishi, Bartoldning Markaziy Osiyoning murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlarini tahlil qilishi, shu davr yondashuvlarining muhim dalili hisoblanadi.

Ikkinchidan, Sovet davri va postkolonial yondashuvlar bilan G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyoning ijtimoiy, madaniy va dini jarayonlari ilmiy e’tiborga kiritila boshladi. Adib Khalid mintaqa xalqlarining zamonaviylikni faol shakllantirish jarayonini yoritgan bo‘lsa, Carrère d’Encausse milliy masalalarni chuqur tahlil qilgan. Shu bilan, G‘arb tadqiqotchilari Markaziy Osiyoni faqat geopolitik obyekt sifatida emas, balki mustaqil subyekt sifatida o‘rganishning zaruratini anglab yetdi.

Uchinchidan, zamonaviy global yondashuvlar mintaqani Yevrosiyo sivilizatsiyalarini bog‘lovchi markaz sifatida talqin qiladi. Starr o‘z tadqiqotida mintaqaning faqat siyosiy nuqtai nazardan emas, balki iqtisodiy, madaniy va strategik jihatdan ham global tarixdagi o‘rnini aks ettiradi.

To‘rtinchidan, tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali G‘arb tarixshunosligi nafaqat mintaqaning tashqi siyosiy holatini, balki ichki madaniy va ijtimoiy jarayonlarini ham e’tiborga oladigan darajaga yetdi. Bu esa Markaziy Osiyoning tarixiy subyekt sifatida o‘ziga xosligini ochib beradi va talqinlarning chuqurlashishiga olib keladi.

Xulosa qilganda, Markaziy Osiyoni o‘rganish G‘arb tarixshunosligida uzoq tarixiy jarayonlarga, imperiyalararo siyosiy raqobatga, sovet va postkolonial davrga hamda zamonaviy global

[15] Starr, S. F. ” Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present” Princeton: - Princeton University Press, 2018. - P-15.

kontekstga bog‘liq bo‘lgan murakkab tizim sifatida qaralishi lozim. Shu yo‘l bilan tarixshunoslik nafaqat siyosiy va strategik manfaatlarni, balki madaniy, ijtimoiy va tarixiy jihatlarni ham chuqur tushunishga asoslangan bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yevropa va Amerika tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi bo‘yicha qanday qarash va talqinlarbor?
2. Konstruktivizm nazariya haqida gapirib bernig.
3. G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasining yoritilishi, sartlar tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?

11-mavzu. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan istilosiga oid qarashlar

Darsning o'quv maqsadi: XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalasi turli tarixshunoslik maktablari qarashlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rus imperiya tarixshunosligi, sovet davri yondashuvlari hamda zamonaviy g'arb tarixchilari qarashlari qiyosiy usulda o'rganiladi. Alexander Morrison, V. V. Bartold, B. G. Gafurov, Edward Allworth kabi olimlarning asarlariga tayangan holda Rossiya istilosining harbiy, siyosiy va ma'muriy jihatlari tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Markaziy Osiyo, Buyuk Britaniya, Rossiya imperiyasi, istilo, mustamlakachilik, tarixshunoslik, "Buyuk o'yin".*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo uchun kurash: "Katta o'yin"

2. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan istilosiga oid qarashlar va talqinlar

Juda katta hudud va boy resurslarga egaligi hamda Afg'oniston, Eron, Hindiston, Buxoro amirligi va Xitoyga eltuvchi qulay yo'llar kesishmasida joylashganligidan Markaziy Osiyo mintaqasi XIX asr boshlarida jahondagi yetakchi davlatlarning geostrategik manfaatlari to'qnashgan hududga aylandi. Angliya va Rossiyaning O'rta Osiyoda hukmronlik qilish uchun o'zaro raqobati va kurashi tarixga "Katta o'yin"* ("The Great Game") nomi bilan kirgan. XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga chegaradosh Afg'oniston hududidagi faoliyati, xonliklarga Angliya tovarlarining kirib kelishi Rossiya hukmron doiralari va savdo-sanoat vakillarini tashvishga soldi hamda ularning mintaqaga intilishlarini yanada kuchaytirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga qarab kengayishi mintaqa tarixida tub burilish yasadi. O'zbekistonlik tadqiqotchi Sh. Ergashevning fikricha: "Turkiston mintaqasi Rossiya uchun nafaqat iqtisodiy va harbiy- strategik, balki muhim geosiyosiy ahamiyat ham kasb etdi. Buyuk Britaniya ham, Rossiya imperiyasi ham o'zining jahon siyosatidagi rolini oshirish uchun mintaqaga muhim omil sifatida qaray boshladi". Bu bilan "madaniyatli" xalqlar o'zlarining istilochilik yurishlarini oqlash maqsadida "qoloq", "johil", "yovvoyi" xalqlarga "ma'rifat", "madaniyat" keltirayotganligini ro'kach qilishadi. Nemis etnografi Emil Shmidt ham Rossiyaning Xivaga yurishdan maqsadlaridan biri: "Ushbu hududda yashayotgan vahshiy

xalqlarga sivilizatsiya ne’matlariga olib boradigan yo‘lni ko‘rsatish bo‘lgan” — degan fikrni bildiradi. Umuman, o‘sha davrdagi G‘arb va ruslarning ziyoli qatlami mazkur nazariyalarni umuminsoniy taraqqiyotga xizmat qilish sifatida baholab, o‘zlarining mintaqadagi bosqinchilik faoliyati va siyosatini insonparvarlik sifatida ko‘rsatib, jamoatchilikni asl maqsadlaridan chalg‘itishga uringanlar. Morrisonning ushbu davrni imperiyaviy kengayishning muhim bosqichi sifatida belgilashi Rossiya siyosatining tasodifiy emasligini ko‘rsatadi. Bu jarayon Markaziy Osiyoni Rossiya tashqi siyosatining strategik hududiga aylantirgan. Aynan shu bosqichdan boshlab mintaqa mustaqil siyosiy subyekt emas, balki imperiya manfaatlari doirasida qaralgan. Shuningdek, bu holat keyinchalik ma’muriy va harbiy boshqaruv tizimlarining joriy etilishiga zamin yaratgan. Demak, istilo mintaqa tarixidagi faqat harbiy emas, balki siyosiy burilish nuqtasi sifatida baholanishi lozim. Ushbu jarayon tarixshunoslikda turlicha talqin qilinib, imperiya davrida u “sivilizatsion missiya” sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, sovet davrida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan izohlandi. Gafurovning yondashuvi Rossiya istilosini iqtisodiy va madaniy integratsiya kontekstida baholaydi. Menimcha, bu fikr mintaqa xalqlari hayotiga ijobiy va salbiy tomonlarni birgalikda ko‘rsatadi. Shu bilan birga, imperiya hukmronligi mahalliy resurslar va ijtimoiy tuzilmaga qanday ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Zamonaviy g‘arb tarixshunosligida esa Rossiya ekspansiyasi klassik mustamlakachilik siyosatining bir ko‘rinishi sifatida baholanadi. Allworthning fikricha, Rossiya hukmronligi kolonial boshqaruv modeli sifatida ifodalanadi. Ammo, bu qarash mintaqaning siyosiy va iqtisodiy resurslarini markaziy nazorat ostiga olish strategiyasini aniq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimi qanday cheklanganini ko‘rib chiqish, imperiya siyosatining natijalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Allworthning ushbu yondashuvi Rossiya siyosatini global kolonial tizimlar bilan qiyoslash imkonini beradi. Bu nuqtai nazar Rossiya imperiyasini Yevropa mustamlakachi davlatlari bilan bir qatorda ko‘rib chiqadi. Natijada, Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar mustamlakachilik nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Bu yondashuv mintaqa tarixini ideallashtirishdan xoli, tanqidiy asosda o‘rganishga imkon beradi. Shu bois zamonaviy g‘arb tarixshunosligi ilmiy jihatdan muhim metodologik burilish hisoblanadi.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi harbiy yurishlari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, Buyuk o‘yin (Great Game) kontekstida shakllangan. Alexander Morrison o‘z tadqiqotida

Rossiya ekspansiyasini faqat agressiv siyosat sifatida emas, balki imperiyaning janubiy chegaralarini himoyalashga qaratilgan strategiya sifatida ham talqin qiladi. Ushbu yondashuv Rossiya siyosatini o‘zini oqlovchi diskurs orqali tushuntirishga urinadi. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, “mudofaa zarurati” tushunchasi ko‘pincha imperiyalar tomonidan kengayishni legitimlashtirish uchun ishlatilgan. Markaziy Osiyo hududida barqaror tashqi tahdid mavjud bo‘lmagan sharoitda Rossiyaning chuqur hududiy ekspansiyasi ushbu tezisning nisbiyligini ko‘rsatadi. Demak, bu yondashuvni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki imperiyaviy ideologiyaning bir ko‘rinishi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan, Morrisonning tahlili imperiya tafakkurini tushunishda muhim, ammo tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Morrison tomonidan “Buyuk o‘yin” doirasida talqin qilingan bu jarayon Rossiya istilosining xalqaro siyosat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi strategik raqobat maydoniga aylangan. Bu esa mintaqaga nisbatan qarorlarning faqat mahalliy sharoitdan kelib chiqib emas, balki global siyosiy manfaatlar asosida qabul qilinganini anglatadi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari yirik geosiyosiy o‘yin qurboniga aylangan. Ushbu holat istiloning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Morrison Rossiya istilosini tizimli va bosqichma - bosqich amalga oshirilgan imperiyaviy ekspansiya sifatida talqin qilib, harbiy kuch bilan bir qatorda diplomatik va ma’muriy vositalar muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi. Bu fikr Rossiya siyosatining kompleks xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Harbiy yurishlar ma’muriy islohotlar va diplomatik bosim bilan uyg‘un holda olib borilgan. Shu orqali Rossiya qisqa muddatda mintaqani nazorat ostiga olgan. Bu yondashuv imperiyaning faqat zo‘ravonlikka tayanmaganini, balki siyosiy moslashuvchanlikni ham namoyon etadi. Natijada, istilo jarayoni tizimli boshqaruv modeliga asoslanganligini ko‘ramiz. Bartoldning fikricha, Markaziy Osiyo xonliklarining ichki siyosiy parokandaligi Rossiya harbiy ustunligini ta’minlagan omillardan biri bo‘lgan. Bartold bu yerda tashqi bosqinni ichki omillar bilan bog‘laydi. Xonliklar o‘rtasidagi nizolar va markazlashgan davlat tizimining yo‘qligi Rossiya uchun qulay sharoit yaratgan. Bu holat istiloni faqat tashqi bosqin sifatida emas, balki ichki zaifliklar natijasi sifatida ham ko‘rsatadi. Shu sababli, mintaqa tarixini o‘rganishda ichki siyosiy strukturalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bartoldning yondashuvi shu jihatdan ilmiy asosli hisoblanadi. Sovet tarixshunosligida esa, xususan Gafurov asarlarida Rossiya hukmronligi mintaqani iqtisodiy va madaniy jihatdan

integratsiyalash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu talqin sovet mafkurasining ta’siri ostida shakllangan. Rossiya hukmronligi natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijobiy ruhda talqin qilinadi. Biroq bu yondashuv mahalliy aholi manfaatlari va mustamlakachilikning ekspluatatsion mohiyatini yetarlicha ochib bermaydi. Zamonaviy tarixshunoslik bu fikrlarni tanqidiy qayta baholaydi. Shu sababli, Gafurov qarashlari tarixiy manba sifatida ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi lozim. Edward Allworth va zamonaviy g‘arb tarixchilari Rossiya hukmronligini klassik kolonial boshqaruv modeli sifatida baholaydi. Ularning fikricha, harbiy bosib olishdan keyingi davrda mahalliy boshqaruv tizimlari cheklangan, iqtisodiy resurslar markaz manfaatlariga bo‘ysundirilgan. Allwortning pozitsiyasi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik mohiyatini ochib beradi. Mahalliy siyosiy institutlarning cheklanishi va iqtisodiy resurslarning markazga bo‘ysundirilishi bu siyosatning asosiy belgilaridir. Bu holat Markaziy Osiyoning uzoq muddatli rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli, bu yondashuv ilmiy jihatdan muhim va asosli hisoblanadi. Edward Allworth Rossiya hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda mahalliy ijtimoiy tuzilmalarning tubdan o‘zgarganini qayd etadi. Rossiya ma’muriy islohotlari natijasida an’anaviy hokimiyat institutlari zaiflashtirilgan. Bu jarayon qisqa muddatda markaziy nazoratni mustahkamlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatda ijtimoiy beqarorlikka olib kelgan. Mahalliy elitalarning siyosiy chetlashtirilishi ijtimoiy uzilishlarni kuchaytirgan. Shu nuqtai nazardan, Rossiya hukmronligi mintaqaning ichki ijtimoiy muvozanatini izdan chiqargan. Bu esa keyingi davrdagi milliy harakatlarning shakllanishiga zamin yaratgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin. Robert F. Baumann esa Rossiya harbiy amaliyotlarini noan’anaviy urush usullari bilan izohlab, bu jarayonning zo‘ravonlik darajasini ochib beradi. Baumannning tadqiqoti Rossiya istilosining harbiy jihatini yanada chuqurroq ochadi. Noan’anaviy urush usullari mahalliy qarshilikni sindirishga qaratilgan edi. Bu esa imperiyaning harbiy strategiyasida zo‘ravonlik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Natijada, istilo jarayoni nisbatan “tinch integratsiya” sifatida talqin qilinishi mumkin emas. Bu xulosa Rossiya ekspansiyasining haqiqiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Sovet va postsovet tarixshunosligi vakillari E. V. Tarle va B. D. Grekovlar o‘z qarashlarida Rossiya imperiyasining kengayishini ko‘pincha “tarixiy zarurat” va “progressiv jarayon” sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv Rossiya istilosini ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘lashga urinadi. Ammo, bu konsepsiya mahalliy xalqlarning siyosiy suvereniteti

va qarshilik harakatlarini ikkinchi darajaga surib qo‘yadi. Ilmiy jihatdan qaralganda, bunday talqin kolonial zo‘ravonlikni legimitatsiyalashtirishga qaratilgan. Shu sababli, Tarle va Grekov qarashlari tarixiy manba sifatida emas, balki ideologik konstruksiya sifatida tahlil qilinishi lozim. Bu yondashuv Rossiya tarixshunosligida hukmron bo‘lgan imperiyaviy paradigmani ochib berishda muhim ahamiyatga ega.O‘zbek tarixshunosligida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati ochiq mustamlakachilik sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv mahalliy tarixiy xotiraga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Imperiya siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari bevosita mahalliy jamiyat prizmasidan tahlil qilinadi. Bu esa tarixiy jarayonlarga subyektiv emas, balki tajribaviy asosda yondashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tarixshunosligi g‘arb va sovet tarixshunosligi o‘rtasida muhim muvozanat rolini bajaradi. Bu yondashuv mintaqa tarixini xolisroq anglashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasi tarixshunoslikda turli davr va yondashuvlarga ko‘ra talqin qilingan. Imperiya va sovet davri qarashlari Rossiya ekspansiyasini oqlashga intilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlar uni mustamlakachilik siyosatining bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Ushbu qarashlarning qiyosiy tahlili mintaqa tarixini xolisona anglash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. **Birinchidan**, Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tasodifiy yoki faqat harbiy zarurat natijasi bo‘lmagan, balki uzoq muddatli imperiyaviy strategiya mahsuli sifatida amalga oshirilgan. Alexander Morrison va Edward Allworth tadqiqotlari Rossiya ekspansiyasi harbiy yurishlar bilan bir qatorda diplomatik, ma’muriy va iqtisodiy mexanizmlar orqali tizimli tarzda olib borilganini ko‘rsatadi. Bu holat Rossiya siyosatini klassik mustamlakachilik modellari bilan qiyoslash imkonini beradi va imperiya kengayishini global kolonial jarayonlarning bir qismi sifatida baholashga asos yaratadi. **Ikkinchidan**, Rossiya istilosining muvaffaqiyatli kechishida Markaziy Osiyo xonliklarining ichki siyosiy parokandaligi va institutsional zaifligi muhim omil bo‘lgan. V. V. Bartoldning ilmiy xulosalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqadagi o‘zaro nizolar, markazlashgan boshqaruv tizimining yetishmasligi va siyosiy bo‘linishlar tashqi bosqinni yengillashtirgan. Bu esa istiloni faqat tashqi bosim natijasi sifatida emas, balki ichki omillar bilan chambarchas bog‘liq murakkab tarixiy jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. **Uchinchidan**, sovet davri tarixshunosligida, xususan B. G. Gafurov asarlarida, Rossiya hukmronligi ijtimoiy-iqtisodiy

va madaniy taraqqiyot omili sifatida talqin qilingan bo‘lib, bu yondashuv mafkuraviy xarakterga ega edi. Mazkur qarashlar imperiya siyosatining ekspluatatsion mohiyatini yetarlicha ochib bermagan. Zamonaviy tarixshunoslik esa ushbu talqinlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, Rossiya hukmronligini asosan markaz manfaatlariga xizmat qilgan mustamlakachilik tizimi sifatida baholamoqda. **To‘rtinchidan**, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi harbiy amaliyotlari nisbatan “tinch integratsiya” jarayoni bo‘lmagan. Robert F. Baumann tomonidan ilgari surilgan noan’anaviy urushlar konsepsiyasi istilo jarayonida zo‘ravonlik, jazolovchi harbiy operatsiyalar va psixologik bosim muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bu holat imperiya ekspansiyasini oqlovchi qarashlarni ilmiy jihatdan rad etib, mustamlakachilikning real mexanizmlarini ochib beradi. **Beshinchidan**, zamonaviy g‘arb va mahalliy (o‘zbek) tarixshunoslik yondashuvlari Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosatini mustamlakachilik tizimi sifatida baholashda o‘zaro yaqinlashmoqda. Mahalliy tarixshunoslik bu jarayonning ijtimoiy va madaniy oqibatlarini mintaqa xalqlari tarixiy tajribasi asosida yoritib beradi. Bu esa tarixiy tadqiqotlarda manbaviylik va tanqidiy tahlilning ustuvor ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Rossiya tomonidan Turkistonni bosib olinishi masalasi maktab darsliklarida ham o‘ziga xos munosabat va talqin ifodalangan. 9 –sinf darsligida Rossiyaning O‘rta Osiyonong bosib olinishini Turkiston xalqlari uchun ijobiy voqea sifatida baholaniladi. Unda, jumladan shunday deyiladi: “..Shuni ta'kidlash kerakki, Rossiya hukumati ancha moslashuvchan siyosat olib bordi. Fath qilingan yerlarning bir qismi bevosita rus harbiy zobitlari va amaldorlari tomonidan boshqarilgan; Xiva va Buxoro o‘z hukmdorlarini saqlab qoldi, ular qattiq nazorat ostiga olindi. Rossiya hukumati, qoida tariqasida, mahalliy aholi o‘rtasidagi an'anaviy ijtimoiy munosabatlarning qo‘pol buzilishiga yo‘l qo‘ymadi, ularning madaniyati va diniy e'tiqodlariga aralashmadi va mahalliy elita bilan til topishishga va ularda o‘z siyosatini qo‘llab-quvvatlashga intildi. To‘g‘ri, O‘rta Osiyoda bir qator hollarda yirik yer egalarining aholi ustidan o‘ta o‘ta kuchli hokimiyati cheklandi. Bu hududlar Rossiyaga qo‘shib olingandan keyin ichki nizolar to‘xtadi; qon adovati asta-sekin o‘tmishga aylandi; qullik bekor qilindi. Rossiya bilan yaqin madaniy aloqalarning o‘rnatilishi O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy rivojlanishida ijobiy rol o‘ynadi”.

Markaziy Osiyo xalqining istilo davrida va mustamlakachilik boshqaruvi oqibatlarida etkazilgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, ijtimoiy zarar, milliy-diniy zulm haqida lom-lim deyilmaydi. Bu albatta, Rossianing Turkistondagi istilochilik harakatlarini oqlashga qaratilgan.

Savol va topshiriqlar:

1.Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalasi turli tarixshunoslik maktablarida qarashlar haqida gapirib bering.

2.Rossiya imperiya tarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3.Sovet davri rus tarixshunosligida yondashuvlar haqida gapirib bering.

4.Rossiya istilosining harbiy, siyosiy va ma’muriy jihatlari nimalardan iborat bo‘lgan?

12-mavzu. Sovetlar davrida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi

Darsning o‘quv maqsadi. Sovetlar davrida tarixshunosligining shakllanishi**,** 1999 yilda O‘zbekiston tarixchilari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiyasi” bilan tanishtirish va uni tahlil etish. Ushbu konsepsiya sovet davri tarixshunosligida hukmron bo‘lgan sinfiy-marksistik yondashuvdan voz kechgan holda, milliy, sivilizatsion va tarixiylik tamoyillariga asoslanganligini talabalarga tushuntirish berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Sovet davlati, SSSR, kommunistik mafkura, “sinfiy yondashuv”, sovet tarixshunosligi, millatlar tengligi, mustamlakachilik, “bosib olish”, “buyirtma tarix”, markisistik metodologiya, “farmatsion yondashuv”*.

Darsning rejasi:

1. Sovetlar davrida tarix ilmiga munosabatning shakllanishi va mohiyati.
2. Sovet tarixshunosligi shakllanishi va tadqiqot metodlari
3. Sovet tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixini yoritishdagi yondashuvlar

1917 yilda Rossiya imperiyasida monarxiya tuzumi ag‘darilib, sovet hokimiyati o‘rnatildi. Yangi hokimiyatning Markaziy Osiyo xalqlariga nisbatan siyosati mohiyati bolsheviklarning yetakchilari V. I. Lenin va I. V. Stalin asarlarida, Sovet hukumati va RKP(b) hujjatlarida, Sovet davlati ayrim arboblarining asarlarida o‘z ifodasini topgan edi. 1917 yil 3 noyabr kuni Sovet hukumatining “Rossiya xalqlarining huquqlari haqidagi deklaratsiya”si e’lon qilinadi. Mazkur hujjatda Rossiya xalqlarining teng va mustaqil ekanliklari, o‘z taqdirlarini o‘zlari erkin belgilashlari, hatto alohida ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzish huquqiga egaliklari belgilab qo‘yiladi. “Rossiya va Sharqning barcha mehnatkash musulmonlariga murojaati” e’lon qilinadi. Unda eski dunyo yemirilib borayotgani va butun dunyo mehnatkashlarining manfaatlarini ko‘zlovchi teng huquqli yangi jamiyat — sotsializm qurish boshlangani haqida so‘z boradi

1919-yilda millatlar ishlari bo‘yicha xalq komissari etib tayinlangan Stalin uchun Sharqdagi sovet hokimiyatining eng muhim vazifalari uning “qoloq xalqlarining madaniy darajasini oshirish, maktablar va ta’lim muassasalarining keng tizimini yaratish va. atrofdagi mehnatkash aholiga ona tili bo‘lgan va tushunarli bo‘lgan tilda og‘zaki va bosma sovet targ‘ibotini olib borish” edi. Bu aynan mahalliy ziyolilarning ham istagi

edi. Ular bolsheviklar tomonidan yaratilayotgan yangi institutlarga oqib kelishdi, ular mahalliy jamiyatda hech bo‘lmaganda atrofdagi mehnatkash aholi tushunadigan tilda sovet targ‘ibotini olib boradigan vakil sifatida ish olib borishdi[16].

Sovet tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixini yoritishda g‘ayriilmiy fikrlar ham mavjud bo‘lib, xususan, Sovet tarixshunosligidagi Amir Temur haqida yozilgan ayrim fikrlar tanqid qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ham sovet tarixshunosligida Amir Temur haqidagi qarashlarga o‘z munosabatini bildirib o‘tgan. Jumladan, “sovet davri kitoblarida Amir Temur askarlari Moskva atroflariga yetib borgani xususida “mo‘g‘ul-tatar qo‘shinlari Moskvani qamal qildilar”, deb yozishgan. Holbuki, Sohibqironning askarlari To‘xtamishxonni tor-mor qilib, Rusiyani mo‘g‘ul istilosidan ozod etgandan keyingina Moskva atrofida paydo bo‘lgan. Afsuski, bu haqiqat Rossiya matbuotida 1995-yildagina yozildi”[17]. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganlaridek, Rossiya tarixshunosligida Amir Temur shaxsiyati va siyosiy faoliyatini noxolis talqin etish holatlari ko‘p uchraydi. Buning asosiy sabablari sifatida rus olimlarining sharq manbalari bilan tanish bo‘lmaganligi, sovet va kommunistik mafkura asosida tarixni talqin etish kabi sabablarni keltirishimiz mumkin. Xususan, A.Fomenko va G. Nosovskiy ning “Novaya xronologiya Rusi” (“Rusning yangi yilnomasi”) nomli kitobida yozadilarki, Amir Temurning kelib chiqishi mo‘g‘ul emas, rus bo‘lgan, Mo‘g‘ul imperiyasi aslida Rus imperiyasi bo‘lgan. Mo‘g‘ul - tatarlar aslida oddiy rus kazaklari edi. Amir Temur mo‘g‘ul bo‘lsa ham aslida u rus kazaklarining harbiy qo‘mondoni, ya’ni atamani edi. Boshqa yerda esa uni “yevropalik” yoki “Yaik orti tatarlaridan” deb ataganlar. Amir Temurning poytaxti aslida Samarqand emas Samara shahri bo‘lgan[18] degan tarixiy haqiqatga ega bo‘lmagan fikrlar mavjud. Bunday o‘z tasdig‘ini topmagan fikrlar Rossiya Fanlar Akademiyasi a’zolari tomonidan aytilyotgani va ularga qarshi hech bir tarixchi javob qaytarmayotgani bu o‘ta adolatsizlik va tarixiy haqiqatni buzib talqin etisdan boshqa narsa emas. Tarixchi olim Ahmedov “Amir Temur hayoti va faoliyatiga baho berishda Karl Marks va boshqa kommunizm nazariyotchilari tayanish xato ekanligini, chunki ularning sharq tillarini bilmaganligi va shu tillardagi manbalarni o‘qishga, shuningdek, to‘la

[16] Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Nation, empire and Revolution in the Early USSR. - Cornell University, 2015. - P. 7.
[17] Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Shark nashryu T-1998. - B.21.
[18] Kamoliddin Shamshiddin. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunoslikdagi yondashuvlar. T.:2019. – B.23.

baho berishga qodir emasligini ta’kidlaydi”[19]. A. Ahmedov rus akademigi Bartoldning Amir Temur haqidagi fikrlariga to‘xtalar ekan, u “Temurning buyuk bunyodkor va ijodkor ekanligini tan olishga majbur bo‘lgan”, degan xulosaga keladi. Shuningdek, Yakubovskiyning Amir Temur 1380-yilgi Kulikovo jangida mo‘g‘ullar tumanboshi Mamayning yengilganligi haqidagi xabarlardan va shu g‘alabaga erishgan qo‘shin bilan Oka daryosi bo‘yida turgan rus knyazi Vasiliy Dmitriyevichdan qo‘rqqanligi uchun rus knyazligi hududiga kirmay ortga qaytdi, degan fikrini ham inkor etadilar va o‘z fikrlarini tarixiy manbalar yordamida asoslashga intiladilar[20]. Nikon yilnomasida aytilishicha, Temur juda katta qo‘shin bilan Ryazan yeriga bostirib kirgan va Yeles shahrini bosib olib, “Yeles knyazini qo‘lga tushirgan, odamlarni asir qilib olgan, boshqalarini esa o‘lgudek kaltaklatgan”. Bu voqeadan xabardor bo‘lgan ulug‘ knyaz Vasiliy Dmitriyevich ko‘p polklar to‘plab, Kolomna shahriga qarab yo‘lga chiqqan Oka daryosi orqali o‘tadigan kechikni egallagan. Temur ruslar bilan to‘qnashishga jur'at qilmagan va Ryazan yerini talagandan keyin, janubga qarab ketgan. Temur Kulikovo maydonida Mamay blan bo‘lgan jangni eshitib, yuragi betlamagan va shu sababdan ruslar blan jang qilishga botina olmagan bo‘lsa kerak[21]. Grekov va Yakubovskiyning mazkur ma’lumotlaridan ma’lumki ushbu xabar aniq tasdiqga ega emas. Chunki mualliflarning o‘zida ham quyidagi ma’lumotga nisbatan qaysidir ma’noda ishonchsizlik mavjud.

Shuningdek, rus tarixchilari Amir Temurning tajavuzkorlik va bosqinchilik siyosatini quyidagi ayrim ma’lumotlar bilan izohlaydi. Amir Temur Donning quyi oqimi bo‘ylab borib, u yo‘lda Azoq (Azov) shahrini bosib olmoqchi bo‘lgan. Azov shahri deyarli batamom talangan, shu blan birga Sharafiddin Ali Yazdiyning aytishicha, Temurning buyrug‘iga muvofiq, musulmonlarni boshqa odamlardan ajratilib olib, qolganlar “ Jihod qilichi” dan o‘tkazilgan[22]. Ko‘rinib turganidek, ushbu xabarni Sohibqiron tarixini mukammal yozgan tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy o‘z asarida qayd etgan. Lekin Amir Temurning bu qatlomi o‘sha davr siyosatining bir qismi bo‘lgani ham barchamiz bilamiz. Xususan, bosqinchi va mustamlakachi davlat ma’lum bir hududni egallagach bunday tajovuzkorlik qilishi tabiiy bir hol edi. Bu jarayonni bir Rus imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olish jarayonida ham ko‘rishimiz

[19] Axmedov A. Amir Temur: Uydurma va xaqiqat// Fan va turmush. T-1990. 15-16- betlar.
[20] Usmonov B. Rossiya tarixshunosligida Amir Temur siymosi// Fan nashr. T-2011. 9-bet.
[21] Grekov B., Yakubovskiy A. Oltin O‘rda va uning qulashi. T.:1956. 315-bet.
[22] Grekov B. Yakubovskiy A. Oltin O‘rda va uning qulashi. T.:1956. 315-bet.

mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgan Grekov va Yakubovskiylarning Amir Temur Moskva knyazi Vasiliy Dmitriyevich bilan jangga botina olmagan degan fikriga yana bir rus sharqshunos-tarixchisi A. Semyonov ushbu ma’lumotlarni keltiradi. 1389, 1391 va 1395 - yillardagi uchta katta yurish natijasida Temur qo‘shinlari Oltin O‘rdani tor-mor keltirdilar. Oltin O‘rdaning katta shaharlari - Saroy Berke va Astraxanni vayron qildi; 1395-yil yoz faslida Temur Rus davlatining janubiy qismiga bostirib kirdi, Yeles shahrigacha borib yetdi va Moskvaga yurish qilish uchun tahdid sola boshladi, ammo O‘rta Osiyodagi notinchlik haqidagi xabarni olgach, chekindi[23]. Semyonov ham o‘z navbatida Bartold kabi Amir Temurning tajovuzkorligini qayd etgan. Ammo u Amir Temurning bunyodkorligini va xalqning ijtomoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirish tarafdori bo‘lganligini ham aytib o‘tadi. Temur davrida Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilganligi, Movarounnahrda hunarmandchilik texnikasi ancha rivojlangan[24]. O‘zbek olimlari o‘z tadqiqotlari orqali rus sharqshunos tarixchilarining ayrim g‘ayriilmiy xulosalarini asosalab beradi. Rus tarixshunosligidagi yana bir Amir Temurni qonxo‘r va bosqinchi sifatida tasvirlash orqali mintaqa tarixida chuqur o‘rin egallagan siyosat arbobi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurushlarini bosqinchilik va tajavuzkorlik sifatida baholash ham keskin tus olgan. Aslida vaziyat qanday edi? Sovet davrida tariximizning u yoki bu sahifasi siyosiy manzarasiga murojaat qilinganda, asosan sun’iy ravishda o‘rnatilgan “O‘zbekiston SSR” chegaralari orqali mushohada etilardi. Agar tarixiy voqelik mana shu chegaradan chetga chiqqudek bo‘lsa, u holda mazkur tarixiy vaziyat o‘zga yurtlarga bosqinchilik sifatida baholanardi. Birinchidan, Xitoydan Yaqin Sharqqacha, Sharqiy Yevropadan Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududda eng qadimgi zamonlardan beri yashab kelayotgan xalqlarning o‘zaro aloqalari bog‘lanib ketgan. Ikkinchidan, Amir Temur chingiziylarning bir yarim asrlik hukmronligi yillari davomida o‘zgarish topgan va tadqiq etilayotgan yillarga kelib esa voqelikka aylangan geosiyosiy vaziyatni inkor qilolmasdi. Uchinchidan, tilga olingan ulkan hududda turkiy tilli xalqlarning mavqei baland bo‘lib kelganini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak[25]. Akademik F. I. Uspenskiy (1845-1928) fikricha, chingiziylar hukmronligi davridayoq Farg‘onadan Volgagacha bo‘lgan

[23] Semyonov V. F. Istoriya srednix vekov// Tarjimon: Karimova L. Valiyev V. Fazilov I. O’qituvchi nashr. T-1973. 389-bet.
[24] O’sha asar. 391-bet.
[25] Azamat Ziyo. Úzbek davlatchilik tarixi. T.: 2001. 161-bet.

hududda yashovchi “toza turklar” xorazmshohlar davridagi saltanatning o‘rnida o‘z “milliy buyuk davlatlarini” barpo etishga kirishganlar. Shu bilan birga, Turkistonning bu millatchilari Chingizxon yosoqlari o‘rnida musulmon asoslari, shariat qonunlarini tiklashni xohlagandilar. Keyingi XIV asrning oxirgi choragida buyuk Temur ham xuddi shu vazifani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi[26].

Xulosa qilganda**,** Rossiya tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixi yoritilishi nisbatan murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, turli qarash va yondashuvlar asosida yaratilgan desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki rus imperiyasi davrida mintaqa tarixi ko‘proq siyosiy va iqtisodiy tomonlama tadqiq etildi. Rus imperiyasi tomonidan mintaqah xalqlarini “ botqoqlik” dan olib chiqish uchun “sivilizatsion missiya” tashkil etilib, yerli “ko‘chmanchi qoloq xalqqa madaniyat ulashilgan”ini iddao etishadi.

Sovet tarixshunosligi “sovet mafkurasi”, “partiya g‘oyalari” asosida Markaziy Osiyo tarixiga yoritilgan. Postsovet davrida Rossiya tarixshunosligida metodologik plyuralizm kuchayib, ko‘p millatli imperiya, postkolonial va mikrotarix yondashuvlari asosida Markaziy Osiyo tarixini qayta baholash imkonini berdi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo hududlariga nisbatan amalga oshirgan bosqinchilik siyosati go‘yaki rus tarixshunosligida bosib olish emas, aksincha “qo‘shib olish “siyosati sifatida tahlil qilinishi hech qanday haqiqatga ega mos kelmydi. Chunki, Markaziy Osiyo hududlari hisoblangan Qozoq juzlari hududlari, O‘rta Osiyo uch xonliklari va turkman xalqiga qarashli hududlarni hech qanday qarshiliksiz egallay olmagan, balki katta qiyinchilikka duchor bo‘lgan. Xususan, Toshkentni egallash jarayonida rus generali Chernyayev katta talofatlar olgan va chekingan yoki Xiva xonligiga qilingan hujum jarayonidagi qattiq qarshilik tufayli Veryovkin yaralanganini eslash, kifoyadir. Bu kabi holatlarni mintaqaning istalgan hududi bosib olish jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Demak, rus tarixshunosligidagi “qo‘shib olish” siyosati emas, “bosib olish” siyosati ishlatilishi ilmiy haqiqat uchun to‘g‘ri bo‘ladi. Rossiya tarixshunosligida, shuningdek, Amir Temur obraziga nisbatan ham o‘ta g‘arazli va ilmiy haqiqatga ega bo‘lmagan ma’lumotlar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz.

Bu jarayonni bir tomondan mustamlakachilik asorati sifatida qarasak, boshqa tomondan sovet mafkurasi, marksizm ya’ni tarixni bir yoqlama yoritish hisoblangan formatsion yondashuv asosida deb tushunish kerak. Umuman olganda, Rossiya tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixining

[26] Uspenskiy F. I. Istoriya Vizantiyskoy imperii. T. III, 1948., - S. 589.

yoritilishi tarixiy haqiqatni to‘liq anglash uchun turli konsepsiyalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur mavzu doirasidagi tadqiqotlar Markaziy Osiyo tarixini faqat tashqi siyosiy jarayonlar kontekstida emas, balki ichki ijtimoiy-diniy, madaniy va iqtisodiy omillar uyg‘unligida o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Bu esa mintaqa tarixshunosligini yanada xolis va ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi

Sovet davri tadqiqotlarida Rossiya imperiyasining Turkistonda o‘rnatgan tuzum “zulm va istibdodga asoslangan mustamlakachilik tartiboti” ekanligi ta’kidlanib, “Sharqning mustamlaka xalqlari va ezilgan millatlari”ga nisbatan olib borilgan siyosati keskin qoralangan. Bolsheviklarning asosiy mafkuraviy qarashlari bayon etilgan kommunistik partiya tarixida Rossiya imperiyasi “xalqlar qamoqxonasi… rus bo‘lmagan xalqlarning jallodi va jazolovchisi vazifasini bajardi”, degan fikrni berib, Sovet hokimiyati esa, Rossiya imperiyasidan farqli o‘laroq, Markaziy Osiyo xalqlariga erkinlik va ozodlik olib keldi, oktabr inqilobi tufayli milliy zulm zanjirlari uzildi, Rossiya xalqlari o‘rtasidagi nizolarga chek qo‘yilib, haqiqiy birodarlik va do‘stlik munosabatlari o‘rnatildi. Sovet davri tadqiqotlarida sharq xalqlari “ulug‘ rus” xalqi rahnamoligida erishgan olamshumul yutuqlarni tashviq etish va targ‘ib qilishga xizmat qiluvchi nuqtai nazar ustunlik qiladi. Bunda Rossiya imperiyasi davrida huquqsiz, ezilgan O‘rta Osiyo xalqlarini mustabid xonliklar va imperialistik sirtmoq bo‘lmish Chor Rossiyasi zulmidan “abadul-abad” qutqargan bolsheviklarning, sovet davlatining “jahonshumul” roli to‘g‘risidagi g‘oya sovet davri “tadqiqotchilar”ning asarlariga asos qilib qilib olingan edi.

1917 va undan keyingi yillarda yuz bergan tarixiy voqealar - go‘yoki Sharq xalqlarining o‘z kelajagini “erkin qurish” yo‘lida amalga oshirgan “inqilobi” sifatida, sovet qo‘shinlarining Turkistondagi harakatlarini “baynalmilal, beg‘araz yordam, Oktabr inqilobining qonuniy davomi” sifatida yoritilgan.

Aslida bunday yondashuv Sovet Rossiyasining asl maqsadlarini yashirish uchun o‘ylab topilgan edi.mustamlakachilikning shakli o‘zgarib, mohiyat eskicha qoldirildi. Avval boshida Sharq xalqlarining “o‘z taqdirlarini o‘zi belgilash”, “millatlar tengligi”, “ezilgan xalqlarning erkinligi va ozodligi” kabi balandparvoz g‘oyalarni bayroq qilib olgan sovetlar tez orada “jahon inqilobi”, “qoloq xalqlarni taraqqiyotga olib chiqishning “nokapitalistik yo‘li”, ya’ni “feodalizmdan sotsializmga kapitalizmni chetlab o‘tish”, “ulug‘ og‘amiz, ilg‘or rus ishchilari

rahnamoligida barcha uchun tenglik jamiyatini qurish” singari soxta tarixiy konsepsiyalari dastlab RSFSR, keyinchalik SSSR ning nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, balki XX asr davomida jahon tarixini o‘rganishda asos sifatida xizmat qildi va sovet tarixshunosligining rivojlanishini belgilab berdi. Mazkur qarashlar, kommunistik mafkuraning targ‘ibotchilari hisoblangan sovet tarixchilarining deyarli barcha tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Bunday tashqi siyosat asoslariga qurilgan davlat va jamiyatning taqdiri qanday yakun topganligini biz yaxshi bilamiz.

Sovet tarixchilari dastlab Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo xonliklariga yurishlarini ijobiy baholab, hech qanday zo‘ravonlik va bosqinchilik bo‘lmagan, balki bu hududlar mintaqa aholisining iltimosiga ko‘ra Rossiya imperiyasiga “qo‘shib olingan” degan g‘oya asosiga qurilgan edi. 1960-1980-yillarda chop etila boshlangan tarixiy tadqiqotlarda ushbu pozitsiya o‘zgarib, ularda sovet hokimiyati davrida sharq xalqlari “ulug‘ rus” xalqi rahnamoligida erishgan olamshumul yutuqlarni tashviqot-targ‘ibot qilishga xizmat qiluvchi nuqtayi nazar ustunlik qiladi. Bunda Rossiya imperiyasi davrida huquqsiz, ezilgan O‘rta Osiyo xalqlarini mustabid xonlik va imperialistik sirtmoq hisoblangan Chor Rossiyasi zulmidan “qutqargan” bolsheviklarning, sovet davlatining “jahonshumul” roli to‘g‘risidagi g‘oya “tadqiqotchilar”ning asarlariga asos qilib olingan edi. O‘rta Osiyoda XX asrning boshlarida ro‘y bergan tarixiy jarayonlarni, “ezilgan”, “erksiz”, “huquqsiz” sharq xalqlarining, “yangi sosialistik jamiyat” qurish uchun intilishi deb baholandi. 1917-yildan keyingi tarixiy voqealarning go‘yo Sharq xalqlarining, Turkiston xalqining o‘z kelajagini “erkin qurish” yo‘lida amalga oshirgan “inqilobi” sifatida, oktabr inqilobining qonuniy davomi sifatida ifodalanishi bu tadqiqotlarning asosiy g‘oyasi bo‘lib, mazkur qarashlar yuqoridan belgilab berilgan andoza asosiga qurilgan. Bunday qarash “buyirtma tarix” sigatida talqin qilinadi.

Totalitar tuzum sharoitidagi keskin tartiblar, mafkuraviy aqidalar, qattiq senzura talablari tarix fanida bunday uydirmalarning mustahkam o‘rnashuvini ta’minlab turgan asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Eng asosiysi, Rossiyaning bunda siyosatini, insoniyat tarixida shu paytgacha bo‘lmagan, mutlaqo yangi qarashlar negizida, ya’ni “do‘stlik”, “beg‘arazlik”, “ixtiyoriylik” kabi tamoyillar asosida olib borilgan degan soxta nazariyalar ustiga qurilgan edi.

Guyo, Turkiston, Buxoro va Xorazm xalqlari qisqa tarixiy davrda Rossiyaning mustamlakasi bo‘lgan qoloq feodal xonliklari qanday qilib

kommunistik partiya boshchiligida o‘zlarining qoloqliklarini tugatib, gullayotgan sotsialistik respublikalarga aylanganligini “ko‘rsatib berishgan. Deyarli barcha tadqiqotlarda Turkiston jadidlari «burjua millatchilari», «ezuvchi, birovlar hisobiga yashovchi parazit boy tabaqalarning malaylari», «chet el imperialistlarining josuslari» degan asossiz ayblovlar bilan qoralangan. Jadidlar, sovet tarixchilari nazarida imperialistik davlatlar tomonidan ma’naviy, moddiy yordam olib turdilar. O‘zlarining tor sinfiy tabaqalari manfaatlariga xizmat qilib, aksilinqilobiy harakatlarni uyushtirdilar. Sovet hokimiyatini zo‘rlik bilan ag‘darib, o‘z xalqiga xiyonat qildilar, sotqinlik yo‘lidan bordilar. Vaholinki, jadidlar Turkistonda sovet hokimiyatini o‘rnatish maqsadlarini emas, milliy - demokratik tuzumini o‘rnatishni asosiy vazifa qilib belgilagan edilar.

Yuqorida qayd qilingan tadqiqotlarda esa bu muammolar bir tomonlama mafkuraviy andozada yoritib kelingan. Mazkur tadqiqotlarda o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid boy faktlar, statistik materiallar bir qadar ilmiy ahamiyat kasb etsa-da, ularning g‘oyaviy va ilmiy asoslari ushbu tarixiy jarayonlarni mutlaqo noto‘g‘ri talqin etadi.

Mashhur rus tarixchisi E. V. Tarle ta’kidlaganidek, "Sovet tarixshunosligi birinchi navbatda sinfiy manfaatlar asosida tarixni anglashga harakat qiladi". Akademik Ahmadali Asqarov sovet davriga tarixni yoritilishidagi yondashuvni haqida shunday fikr bildiradi “Sho‘rolar tuzumi hukmron bo‘lgan yillarda tarix kitoblari bir tomonlama, millatimiz hamda ruhimizga yot bo‘lgan marksizm-leninizm deb atalmish g‘oya ta'sirida yozildi. Yuz bergan voqea va hodisalar biryoqlama yoritildi, buyuk olimlarimiz, ma'rifatparvar bobokalonlarimizning peshonasiga «dinparast», «teskarichi», «bid'atchi» degan tamg‘alar bosildi; qadriyatlarimiz, boy va bemisl ma'naviyatimiz «erga urildi»; be-baho kitoblarimiz diniy yoki xonlar, podsholar saroyida yozilgan kitoblar deb qoralandi, ulug‘ o‘tmishimiz haqida ozmi ko‘pmi fikr yuritmoqchi bo‘lganlar e'tiborda bo‘lmadi, ular bilan hech kim hisoblashmadi.”

“SSSR tarixi” kabi darslik va asarlarda ittifoqdosh respublikalar davlatchiligi ko‘pincha yuzaki bayon etilgan, ya'ni ular davlatchilikning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, davlat tuzilmalari tipologiyasi, davlat xizmatlari va institutlari haqidagi ma'lumotlar keltirilmasdan, u yoki bu davlatning mavjuddigini tasdiqdash shaklidagina yoritilgan, xolos. Agar sovet davri mafkurasini tahlil qiladigan bo‘lsak, sovet davrida Markaziy Osiyoning tarixi yoritish mafkuraviy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy haqiqatdan ko‘ra sinfiy yondashuv va mustamlakachilik

g‘oyasi ustuvor bo‘lgan. Sovet tarixshunosligi marksistik-leninchilik metodologiyaga tayangan. Bu metodga ko‘ra tarix sinfiy kurash prizmasida talqin qilinadi. Markazlashgan davlatlar va kuchli shaxslar “ekspluatator sinf vakillari” sifatida baholanadi. Shu sababli Markaziy Osiyoning deyarli barcha hukmdorlari feodal hukmdor,bosqinchi, reaksion shaxs sifatida tasvirlangan. Bunday qarash, hatto, ilm-fan, madaniyat vakillariga nisbatan ham qo‘llanilgan. Shuning uchun ham sovet tarixshunosligi zamonaviy tarix fanida o‘z o‘rnini topaolmadi. Fan sifatida inkor qilindi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sovet tarixshunosligi alohida fan sifatida qachon va qanday vujudga keldi?
2. Tarixni o‘rganishning markisistik metodologiyasining mohiyati nimada?
3. Sovet tarixshunosligida qo‘llanilgan “sinfiy” yondashuv haqida gapirib bering.
4. ”Buyirtma tarix” qanday tarixiy yondashuv?
5. “Formatsion yondashuv” qanday asoslarga ega? va bu ilmiy jihatdan qanchalik to‘g‘ri?

13-mavzu. Rossiya tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixi

Darsning o‘quv maqsadi: Rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan Markaziy Osyio tarixini o‘rganilishi, yoritilishini, Turkistonning bosib olinishi, va boshqa masalalar rus tarixchilari tarixshunoslik maktablari qarashlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rus imperiya tarixshunosligi yondashuvlari hamda zamonaviy tarixchilari qarashlari qiyosiy usulda o‘rganiladi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Markaziy Osiyo, Turkiston, Rossiya imperiyasi, istilo, tadqiqotchi, mustamlakachilik, tarixshunoslik, “ qo‘shib olish”, “ma’rifiy missiya”, sovet davri tsrixshunosligi, “buyirtma tarix”.

Darsning rejasi:

1. Rossiya imperiyasi davri tarixshunosligi (1917-yilgacha);
2. Rossiya (sovet) davri tarixshunosligi (1917-1991yy);
3. Hozirgi davr rus tarixshunosligi (1991-yildan keyin).

Rossianing Markaziy Osiyo bilan aloqalari tarixi VI-IX asrlarga borib taqaladi. Oltin O‘rda xonligi davrida yanada kuchaygan. Ammo, muntazam aloqalar XVI asrdan boshlangan. Shu davrdan mintaqamiz ruslar tomonidan batafsil o‘rganishga kirishganlar. Bu davrda yaratilgan asarlar “Sayohatnoma”lar janrida bo‘lib, masus tadqiqotlar bo‘lmagan. 1558-yilda O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan elchi Antoniy Jenkinson “Sankt-Peterburgdan Baqtriya(Buxoro)gacha sayohat” nomli asari birinchi yirik asar bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga qarab kengayishi mintaqa tarixida tub burilish yasadi.Morrisonning ushbu davrni imperiyaviy kengayishning muhim bosqichi sifatida belgilashi Rossiya siyosatining tasodifiy emasligini ko‘rsatadi. Bu jarayon Markaziy Osiyoni Rossiya tashqi siyosatining strategik hududiga aylantirgan. Aynan shu bosqichdan boshlab mintaqa mustaqil siyosiy subyekt emas, balki imperiya manfaatlari doirasida qaralgan. Shuningdek, bu holat keyinchalik ma’muriy va harbiy boshqaruv tizimlarining joriy etilishiga zamin yaratgan. Demak, istilo mintaqa tarixidagi faqat harbiy emas, balki siyosiy burilish nuqtasi sifatida baholanishi lozim. Ushbu jarayon tarixshunoslikda turlicha talqin qilinib, imperiya davrida u “sivilizatsion missiya” sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, sovet davrida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan izohlandi[27]. Gafurovning yondashuvi Rossiya istilosini iqtisodiy va madaniy integratsiya kontekstida baholaydi.

[27] Гафуров Б. Таджики. – Москва. 1989. – С.100.

Zamonaviy G‘arb tarixshunosligida esa Rossiyaning istilichilik ekspansiyasi klassik mustamlakachilik siyosatining bir ko‘rinishi sifatida baholanadi[28]. Allworthning fikricha, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo egallishi va hukmronligi kolonial boshqaruv modeli sifatida ifodalanadi. Bu qarash mintaqaning siyosiy va iqtisodiy resurslarini markaziy nazorat ostiga olish strategiyasini aniq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimi qanday cheklanganini ko‘rib chiqish, imperiya siyosatining natijalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Allworthning ushbu yondashuvi Rossiya siyosatini global kolonial tizimlar bilan qiyoslash imkonini beradi. Bu nuqtai nazar Rossiya imperiyasini Yevropa mustamlakachi davlatlari bilan bir qatorda ko‘rib chiqadi. Natijada, Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar mustamlakachilik nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Bu yondashuv mintaqa tarixini ideallashtirishdan xoli, tanqidiy asosda o‘rganishga imkon beradi. Shu bois zamonaviy g‘arb tarixshunosligi ilmiy jihatdan muhim metodologik burilish hisoblanadi.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi harbiy yurishlari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, “Buyuk o‘yin” (“Great Game”) kontekstida shakllangan[29]. Alexander Morrison Rossiya harbiy yurishlarini faqat agressiv siyosat sifatida emas, balki imperiyaning janubiy chegaralarini himoyalashga qaratilgan strategiya sifatida ham talqin qiladi[30]. Mazkur yondashuv Rossiya siyosatini o‘zini oqlovchi diskurs orqali tushuntirishga urinadi. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, “mudofaa zarurati” tushunchasi ko‘pincha imperiyalar tomonidan kengayishni legitimlashtirish uchun ishlatilgan. Markaziy Osiyo hududida barqaror tashqi tahdid mavjud bo‘lmagan sharoitda Rossiyaning chuqur hududiy ekspansiyasi ushbu tezisning nisbiyligini ko‘rsatadi. Demak, bu yondashuvni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki imperiyaviy ideologiyaning bir ko‘rinishi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan, Morrisonning tahlili imperiya tafakkurini tushunishda muhim, ammo tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Morrison tomonidan “Buyuk o‘yin” doirasida talqin qilingan bu jarayon Rossiya istilosining xalqaro siyosat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi geostrategik raqobat maydoniga aylangan. Bu esa mintaqaga nisbatan qarorlarning faqat mahalliy

[28] Allworth E. *Central Asia: One Hundred Thirty Years of Russian Dominance*. – Durham, 1967. – 55.
[29] Morrison A. *The Russian Conquest of Central Asia*. – Cambridge, 2020. – P. 50p.
[30] Morrison A. *Russia’s Great Game*. – London, 2017. – 11.

sharoitdan kelib chiqib emas, balki global siyosiy manfaatlar asosida qabul qilinganini anglatadi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari yirik geosiyosiy o‘yin qurboniga aylangan. Ushbu holat istiloning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Morrison Rossiya imperiasining istilosini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan harbiy-siyosiy strategik harakat sifatida talqin qilib, harbiy kuch bilan bir qatorda diplomatik va ma’muriy vositalar muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[31]. Harbiy yurishlar ma’muriy islohotlar va diplomatik bosim bilan uyg‘un holda olib borilgan. Shu orqali Rossiya muddatda mintaqani nazorat ostiga olgan. Bu yondashuv imperiyaning faqat zo‘ravonlikka tayanmaganini, balki siyosiy moslashuvchanlikni ham namoyon etadi. Natijada, istilo jarayoni tizimli boshqaruv modeliga asoslanganligini ko‘ramiz.

Bartoldning fikricha, Markaziy Osiyo xonliklarining ichki siyosiy parokandaligi Rossiya harbiy ustunligini ta’minlagan omillardan biri bo‘lgan[32]. Bartold bu yerda tashqi bosqinni ichki omillar bilan bog‘laydi. Xonliklar o‘rtasidagi nizolar va markazlashgan davlat tizimining yo‘qligi Rossiya uchun qulay sharoit yaratgan. Bu holat istiloni faqat tashqi bosqin sifatida emas, balki ichki zaifliklar natijasi sifatida ham ko‘rsatadi. Shu sababli, mintaqa tarixini o‘rganishda ichki siyosiy strukturalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bartoldning yondashuvi shu jihatdan ilmiy asosli hisoblanadi.Sovet tarixshunosligida esa, xususan Gafurov asarlarida Rossiya hukmronligi mintaqani iqtisodiy va madaniy jihatdan integratsiyalash jarayoni sifatida talqin qilinadi[33]. Bu talqin sovet mafkurasining ta’siri ostida shakllangan. Rossiya hukmronligi natijasida Turkistonda yuz bergan o‘zgarishlar ijobiy voqeya sifatida talqin qilinadi. Biroq bunday yondashuv mahalliy aholi manfaatlari va mustamlakachilikning asl mohiyatini yetarlicha ochib bermaydi. Zamonaviy tarixshunoslikda mazkur yondoshuvlar tanqidiy qayta baholanadi.

Edward Allworth va zamonaviy G‘arb tarixchilari Rossiyaning Turkistonda hukmronligini klassik kolonial boshqaruv modeli sifatida baholaydi. Ularning fikricha, istilodan keying davrda mahalliy boshqaruv tizimlari cheklangan, iqtisodiy resurslar markaz manfaatlariga bo‘ysundirilgan. Allworthning qarashlari Rossiya imperiyasining mustamlakachilik mohiyatini ochib beradi. Mahalliy siyosiy

[31] Morrison A. *Russia’s Great Game*. – London, 2017. – P. 11.
[32] Bartold V.V. *Four Studies on the History of Central Asia*. – Leiden, 1962.– P. 50
[33] Гафуров Б. Таджики. – Москва, 1989. – P. 100.

institutlarning cheklanishi va iqtisodiy resurslarning markazga bo‘ysundirilishi bu siyosatning asosiy belgilaridir. Bu holat Markaziy Osiyoning uzoq muddatli rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli, bu yondashuv ilmiy jihatdan muhim va asosli hisoblanadi. Edward Allworth Rossiya hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda mahalliy ijtimoiy tuzilmalarning tubdan o‘zgarganini qayd etadi. Rossiya ma’muriy islohotlari natijasida an’anaviy hokimiyat institutlari zaiflashtirilgan. Bu jarayon qisqa muddatda markaziy nazoratni mustahkamlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatda ijtimoiy beqarorlikka olib kelgan. Mahalliy elitalarning siyosiy chetlashtirilishi ijtimoiy uzilishlarni kuchaytirgan. Shu nuqtai nazardan, Rossiya hukmronligi mintaqaning ichki ijtimoiy muvozanatini izdan chiqargan. Bu esa keyingi davrdagi milliy harakatlarning shakllanishiga zamin yaratgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Robert F. Baumann Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi harbiy amaliyotlarini noan’anaviy urush usullari bilan izohlab, bu jarayonning zo‘ravonlik darajasini ochib beradi[34]. Baumannning tadqiqoti Rossiya istilosining harbiy jihatini yanada chuqurroq ochadi. Noan’anaviy urush usullari mahalliy qarshilikni sindirishga qaratilgan edi. Bu esa imperiyaning harbiy strategiyasida zo‘ravonlik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Natijada, istilo jarayonini nisbatan “tinch integratsiya” sifatida, y‘ani mintaqani “ixtiyoriy qo‘shib olinishi” sifatida talqin qilinishi mumkin emas.

Sovet va postsovet tarixshunosligida E. V. Tarle va B. D. Grekov qarashlari Rossiya imperiyasning Markaziy Osiyoga nisbatan istilochilik yurishlarini va o‘z hududlarini kengayish siyosatini ko‘pincha “tarixiy zarurat” va “progressiv jarayon” sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv Rossiya istilosini ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘lashga urinadi. Ammo bu konsepsiya mahalliy xalqlarning siyosiy suvereniteti va qarshilik harakatlarini ahamiyatini pasaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy jihatdan qaralganda, bunday talqin kolonial zo‘ravonlikni normallashtiradi. Shu sababli, Tarle va Grekov qarashlarini tarixiy tahlil sifatida emas, balki mafkuraviy konstruksiya sifatida tahlil qilinishi lozim. Bu yondashuv Rossiya tarixshunosligida hukmron bo‘lgan imperiyaviy paradigmani ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning mustaqillik davri tarixshunosligida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati ochiq mustamlakachilik

[34] Baumann R.F. *Russian-Soviet Unconventional Wars in the Caucasus, Central Asia, and Afghanistan*. Washington, 2004, 49–77-p.

siyosati sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv mahalliy tarixiy xotiraga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Imperiya siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari bevosita mahalliy jamiyat prizmasidan tahlil qilinadi. Bu esa istilo va uning oqibatlari sifatida mintaqada ro‘y bergan tarixiy jarayonlarga subyektiv emas, balki ob‘ektiv jarayon asosida yondashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tarixshunosligi g‘arb va sovet tarixshunosligi o‘rtasida muhim muvozanat rolini bajaradi. Bunday yondashuv mintaqa tarixini xolisroq anglashga xizmat qiladi.

Rossiya imperiyasi davridan Turkiston tarixini ilmiy nuqtai nazaridan o‘rganilib, ilk tarixiy asarlar bitilgan. Yevropa tarixiy maktablari ta’sirida yozilgan tarixiy asarlarda “Yevrosentrizm”, “Ulug‘ davlatchilik”, “Shovinizm” Rossiya va rus xalqlarining Osiyo xalqlariga nisbatan “sivilizatorlik missiyasi” konsepsiyalari kabi ustuvor g‘oyalar ushbu tadqiqotlarda ustun munosabat bo‘lgan. Bunday qarashlar nafaqat Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet davlati tomonidan butun XVIII - XIX va XX asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Ko‘pgina rus tadqiqotchilari, ayniqsa, harbiylari Rossiyaning Turkiston xonliklariga nisbatan bosqinchilik yurishlarini “qahramonlik”, “ma’rifiy missiya”, “sivilizatsiya” olib kelgan harakat degan qarashlar qamrab olganligi bejizga emas. Ular, O‘rta Osiyo xalqlarini esa: “...Xalqaro huquqning elementar qoidalarini bilmaydigan nodonlar,”- deb yozib qoldirishgan. Eng katta izlanishlar XVIII-XIX asrlarda kuchaydi. Buyuk ipak yo‘lining inqirozi, jahon savdosining dengizga chiqishi, Turkistonning janubida joylashgan mamlakatlardagi beqarorlik va nizolar, Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarining Rossiya bilan aloqalarini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Yevropa ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatlasha olmayotganligi, mahsulotlarini sotishga bo‘lgan kuchli ehtiyoji sababli Rossiya Markaziy Osiyo hududiga kirib kela boshladi. Rus tadqiqotchilari, sayohatchilari, elchilari va harbiylarining asarlarida yorqin dalil sifatida ko’rishimiz mumkin. Turkiston o‘lkasini harbiy strategik jihatdan o‘rganish, o‘zaro manfaatli savdo-sotiq aloqalarni o‘rnatish maqsadida mintaqaga tashrif buyurgan elchilar, maxsus vakillar, asosan, rus harbiy doiralariga tegishli mutaxassislar bo‘lib, keyinchalik ular o‘zlarining izlanishlarini, esdaliklarini kitob sifatida nashr qildirishgan. N. Muravyov, V. Dolinskiy, M. A.Terentyev, A.Fedchenko, D. N.Lagafet, V. Labochevskiy singari tadqiqotchilarning asarlarini kiritish mumkin.

Ular missiya ishtirokchilari, elchilik bahonasida, Turkiston o‘lkasiga, boradigan yo‘llarni, mintaqa tabiatini, landshaftini, oziq-ovqat va suv ta’minoti imkoniyatlarini, qishloqlar, shaharlar, qa’lalarning strategik joylashuvi va ularning mudofaalanish usullari, mahalliy xonliklarning qo‘shin tuzilishi va qurollanishi darajasi, aholining turmushi, mashg‘ulotlari, jangovarlik qobiliyati, tabiiy resurslari haqida batafsil ma’lumotlar to‘plashgan. General M. A.Terentyev “O‘rta Osiyoning istilo qilinishi tarixi” (1906-y) nomli juda katta hajmli monografik tadqiqoti jami to‘rtta jilddan iborat bo‘lgan.

Markaziy Osiyoni o‘rganish dunyo sharqshunosligida chuqur ildiz otgan. Chunki Markaziy Osiyo jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Rossiya tarixshunosligida ham Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish Rus imperiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli juda muhim hisoblangan. Shu tufayli Markaziy Osiyo xonliklarini o‘rganish uchun Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab elchi va sayyohlar mintaqaga yuborilgan. Mazkur elchi va sayyohlar asosiy vazifasi mintaqa tarixini o‘rganish, xonliklar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni tadqiq etish, aholi demografiyasini o‘rganish va boshqa bir qator siyosiy maqsadlarni amalga oshirish edi. Rus tadqiqotchilari aynan shu yo‘nalishlarda mintaqani ilmiy jihatdan ham o‘rganganligini ko‘rish mumkin.

Rossiya tarixshunosligida Markaziy Osiyo mintaqasi tarixini o‘rganish va yoritish turli tariziy davrlarda siyosiy yondashuvlar asosida o‘zgarib borgan, ammo, asosan mustamlakachilik siyosati uchun xizmat qilgan. Dastlabki Rus tarixshunoligida mintaqa tarixi yoritilishi mustmlakachilik nuqtai nazaridan bo‘lgan bo‘lsa, hokimiyatda sovetlar hokimiyati o‘rnatilgach, mintaqa tarixi sovet mafkurasi va partiya tamoyillari asosida “Buyirtma tarix” tamoyili asosida yoritilgan. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga qilingan bosqinchiligi Rossiya hamjamiyati tomonidan o‘sha paytda “qoloq” xalqlarga va “chekka” hududlarga “madaniyat va ma‘rifat sifatida” ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Rossiyaning bosqinchilik siyosatini imperator amaldorlari va matbuoti tomonidan Rossiyaning ma‘rifiy ustunligi va Markaziy Osiyoning tarixiy taraqqiyatdan “ qoloqligi” nuqtai nazaridan bayon qilishgan. 1864-yilda Rossiya tashqi ishlar vaziri A. M. Gorchakov Markaziy Osiyo xalqlarini: “… ijtimoiy tashkilotga ega bo‘lmagan yarim vahshiy va ko‘chib yuruvchi etnik guruhlar bilan aloqada bo‘lgan” xalq sifatida ta'riflagan.Ammo, Rossiyaning Markaziy Osiyoga bosqinchiligini uning o‘zining geosiyosiy-iqtisodiy manfatlarga

asoslangan jarayon bo‘lganligi barchamizga ma’lum. Shunung uchun ham Rossiya imperiyasi davri asarlarida Rus imperiyasining Turkistonga bosqinini “madaniyatdan qoloq va yovvoyi xalqlarga madaniyat olib kelish”, “johillik va qoloqlik zulmatida kezib yurgan xalqlarga yordam berishga” qaratilgan “oliyjanob maqsad” sifatida ta’riflanib kelingan. Bu holat tariximizni soxtalashtirishdan boshqa narsa emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Rossiyaning Markaziy Osiyoga qiziqishlari sabablari haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixini yoritishda qanday usul va yondashuvlarni qo‘llashadi?
3. Rossiya imperiyasi va sovet davridagi tarixshunosligi mintaqa tarixini yoritishda qanday farqlar bor?
4. Hozirgi davrda Rossiya tarixshunosligi Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi haqida gapirib bering!

14-mavzu. Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng qadimgi davrlarda yashagan aholi haqida ilmiy ma’lumot berish. Arxeologik madaniyatlar, moddiy madaniyat yodgorliklari va ularning ilmiy talqinlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Anov, Kaltaminor, Hisor madaniyatlari, dravid tili, urol-oltoy tillari, ugor tillari, yenisey tillari.*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisi haqida ilmiy ma’lumotlar.
2. Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisi yashagan hududlar haqida ma’lumotlar.

Markaziy Osiyo dunyodagi ibtidoiy odam yashagan eng qadimgi mintaqalardan biri hisoblanadi. Insoniyat yer yuzida qachon paydo bo‘lganligi muammosi keskin bahslarga va tez-tez o‘zgarib turuvchi taxminlarga sabab bo‘lmoqda. Yaqin yillargacha Markaziy Osiyo hududida insoniyat 80-100 ming yillik tarixga ega deb hisoblanardi. Biroq, keyingi yillardagi tadqiqotlar Markaziy Osiyo hududining insoniyat ilk ajdodlari yashagan mintaqalar qatoriga kirishini ko‘rsatmoqda. 1980 yillarda o‘zbek olimlari Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur g‘orida olib borgan izlanishlari natijasida insonlar bu yerda Ashel davrida yashaganlar degan fikrga keldilar. Mutaxassislar fikricha, Ashel davri yodgorliklari jumlasiga Ko‘lbuloq, Qoratov 1, Loxutiy 1 va Unarcha yodgorliklari ham kiradi. Ashel davri bundan bir million yil oldin boshlanib, miloddan avvalgi 200-100 ming yillargacha davom etgan. Bu davr odamlari asosan g‘orlarda hayot kechirishgan va ilk bor shu davrda olovdan foydalanishni boshlaganlar. Bu kashfiyot odamlarga Ashel davrining so‘nggida ayniqsa juda yordam bergan.

Markaziy Osiyoda paleolit davrining o‘rta bosqichi o’rta paleolitda neandertal odam paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyoda o‘rta paleolitga oid yodgorliklar ellikdan ortiq joyda topilgan. Fan olamida, ayniqsa Teshiktosh, Obirahmat, Omonquton, Uchtut, Qorabura, Tossar, Georgiy do‘ngligi kabi yodgorliklar juda mashhur. O‘zbekiston hududida joydashgan Teshiktosh yodgorligi nafaqat Markaziy Osiyoda balki, jahonning shu davri yodgorliklari ichida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yodgorlikni o‘rganish o‘sha davr kishilari hayotida ovchilik muhim o‘rin egallaganligini va ularda diniy tasavvurlar shakllana boshlaganini ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda 35-40 ming yil burun paleolit davrining yuqori bosqichi boshlanadi. Yuqori paleolitning eng muhim xususiyati – hozirgi tipdagi odam

“xoma sapiens” (“aqlli”, “ongli odam”)ning shakllanganligidir. Mutaxassislar fikricha, aynan shu davrda irqlar paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyoda yuqori paleolit davriga oid 30 dan ortiq yodgorliklar o‘rganilgan. Inson ilk bora nayza, sanchqi (garpun) kabi ov qurollarini o‘zlashtirgan. Umuman, bu davr mehnat qurollari asosan toshdan, daraxt va suyakdan yasalgan. Chopper – eng muhim mehnat quroli bo‘lib, undan daraxtlarning shoxlarini kesish va hayvonlarni o‘ldirishda foydalanilgan. Yuqori paleolit davrining birinchi noyob yodgorligi 1939 yilda geolog olim N. G.Xarlamov tomonidan Samarqand shahri hududidan o‘tgan qadimgi Siyobcha soyi yoqasidan topilgan. Bu makonda uzoq yillar davomida Samarqand davlat universiteti dotsenti D. I. Lev va uning shogirdi, professor M. Juraqulovlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Tadqiqotlar natijasi o‘laroq juda ko‘p arxeologik ashyoviy dalillar, ya’ni hayvon suyaklari qoldiqlari, odam skeletiga doir materiallar topilgan. Manzilgohni o‘rganish davomida chaylasimon kulba izlari va uning markazidan kul qatlami bilan o‘choq qoldig‘i qazib olingan. So‘nggi paleolit davrida xo‘jalik va madaniyat texnikasining alohida o‘ziga xos xususiyatlari paydo bo‘ldi. Sobiq ittifoq hududida so‘nggi paleolitga oid xususiyatlariga qarab bir biridan farq qiluvchi uchta katta mintaqani ko‘rish mumkin. Bular Rus tekisligi, Sibir hamda janubiy o‘lkalar-Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyodir.

Janubiy hududlarda madaniyat shimolga qaraganda bir muncha farqliroq rivojlangan. Shuning uchun ham mehnat qurollari va toshga ishlov berishning turli usullarini o‘zlashtirish shimoliy o‘lkalarga nisbatan erta boshlangan bo‘lishi mumkin. Shu asosda, madaniy taraqqiyotda Shimol va Janub o‘rtasida tafovutning paydo bo‘lishi texnika va xo‘jalikning rivojlanishiga bevosita bog‘liq deb xulosa chiqarish mumkin.

Biz o‘rganayotgan Sharqiy Turkiston va Turkistonning Janubiy hududlarida paleolit davri yodgorliklari asosan, muzlik davrida ko‘plab topilgan. Masalan: hozirgi Turkistonning janubida Qorabo‘ri, Jarqo‘ton, Qirg‘iyin yodgorliklari, Qoshg‘arda esa Tossar, Georgiy do‘ngliklari topilgan. Qozog‘iston hududida ilk paleolit davri taxminan bir million yil oldin paydo bo‘lgan. Buni toshdan yasalgan ov qurollari ham ko‘rsatib turibdi. Bu davrda yashagan odamlar olovni va jamoa bo‘lib ov qilishni bilishgan. Davrga oid manzilgohlar asosan Janubiy Qozog‘istonning Qoratau manzilgohidan topilgan. Bundan tashqari Bariqazgan (Bo‘riqazigan), Tanirkazgan (Tandirqazigan), Kudaykol (Xudoy ko‘l, Markaziy Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyatining Obalisoy tumanida joylashgan) va boshqa manzilgohlar topilgan. Jezqazg‘an viloyatida Semizbug‘u manzilgohi alohida e’tiborga sazovordir. Bu manzilgohning maydoni

2500×300 metr bo‘lib, 1611dan ortiq tosh qurollari topilgan. Tadqiqotchilar bu yerda pitikantrop va sinantroplarning yashaganligini aniqlashdi. Mazkur mintaqada, shuningdek o‘rta paleolit davriga oid manzilgohlar ham keng tarqalganligi aniqlandi. Masalan, Janubiy Qozog‘iston viloyatining Aristand daryosi o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Qorasuv manzilgohi, Qarag‘anda viloyatining Sarisu daryosi buyida joylashgan Batpak manzilgohi, G‘arbiy Qozog‘istonning Mang‘ishloq yarim orolidan topilgan manzilgohlar bunga misol bo‘la oladi.

Markaziy Osiyoda mezolit taxminan 13-10 ming yillar avval boshlanib, miloddan avvalgi 7-6 ming yilliklargacha davom etgan deb qabul qilingan. Mezolitda o‘q-yoy kashf etiladi. Bu narsa endi nafaqat yirik hayvonlarni ovlash, balki mayda hayvonlarni ham ovlash imkoniyatini yaratadi. Bu davrda odamlar Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlarida hayot kechirishgan. Ularda diniy tasavvurlar keng tarqalgan. Shuningdek, ibtidoiy rassomchilik ham rivojlangan. Masalan, Qo‘hitog‘ to-g‘ining Zarautsoy darasida ibtidoiy rassom tomonidan ustalik bilan chizilgan yovvoyi hayvonlar va ovchilarning ov manzarasi diqqatga sazovordir. Lekin bu davrda ham inson asosan tabiat ehsonlari hisobiga kun ko‘rgan. Keyingi davrda (neolit)gina inson ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tgan.

Miloddan avvalgi VI – V ming yilliklarda Markaziy Osiyoda uchta xududiy - madaniyat o‘choqlari mavjud bo‘lgan. Bular, Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlaridir. Joytun madaniyati hozirgi Turkmanistonning janubi-g‘arbida (Ashxobod yaqinidagi Joytun qishlog‘i atrofida) joylashgan miloddan avvalgi VI – V ming yilliklardan boshlab tarqalgan. Ular asosan sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar va ilk sug‘orish inshootlari barpo etganlar. Bu madaniyat zaminida keyinchalik shaharchilik madaniyati vujudga kelgan. Olimlar bu davrda yashagan xaqlarning so‘zlash tili haqida yogona fikrga ega emas. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida, ushbu hududlarda yashayotgan xalqlarning bir qismi janubi-sharqqa ko‘chib ketgan, qolganlari esa asta-sekin oriylar bilan qorishib ketgan. Natijada bu davrdagi yangi etnik manzara tubdan o‘zgardi, janubga ko‘chib ketgan xalqlar sanskrit tilida so‘zlashishgan, ko‘chgan aholining ancha qismi Janubiy Hindistonda joylashishishdi. Kalta Minor madaniyati neolit davrida Orol dengizining shimoli-sharqiy va Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida, Balxan, Mang‘ishloq yarimorolida, Oqchadaryo deltasi, Qizilqum, Yuqori Uzboy, Mohondaryo hududlarida tarqalgan. Bu

yerlarda yashagan aholi asosan ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan. Bu davrda odamlar chaylalarda yashaganlar, loydan sopol idish-tovoqlar yasaganlar. Ularda ibtidoiy tikuvchilik va kemasozlik ham rivojlangan edi. Olimlarning taxmin qilishicha, ular urol-oltoy, shu jumladan turk va ugor tillarida so‘zlashganlar. Hisor madaniyati neolit davrida Tojikistonning Yovonsuv, Vaxsh, Qizilsuv, Kofirnihon daryolari havzalarida tarqalgan. Ular tosh va suyakdan qurollar yasaganlar, asosan ovchilik va terimchilik bilan shug‘ullarganlar. Jez davriga kelib dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Olimlarning taxmin qilishicha, Hisor madaniyati aholisi tili hozirgi ma’lum til oilalaridan birortasiga ham mansub bo‘lmagan. Ularning tili butunlay yo‘qolib ketgan. Miloddan avvalgi ikkinchi mingyillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida bu xalqning bir qismi Hinduqush tog‘larining baland tog‘laridan birida tili noma’lum bir guruh aholi yashaydi. Ularning lahjasi dunyodagi hech qaysi tilga o‘xshamaydi. Taxmin qilinishicha, bu lahja qadimgi Hisor madaniyati sohiblari tilining qoldiqlari bo‘lishi mumkin.

Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda neolit va jez davrida Yenisey tillari ham keng tarqalgan. Bu tillarning qoldiqlari hozirgi Sibirdagi juda kam sonli xanti va mansi xalqlarining tillaridan iborat. Ilgari bu tillarda so‘zlashuvchilarning soni juda ko‘p bo‘lgan va ular juda keng hududlarda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham yashaganlar. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida bu xalqning ko‘p qismi shimolga ko‘chib ketgan, qolganlari esa oriylar bilan qorishib ketgan. Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra, neolit va jez davrida Markaziy Osiyoda yenisey tillari ham keng tarqalgan edi. Ularning qoldiqlari hozir Sibirdagi kam sonli xansi va mansi qabilalari hisoblanadi. Qadimda bu tilde so‘zlashuvchilarning soni bundan ancha ko‘p bo‘lib, ular keng hududlarni, shu jumladan Markaziy Osiyoni ham egallaganlar. Miloddan avvalgi II ming yillikda oriy qabillalrining ommaviy ravishda Markaziy Osiyoga ko‘chib kelishi natijasida bu xalqlarning asosiy qismi Sibirga ko‘chgan, qolganlari esa oriylar bilan qorishib ketgan. Yozuv madaniyati Markaziy Osiyoga miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarida kirib kelgan. Shu davrga mansub kam sonli yozma yodgorliklardagi ma’lumotlar asosida Markaziy Osiyoning o‘sha davrdagi aholisi eroniy tillarda so‘zlashgan deb hisoblanadi. Bunga asosan qadimgi xalq vakillarining ismlari, ma’lumotni qoldirgan sayohatchi bilan olib borgan muloqat tili va ulardan qolgan yozma

yodgorliklarning tili dalil qilib ko‘ rsatiladi. Lekin bunday qarash juda yuzaki va munozarali bo‘lib, haqiqiy holatni aks ettirmaydi. Birinchidan, yozuv tili bilan jonli til doim ham bir xil bo‘lavermaydi. Yozuv tili, ya’ni rasmiy til bitta, jonli tillar esa bir nechta bo‘ lishi ham mumkin. Masalan, qadimgi Hindistonda rasmiy til sanskrit, jonli tillar esa 20 dan ortiq bo‘lgan. Qadimgi Mesopotamiyada ham shunga o‘xshash holat bo‘lgan. Ikkinchidan, u yoki bu ma’lumotni yozib qoldirgan sayohatchi bilan olib borilgan muloqat tili ham aholining ona tilidan farq qilishi mumkin. Masalan, Arab xalifaligida xalqaro muloqot tili arab tili, Rim imperiyasida lotin tili, Sosoniylar imperiyasida pahlaviy tili, Turk xoqonligida esa turk tili bo‘lgan. Bu tillarda davlat ishlari, rasmiy yozishmalar va tarixiy asarlar yozilgan. Lekin bu davlatlarda turli-tuman xalqlar yashagan va ularning o‘zlarining muloqat tillari ham bo‘lgan. Rasmiy til turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ham muloqot tili bo‘lgan. Shunday qilib, yozuv tili va muloqat tili ko‘pincha uni ishlatgan aholining etnik mansubligini aks etdirmaydi. Uchinchidan, odamlarning ismlari ham ularning etnik mansubligini bildirmaydi. Qadimda ba’zi ismlar odamlarning etnik mansubligini bildirgan. Turklarda turkcha, arablarda arabcha, yunonlarda yunoncha ismlar ishlatilgan. Lekin ko‘pincha ismlar odamlarning diniy e’tiqodi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Arablarda musulmonlar ham, nasroniylar ham bo‘lgan. Ularning ismlari tubdan farq qilgan. Qadimgi turklarda ham otashparastlik, buddaviy, nasroniy dinlari tarqalgan. Otashparast turklarda asosan eroniy ismlar, buddaviylarda sanskritcha ismlar, xristianlarda esa suryoniy yoki yunocha ismlar tarqalgan. Islom davrida esa asosan arabcha ismlar keng tarqalgan. Shuning uchun ham odamlarning etnik mansubligini aniqlash juda qiyin bo‘lgan. U davrlarda buning hojati va ahamiyati ham bo‘lmagan. Odamlarni farqlashda asosiy ko‘rsatkich til emas, diniy va mazhabiy mansublik bo‘lgan. Turli tillarda so‘zlashgan, lekin bir dinga e’tiqod qilgan odamlar bir jamoa hisoblangan. Shu singari bir tilda so‘zlashgan, lekin har xil dinlarga e’tiqod qilgan xalq vakillari bir biriga yot bo‘lgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda eng qadimgi davrlardan yashab kelgan aholining etnik mansubligi va tili masalasi olimlar o‘rtasida bahs-munozara masalasiga aylandi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida mustaqillik yillari tarixiy tadqiqotlarida asosjy masalasi sifatida qarala boshlandi. Markaziy Osiyoda eng avvalo eroniy tilli xalqlar paydo bo‘lganmi yoki turkiy tilli xalqlarmi degan qarash katta ilmiy bahslarni keltirib chiqardi. Guyo hozir mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarning etnik mansubligi va uning qadimiyligi millatlarning kelajagini,

istiqbolani, xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini belgilab beradiganday, mazkur muammo davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ammo, qadimiy qabilalar yashagan hududlarda oid moddiy va yozma manbalar bu savolga uzel-kesil javob bera olmaydi. Bu muammoning echimi mintaqa olimlarining hamjihatlik bilan, xolislik, ilmiyllik, tarixiylik tamoyillari, yondashuvlari asosida tadqiqotlar olib borishdadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo hududlarida qachondan odamlarning ilk manzilgohlari paydo bo‘lgan?
2. Odamlarda muloqat tili ijtimoiy taraqqiyotning qaysi bosqichida paydo bo‘lgan?
3. Etnik guruhlar, elatlar va xalqlar vujudga kelishiga ta’sir qilgan omillar, sabablar haqida gapirib bering! !
4. Hind-yevropa tillari oilasining Markaziy Osiyo etnik qiyofasiga qanday ta’sir qilgan?
5. Markaziy Osiyo davlatlarida xalqlarning kelib chiqishi, qadimiylikka da’volarning asl sabablari nimada o‘ylaysiz?

15-mavzu. Markaziy Osiyoning qadimgi turk tilli aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan qadimgi turkiy xalqlar, ularning kelib chiqishi, turmishi, davlatchiligi, ijtimoiy-madaniy hayoti haqida talabalarga ilmiy ma’lumotlar berish. Turkiy xalqlarning Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida ishtiroki va mintaqa sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi haqida tushuncha berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Prototurkiy xalqlar***,** *qadimgi turklar, urol-oltoyt illari, turk joy nomlari, Turk xoqonligi.*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo mintaqasida turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqidagi ilmiy qarashlar.
2. Qadimgi turklar va ular yashagan hududlar.
3. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida turkiy xalqlarning ahamiyati.

Markaziy Osiyo hududlarida eng qadimgi davrlardan turkiy tilli va eroniy tilli xalqlar yashab kelmoqda. Lingvist, etnologik va boshqa tadqiqotchilarning ta’kidlashicha turkiy tilli xalqlar Markaziy Osiyo, Oltoy, Sibir va Sharqiy Yevropa hududlarida miloddan avvalgi mingyilliklardan boshlab shakllangan, o‘zaro yaqin til, madaniyat va urf-odatlarga ega bo‘lgan ko‘chmanchi va o‘troq qabilalar majmuidir. Ular keyingi davrlardagi buyuk davlatlar va hozirgi ko‘plab turkiy millatlarning asosi hisoblanadi. Ammo, muammo shundaki, mintaqa respublikasi va dunyo olimlarining ilmiy bahsi, Markaziy Osiyoning qadimiy aholisi turkilyarmi yoki eron tilli xalqlarmi? degan masala ustida bormoqda. Markaziy Osiyolik olimlar o‘zlari mansub bo‘lgan millatni kelib chiqishini kamida bundan 6 yoki 8 ming yillar oldin paydo bo‘lgan degan qarashni ilgari surishmoqda. Bunga ular Tojikiston hududlarida mavjud bo‘lgan neolit davriga xos bo‘lgan Hisor madaniyati davrida yashagan odamlar bilan bog‘lashadi. Tojik tadqiqotchilarining fikricha mazkur madaniyat vakillari tojik tilida gaplashganlar. Ammo, olimlarning taxmin qilishicha, Hisor madaniyati aholisi tili hozirgi ma’lum til oilalaridan birortasiga ham mansub bo‘lmagan. Ularning tili butunlay yo‘qolib ketgan. Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda neolit va jez davrida Yenisey tillari ham keng tarqalgan. Bu tillarning qoldiqlari hozirgi Sibirdagi juda kam sonli xanti va mansi xalqlarining tillaridan iborat. Ilgari bu tillarda so‘zlashuvchilarning soni juda ko‘p bo‘lgan va ular juda keng hududlarda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham yashaganlar. Miloddan avvalgi II ming yillikda oriy qabillalrining ommaviy ravishda Markaziy

Osiyoga ko‘chib kelishi natijasida bu xalqlarning asosiy qismi Sibirga ko‘chgan, qolganlari esa oriylar bilan qorishib ketgan.

Qadimgi turklar Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisining bir qismini tashkil
etganligi masalasi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan, ilmiy asoslangan muammodir. Professor M. Isxaqov mazkur qarashni qo‘llab-quvvatlab: “…. turkiylar Markaziy Osiyodagina emas, butun Yevrosiyo bo‘ylab azaliy xalqlardir. Eneolit, bronza davrlari Markaziy Osiyo o‘troq dehqonchiik va ilk shaharsozlik hamda shaharchilik madanyatini shakllantirganlar ham o‘sha azaliy turkiylar, ilmiy tilda aytganda, prototurkiylar edi”- degan fikrni ilgari suradi.

Uning ta’kidlashicha: “ … tarixda turkiy qavmlarning Sharq-G‘arb (Janubiy Sibir va Ichki Osiyo – O‘tukendan Dunaygacha), Shimol-Janub, Shimoli-Sharqdan Janubi-G‘arb tomon (Mesopotamiya va Kichik Osiyogacha) va boshqa yo‘nalishlarda qanchalik migratsiyalari ro‘y bergan bo‘lsa, barchasi Markziy Osiyoga kirib kelgan paytda o‘sha prototurkiy, azaliy turkiychilikning qardoshlarni qo‘llab quvvatlash an’anasiga suyanib davom etgan va oqibatda turkiychilikning yanada kuchli konsolidatsiyasiga (uyushuviga), turkiy aholi jon boshi ortib borishiga va mintaqada yetakchi o‘rin tutishiga xizmat qilgan”. Bu esa o‘z navbatida qadimiy turkiy davlatchilik an’anasining asrlar osha uzluksiz siyosiy nufuzini ham ta’minlab kelgan.

Qadimgi turk joy nomlarining mintaqa bo‘ylab tarqalganligi ham ushbu qarashlarning ilmiy asosga ega ekanligini isbotlaydi. Qadimgi turkcha so‘zlardan yasalgan joy nomlari Markaziy Osiyoning deyarli barcha qismlarida uchraydi. Bu esa shundan dalolat beradiki, turklar mintaqa qadimgi aholisining bir qismini tashkil etgan. Qadimgi turk joy nomlari zichroq jamlangan yerlar – Xorazm, Buxoro vohalari, Farg‘ona vodiysi va Tian-Shan (Tangritog‘) tog‘lari bo‘lgan. Buni arxeologiya va antropologiya ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Qadimgi turklar Markaziy Osiyoda, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va ko‘chmanchilik hayot tarzi olib borganlar. Chunki iqlim sharoiti shuni taqozo etgan. Ba’zi olimlar turklar faqat ko‘chmanchi bo‘lganlar, shahar va qishloqlarda yashamaganlar va bunga moslashmaganlar, singari fikrlarni ilgari suradilar. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘troq yoki ko‘chmanchilik hayot tarzini olib borish u yoki bu xalqning milliy xususiyati emas, balki iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq. Bir xalqning o‘zida o‘troq aholi ham, ko‘chmanchilar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, arablarning bir qismi ko‘chmanchi bo‘lgan, bir qismi esa shaharlarda yashagan (Palmira, Petra,

Makka, Madina). Qadimgi forslarning ham 10 ta qabilasidan 6 tasi o‘troq, 4 tasi ko‘chmanchi bo‘lgan. Qadimgi turklarda ham shunday bo‘lgan. Qayerda qaysi xo‘jalik turini olib borish qulayroq va unumliroq bo‘lsa, aholi shu bilan shug‘ullangan. Dashti Qipchoq yerlari chorvachilik uchun qulay bo‘lgan. Shuning uchun bu yerlarda yashagan qabilalar qaysi tilda so‘lashishidan qat’iy nazar, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va muayyan belgilangan hudud ichida ko‘chib yurganlar.

O‘rta Osiyo hududlarida yashagan aholi esa qaysi tilda so‘zlashishidan qat’iy nazar qadimdan, asosan, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan va o‘troq hayot tarzi olib borgan. Chunki buni mahalliy iqlim xususiyatlari taqozo etgan. Keyinchalik bu madaniyat zaminida hunarmandchilik va shaharchilik madaniyati vujudga kelgan. Bu jarayonlarda qadimgi turklar ham ishtirok etganlar. Turklarning qadimdan O‘rta Osiyoda yashab kelganini nafaqat toponimik, balki lingvistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, milodddan avvalgi V – IV ming yilliklarda qadimgi hind-yevropa qabilalari Yaqin Sharqdan sharq tomon ko‘chib, O‘rta Osiyoga kelganda, bu yerda turk tilida so‘zlashuvchi aholiga duch kelganlar va ular bilan uzoq vaqt davomida yonma-yon yashaganlar. Boshqa lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, qadimda turklar va dravid tilida so‘zlashuvchilar o‘zaro yaqin qo‘shni bo‘lganlar va oriylarning kirib kelishi natijasida ajralib, bir-biridan uzoqlashib ketganlar. Ahamoniylar istilosi (miloddan avvalgi VI – V asrlar), undan keyin yunonlar istilosi (miloddan avvalgi IV – III asrlar) natijasida O‘rta Osiyo aholisining bir qismi, shu jumladan, turklar, Yevrosiyo va Sharqiy Turkiston hududlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Shuning uchun O‘rta Osiyoda kushonlar (milodddan avvalgi II , milodiy III asrlar), xiyoniylar (IV asr), eftaliylar (V asr) va turklar (VI – VIII asrlar) ning hukmronligini ko‘chmanchilarning bosqinchilik davri emas, balki bu yerlarda qadimdan yashab kelgan o‘troq hayot kechiruvchilarning o‘z yerlariga qaytishi va ularni qayta o‘troqlashuvi davri deb baholash lozim.

G‘arb, jumladan, Rossiyalik tadqiqotchilarning ko‘pchiligi eroniy tilli xalqlar qadimiy ildizlarga ega, ular milioddan avvalgi IV-III ming yilliklarda yashagan hind-evropa tillari oilasiga mansub bo‘lib, miloddan avvalgi II-ming yillik o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelgan oriy qabilalari ham ularning ajdodi ekanligi haqidagi qarashlarni ilgari surishadi. Ammo, ba’zi olimlar turkiy xalqlar kelib chiqishi qadimiyligi jihatidan eroniy tilli xalqlar bilan tarixan bir davrga bjrib taqaladi, degan qarashni ilgari surishadi. O‘zbekistonlik tadqiqotchi A.

Asqarov turkiy xalqlar Markaziy Osiyo mintaqasida bronza davrlarida dasht va cho‘l hududlarida istiqomat qilib kelgan. Ayrim tadqiqotchilarning nazarida turkiy tilli xalqlar milodiy asrning boshlarida etnik guruhlar sifatida shakllangan, ular haqida aniq ma’lumotlar milodiy IV-V asrlardagi turkiy, xitoy, forsiy, yunon manbalarida uchraydi. Sovet davri tadqiqotlarida ham asosan ushbu yondashuv ustun ilmiy faraz hisoblangan. O’zbek olimlaridan Karim Shoniyazov eramizdan avvalgi IV-III asrlarda tashkil topgan Qang‘ davlati aholisi qang‘arlar – turkiy xalqlar sifatida talqin qiladi.

Taniqli olim, professor Mirsodiq Is'haqovning bu boradagi quyidagi fikrlari hozirgi davrda qo‘shni davlatlar tarixchi va boshqa soxta “olimlari” “ qadimiylikka,” “tub aholi”, ya’ni “avtoxtonizm”ga da’vo qilayotganlarga ilmiy-fundamental javob bo‘ladi: “... oriylar migratsiyasi sivilizatsiya tashuvchi emas, balki Markaziy Osiyo prototurkiy bronza davri sivilizatsiyasini o‘zlashtiruvchi ijtimoiy birlik sifatida ikkilamchi sitsvilizatsion mohiyatga ega ekanini ta’kidlash lozim. Ayni shu oriylar Markaziy Osiyo hududlari bo‘ylab o‘tib, bir tarmog‘i hozirgi Eron platosiga kirib bordi, ikkinchi tarmog‘i Hindiston subkontinentining shimoliy hududlarini egalladi. Bu orada O‘rta Osiyoda mahalliy prototurkiy qavmlar bilan yonma-yon oriylarning bir turkumi o‘troqlashib qolgan. Uch ming yildan oshibdiki, bu ikki etnik qatlam, birlamchi prototurkiy qavmlar, ikkilamchi oriylar deb atalmish hindu-oriy, so‘ngra hindu-eroniiy etnik qatlam qo‘ni-qo‘shni, og‘a-inichilik, birodarchilikda hayot kechirib kelgan. Eroniy-turkiy ikki tillilik (bilingvizm), turmush tarzi, urf odatlar mushtarakligi kabilarning ildizlari ham haminqadar qadimiydir” “Shuning uchun turkiyzabon va eroniyzabon, xususan o‘zbek-tojik do‘stlik va og‘a-inilik an’analarini har ikki qo‘shni xalq uchun mushtarak tarixiy-milliy qadriyat sifatida avaylab asrash, yanada rivojlantirish tarixiy zaruratdir. Zero, bu ikki xalqning o‘zaro do‘stligi mintaqada tinchlik va osoyishtalik hamda anglab yetilgan hamjihatlikning hal qiluvchi omilidir” – deb o‘z fikrini yakunlaydi tadqiqotchi.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo davlatlarida o‘zlari mansub xalqlar va millatlarning qadimiylugi masalasi ham asosiy masalaga aylandi. Tojikiston olimlari o‘zlarini hind-evropa va oriy xalqlarining mintaqadagi yagona avlodlari hisoblashadi. Ularning nazarida Markaziy Osiyoning turkiy tilli xalqlari, o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar va boshqalar o‘tmishda yashagan ko‘chmanchi xalqlarning avlodlari bo‘lib, ular Mavoraunnahr, Xorazm va Xuroson hududlariga boshqa hududlardan ko‘chib kelgan “kelgindilar” sifatida talqin qilishadi.

Ammo, o‘zbek, qozoq olimlarining tadqiqotlari bois, turkiylar ham mintaqaning qadimiy, tub aholisi ekanligini ilmiy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘lindi.

So‘nggi yillarda G‘arb olimlari va O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning izlanishlari natijasida haqihatan ham Markaziy Osiyoning eneolit, bronza va temir davrida ushbu hududlarda turkiy qavmlar istiqomat qilganligidan darak berad. Ular qadimgi turkiy joy nomlari buning dalilidir deb hisoblaydilar. Qadimgi turksha so‘zlardan yasalgan joy nomlari Markaziy Osiyoning deyarli barcha qismlarida uchraydi. Bu esa shundan dalolat beradiki, turklar mintaqa qadimgi aholisining bir qismini tashkil etgan. Qadimgi turk joy nomlari zichroq jamlangan yerlar – Xorazm, Buxoro vohalari, Farg‘ona vodiysi va Tiayan-Shan (Tangritog‘) tog‘lari bo‘lgan. Buni arxeologiya va antropologiya ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Qadimgi turklar Markaziy Osiyoda, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va ko‘chmanchilik hayot tarzi olib borganlar.

Ba’zi olimlar turklar faqat ko‘chmanchi bo‘lganlar, shahar va qishloqlarda yashamaganlar va bunga moslashmaganlar degan fikrlarni ilgari suradilar. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘troq yoki ko‘chmanchilik hayot tarzini olib borish u yoki bu xalqning milliy xususiyati emas, balki iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq. Bir xalqning o‘zida o‘troq aholi ham, ko‘chmanchilar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, arablarning bir qismi ko‘chmanchi bo‘lgan, bir qismi esa shaharlarda yashagan. Qadimgi forslarning ham o‘nta qabilasidan oltitasi o‘troq, to‘rtasi ko‘chmanchi bo‘lgan. Qadimgi turklarda ham shunday bo‘lgan. Qayerda qaysi xo‘jalik turini olib borish qulayroq va unumliroq bo‘lsa, aholi shu bilan shug‘ullangan. Dashti Qipchoq yerlari chorvachilik uchun qulay bo‘lgan. Shuning uchun bu yerlarda yashagan qabilalar qaysi tilda soz’lashishidan qat’iy nazar, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va muayyan belgilangan hudud ichida ko‘chib yurganlar. O‘rta Osiyo hududlarida yashagan aholi esa qaysi tilda so‘zlashishidan qat’iy nazar qadimdan, asosan, dehqonchilik va bog‘dorchilik bo‘lgan. Buni mahalliy iqlim xususiyatlari taqozo etgan. Temir asriga kelib mazkur zaminida hunarmandchilik va shaharchilik madaniyati vujudga kelgan. O‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va shaharsozlikning shakllanishi jarayonlarda qadimgi turklar ham ishtirok etganlar.

Turkiylarning qadimdan O‘rta Osiyoda yashab kelganini nafaqat toponimik, balki lingvistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi V – IV ming yilliklarda qadimgi hind-yevropa qabilalari Yaqin Sharq, Evropadan sharq tomon ko‘chib,

O‘rta Osiyoga kelganda bu yerda turk tilida so‘zlashuvchi aholiga duch kelganlar va ular bilan uzoq vaqt davomida yonma-yon yashaganlar. Boshqa lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, qadimda turklar va dravid tilida so‘zlashuvchilar o‘zaro yaqin qo‘shni bo‘lganlar va oriylarning kirib kelishi natijasida ajralib, bir-biridan uzoqlashib ketganlar. Ahamoniylar istilosi (miloddan avvalgi VI-V asrlar), undan keyin yunonlar istilosi (miloddan avvalgi IV-III asrlar) natijasida O‘rta Osiyo aholisining bir qismi, shu jumladan, turklar, Yevrosiyo va Sharqiy Turkiston hududlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Shuning uchun O‘rta Osiyoda kushonlar (miloddan avvalgi II – milodiy III asrlar), xiyoniylar (IV-asr), eftaliylar (V-asr) va turklar (VI-VIII asrlar) hukmronligini ko‘chmanchilarning bosqinchilik davri emas, balki bu yerlarning haqiqiy egalarining o‘z yerlariga qaytishi va ularni chet el boqinchilaridan ozod etishi deb baholanishi lozim.

Kushonlar, xiyoniylar va eftaliylarning kelib chiqishi va ularning tili noma’lum, bu masala haligacha o‘z yechimini topmagan. Olimlar bu masala bo‘yicha yuz yildan oshiq vaqt davomida munozara olib boradilar. Ba’zi olimlar ularning tili eroniy tillar oilasiga mansub bo‘lgan, deb hisoblashsa, ba’zilar ularning kelib chiqishi turk bo‘lgan, keyin eroniylashib Xurosonning mahalliy aholisi bilan qorishib ketgan degan qarashni ilgari surishadiydilar. Xitoylik bir olim kushonlarning kelib chiqhishini Yevrosiyo turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar, eftaliylarning kelib chiqishini esa qadimgi Koreyadagi qabilalar bilan bog‘laydi. Bu masala shunday noaniq va munozarali bo‘lsa ham, Tojikiston olimlari kushonlar va eftaliylarni “tojik xalqining ajdodlari”, ularning davlatini esa, “tojik davlatchiligi tarixining bosqichlari” deb ko‘rsatmoqdalar. Xitoy olimlarining tadqiqotlriga asoslanib, ular II-VIII asrlarda afsonaviy Kirpand imperiyasi mavjud bo‘lgan va u tojiklarning davlatchiligi tarixining bir qismidir, deb da’vo qilmoqdalar. Tojik tarixchilarining asosiy maqsadi, Yevrosiyo hududlarida, jumladan, Markaziy Markaziy Osiyo mintaqasi sivilizatsiyasida turklarning ahamiyatini kamsitish va asosiy e’tiborni eroniy tilli xalqlarga qaratishdan iboratdir. Albatta, bunday yondashuv hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Turk xoqonligi davriga kelib ko‘chmanchi turklarning asosiy qismi o‘troqlashib, shahar va qishloqlarda yashaganlar. VIII-asr boshlariga mansub To‘nyuquq bitigida yozilishicha, turk qabilalari ittifoqiga kiruvchi 30 ta qabila va urug‘larning asosiy qismi o‘troq hayot kechirgan. Demak, ular shahar va qishloqlarda yashaganlar. Qadimgi turklarning sug‘orma dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganligini

ularning bu sohalardagi boy atamalar to‘plami isbotlaydi. Bu tarixiy atamalar qadmigi turk toshbitiklari, yozma yodgorliklari va lug‘atlarida o‘z ifodasini topgan. Ayrim o‘simliklar, hayvonlar va qushlarning nomlari shundan dalolat beradiki, bu atamalarni ishlatgan turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar Markaziy Osiyo mintaqasining aynan janubiy hududlarida yashaganlar. Turk xoqonligi davrida turklarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi nufuzi, harbiy-siyosiy qudrati va xalqaro mavqei nihoyat darajada ortdi. U davrda Markaziy Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida turk sulolalari hukm surgan. Ayrim joylarda, ayniqsa, Sug‘dda mahalliy eroniy va turk tilida so‘zlashuvchi aholining qorishuv jarayonlari kuchaygan. Diniy e’tiqodlarning mushtarakligi (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik), siyosiy hokimiyatning yaxlitligi, turk va sug‘d ikki tilliligi muhiti oxir oqibatda eroniy tilli xorazmiylar va sug‘dliklarning o‘troq turklar bilan etnomadaniy qorishuviga olib keldi. Mazkur qorishuv jarayonlarini arablar va forslarning siyosati yana ham tezlashtirdi. Arab xalifaligi tarkibida ham turklarning nufuzi juda baland bo‘lgan. Xalifalardan Horun ar-Rashid va uning o‘g‘li al-Ma’mun birinchi bo‘lib turklarni ko‘plab harbiy xizmatga jalb eta boshladilar. Xalifa al-Mu’tasim hukmronligi davrida esa turklar ommaviy ravishda Bag‘dodga ko‘chib kela boshladilar. Ayrim viloyatlarning hokimligi ham turklarga topshirildi. Masalan, Misrda va Suriyada farg‘onalik Tuluniylar va Ixshidiylar sulolalari hukm surdi. Ayrim arab xalifalari turk qizlariga uylanib, ulardan tug‘ilgan bolalar ulg‘ayib, taxtaga o‘tirganda, turklarga yana ham ko‘proq homiylik qila boshladilar. Natijada IX-X asrlarda turklar Abbosiylar xalifaligidagi deyarli barcha muhim lavozimlarni egallagan edilar. XI asrga kelib esa hokimiyat to‘la turklar, ya’ni Saljuqiylar qo‘liga o‘tdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Turk xoqonligi davridan boshlab uzluksiz turkiy xalq vakillari hukmronlik qilganlar. Arablar istilosi davridan (VII-VIII asrlar) Markaziy Osiyo hududlarida yashsgan turkiy xalqlar VIII asrdan boshlab islom dinini qabul qilishgan. Qorluqlar, O‘g‘uzlar, Somoniylar ilk turkiy-musulmon sulola davlatlari bo‘lgan. Ushbu sulolalar Turk xoqonlarining avlodlari bo‘lganlar. Shundan keyin boshqa turkiy sulolalar, Mavoraunnahr, Ettisuv, Xorazm, Xurosonda Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar, Oltin O‘rda, Chig‘otoy uluslarida esa o‘troqlashgan, musulmonlashgan turk-mo‘g‘ul qavmlari, undan keyin esa Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarxoniylar, Mang‘itlar, Qo‘ng‘irotlar, Dashti Qipchoqda qozoq juzlari davlat sifatida mavjud bo‘lishgan. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo mintaqasi turli

davrlarning tarixiy manbalarida “Turkiston” deb atalgan. Shundan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, turkiy xalqlar Markaziy Osiyoninng eng qadimiy aholisi bo‘lib, mintaqaning tub, “avtoxton” xalqi ekanligi hech qanday shubha yo‘q. Ular eroniy tilli xalqlar bilan ming yillar davomida yonma-yon yashab, hududning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar.

Shunday qilib, turkiy tillar - hozirgi va qadimgi turkiy ellar va elatlarning moloqat tili hisoblanadi. Ular, asosan, hozirgi O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, XXR, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Shimoliy Makedoniya, Albaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda tarqalgan. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kundaturkiy tillarda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 300 millionga yaqin kishidan iborat deb hisoblahadi.

Ammo, turkiylarning Markaziy Osiyodagina emas, balki butun Yevrosiyo bo‘ylab azaliy ildizlarini inkor etib, ularni kelgindiga chiqarishga urinishning turli ko‘rinishlari so‘nggi ikki asr davomida Yevropa va rus tarixnavisligida chuqur ildiz otdi. Bu masala keyingi yillarda Tojikistonlik tadqiqotchilarning ham asosiy tarixiy-nazariy qarashlarni bayon qilish maydoniga aylandi. Bunday harakatlarning tub maqsadi Markaziy Osiyoning uch yarim ming yillik tarixiy-madaniy jarayonlarda qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashab kelgan turkiy va eroniy xalqlar o‘rtasini buzish va mintaqadan siyosiy strategik maqsadlarda foydalanishga qaratilgan nayrangdan boshqa narsa emas. Shuning uchun turkiyzabon va eroniyzabon, xususan o‘zbek-tojik do‘stlik va og‘a-inilik an’analarini har ikki qo‘shni xalq uchun mushtarak tarixiy-milliy qadriyat sifatida avaylab asrash, yanada rivojlantirish tarixiy zaruratdir. Zero, bu ikki xalqning o‘zaro do‘stligi mintaqada tinchlik va osoyishtalik hamda anglab yetilgan hamjihatlikning hal qiluvchi omilidir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bu masalalar atrofida bilgan ham bilmagan ham har xil gaplarni yozishmoqda. Eng achinarli holat shuki, ming yillar ichida ne-ne tarixiy sinovlardan o‘tib, amalda o‘z mohiyatini yo‘qotmagan tojik-o‘zbek og‘a-inichilik, tojikcha aytganda birodarlik an’anlariga rahna solishga, tarixning mingquroq lekin yaxlit ko‘rpasini o‘z ustiga tortishga, butun bir o‘zbek xalqi, o‘zbek millati tarixini yo‘qqa chiqarishga urinishning turli ko‘rinishlari davom etmoqda. Binobarin, O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoev boshchiligida qo‘ni-qo‘shni, hamsoyalar bilan azaliy do‘stlik rishtalarini mustahkamlash, o‘zaro

ishonch va samarali hamkorlik yo‘lini tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi etib belgilagan

Savollar va topshiriqlar:

1. Turkiy xalqlar Markaziy Osiyoning qadimiy aholisi ekanligiga qanday asoslar bor?
2. “Avtoxton”- atamasi qasi xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan va uning mazmuni nimada?
3. Markaziy Osiyo hududlarida xalqlarning turkiylashuv jarayonlari qachondan kuchaygan?
4. Turkiy xalqlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga qanday hissa qo‘shganlar?
5. Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy qavm va sulolalar qachondan islom dinini qabul qlishgan va bu holat ularning hayotiga qanday ta’sir qilgan?

16-mavzu. Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy tilli aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixida muhim rol o‘nagan hind-yevropa xalqlari va ularning davomchilari hisoblangan oriy qabilalarining mintaqaga kirib kelishi va ulardan eroniy tilli xalqlarning ajralib chiqishi jarayonlari haqida tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Hind-yevropa tillari, oriy qabilalari, toxarlar, sug‘dlar, boxtariylar, xorazmiylar, saklar, forslar,sharqiy eroniy tilli xalqlar.

Darsning rejasi:

1. Hind-yevropa tilli xalqlarning kelib chiqishi masalasi va Markaziy Osiyo xalqlarining etnik qiyofasiga ta’siri.
2. Markaziy Osiyoda hududlarida eron tilli aholining shakllanishi va yoilishi.
3. Markaziy Osiyo yashagan qadimgi tilli aholi haqidagi qarashlar.

Tadqiqotchilarning hulosasiga ko‘ra Markaziy Osiyo hududlarida eng qadimgi zamonlardan ikkita super etnos: turkiy tilli va eroniy tilli xalqlar yonmo-yon yashab kelishgan. Olimlar o‘rtasida asosiy bahs qay bir etnos qadimiy va mahalliy sivilizatsiyaning yaratuvchisi degan ilmiy faraz ustida boradi. Mazkur mavzuda eroniy tilli xalqlarning kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar, yondashuvlar borasida fikr boradi.

Eroniy tilli xalqlarning kelib chiqishi bevosita hind-evropa tillari oilasiga borib taqaladi. Hind-yevropa tillar oilasi — dunyo tillarining eng katta va rivojlangan guruhlaridan biridir. Hind-yevropa tiliga mansub xalqlar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda ustiqomat qilishgan. Ular kelib chiqqan hududlarga oid qarashlarga ko‘ra Sharqiy Yevropa, Kichik Osiyo va Markaziy Yevropa mintaqalari sifatida taxmin qilinadi. Shunisi anikki, ushbu til vakillari ulkan evroosiyo makonlarida mintaqalararo muloqot, madaniyat va ilm-fan rivojiga katta ta'sir ko‘rsatishgan. Hind-yevropa tillar oilasiga mansub xalqlar shu davrlardan migratsion jarayonlarga ham ta’sir qilishgan. O‘zlari ham Yevropadan, Rossiya hududlari orqali, Markaziy Osiyoga, undan esa, Hindistonga qadar ko‘chib borishgan. Natijada, hind-yevropa tillari Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishiga ham muhim rol o‘ynashgan. Ushbu tillar o‘xshashliklari: so‘z tuzilishi, fonetika, grammatik va farqlari fonologik jarayonlar, leksik o‘zgarishlar, grammatik tafovutlar ham usbu qarashlarning ilmiy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Hind-yevropa tillari va madaniyat o‘rtasidagi

bog‘lanish: bu tillar madaniy merosining asosiy qismi bo‘lib, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida tarixiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Sanskrit tilidagi vedalar, yunon mifologiyasi va diniy matnlar kabi madaniy asarlarning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotchilarning fikricha miloddan avvalgi ikki ming yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelgan oriy qabilalari ham hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lib, ular bu yerda yashagan dravid, ural-oltoy va ugor tillarida so‘zlashuvchi xalqlarning bir qismini mintaqadan siqib chiqarganlar, bir qismini o‘zlariga singdirganlar, qolgan tub aholi esa oriylarning hukmronligi ostida yashashda davom etgan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchi M. Isxaqovning fikriha: ”.... oriylar migratsiyasi haqida gap ketar ekan, bunda oriylar atamasi aniq etnik ma’noni bildirmagan. Bu so‘z umumlashtiruvchi ma’noda hindu-oriy tillarining turli lahja va shevalarida gaplashgan qabilalarning umumiy nomi, ijtimoiy atama sifatida qabul qilingan shartli nom, xalos. O‘z navbatida bu shartli atama ham bejiz paydo bo‘lmagan. Qadimgi hind epik merosi Vedalarda, zardushtiylik (Mazda Yasna dini)ning asosiy manbai Avestada, Eron Ahmoniylar sulolasi vakillarining bayonot-xotirot bitiklarida arya (ariy) atamasi mavjudligi oriylar (ariytsi, aryan) atamasini ilmiy asosli qilib ko‘rsatgan. Aslida bizning fikrimizcha, ARYAN atamasi mazkur hindu oriylik migratsiyasi jarayonlari Markaziy Osiyo prototurkiy muhitiga kirib kelgan paytda turkiylarning “botirlar, kuchlilar, dovyuraklar” ma’nosidagi turkchilikda o‘zlikni anglatuvchi sifatlarni bildirgan eran, eranlar so‘zidan o‘zlashtirilgan. Bu fikr to‘g‘ri deb qabul qilinsa, Shimoliy Kavkazdagi osetinlarning iron toifasi ham prototurkiy muhit ta’sirida shu nomga ega bo‘lgan deb tutshunish mumkin. Osetinlarning digor etnik shahobi, aftidan ironlarga nisbatan keyinroq shakllangan. Shu sababli iron osetinlar ularni digor deb atab, o‘zlaridan begonalar deb tutshunishgan. Zero, digor so‘zi “o‘zga, boshqa” ma’nosiga ega”. Bundan shu ma’no kelib chiqadiki, oriylar kelib chiqishi jihatidan faqat eroniy tillar oolasiga mansub bo‘lmagan. Turkiy tilli qabilalr bilan ham qardoshlik etnik qorishuv tifayli vujudga kelgan.

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra milloddan avvalgi I ming yillik boshlariga kelib, ya’ni temir davrida oriy qabilalari asosida hind va eroniy tillar bir-biridan ajralib, mazkur tillarda so‘zlashuvchi bir qancha qabilalar vujudga kelgan. Markaziy Osiyo hududida yashagan sug‘diylar, xorazmiylar, boxtariylar, saklar, massagetlar, Eronda esa forslar va boshqa xalqlar sharqiy eron tilida so‘zlashganlar.

Hozirgi O‘zbekiston va Tojikiston yashagan sug‘dilar sharqiy eron tillar guruhiga mansub bo‘lib, mazkur atama ilk bor miloaddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalaridagi yozma yodgorliklarda qayd etilgan. Sug‘d xalqi avval Ahamoniylar, keyin yunonlar, kushonlar, eftaliylar, turklar va nihoyat arablar hukmronligi ostida hayot kechirgan. Ayniqsa, Turk xoqonligi davrida sug‘dlarning xalqaro faoliyati uchun keng imkoniyatlar ochilgan. VI-VIII asrlarda sug‘d va turkiy tilli xalqlar orasida yaqin etno-madaniy aloqalar vujudga kelgan. O‘rta Osiyoni arablar va forslar bosib olgandan keyin sug‘dlarning bir qismi Sharqiy Turkiston va Xitoyga ko‘chib, keyinchalik u yerdagi turklar bilan qo‘shilib ketgan. Ularning O‘rta Osiyoda qolgan asosiy qismi ixtiyoriy ravishda mahalliy o‘troq turklar bilan qorishib ketgan va keyinchalik o‘zbek xalqining tarkibiga kirgan. Ularnig bir qismi majburiy ravishda arab va fors bosqinchilari bilan qo‘shilib ketgan va keyinchalik tojik xalqining tarkibiga kirgan.

Boxtariylar Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida yashaganlar. Ularning tili kushonlar, eftaliylar va Turk xoqonligi davrining yozma yodgorliklarida saqlangan. Xususan, toshbitiklar, devoriy sur’atlar, sopol parchalari va tangalardagi yozuvlar shular jumlasidandir. Shimoliy Afg‘onistonda topilgan Rabatak arxivi 100 ga yaqin boxtar tilidagi hujjatlardan iborat. Boxtar tili arablar istilosiga qadar ishlatilgan. Keyinchalik, aniqrog‘i, IX asrlarga kelib etnik jarayonlar bois boxtarlar arab va fors xalqlariga qo‘shilib ketishi natijasida alohida xalq sifatida o‘z o‘rnini yo‘qatgan va o‘lik tillar safiga qo‘shilgan.

Markaziy Osiyoning qadimiy sharqiy eron tilli xalqlaridan bo‘lgan xorazmiylar Amudaryoning o‘rta va quyi qismida yashaganlar. Xorazmiylar ilk bor Eronda joylashgan Behistun bitiklari, shuningdek yunon tarixchilaridan Gerodot, Gekatey asarlarida qayd etilgan. Nil daryosi bo‘yidagi milodddan avvalgi V asrga mansub shahar xarobalarida topilgan yahudiy tilidagi bir hujjatda keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, Ahamoniylarning Misrga yuborilgan qo‘shinining sarkardasi xorazmlik Xarchin o‘g‘li Darg‘man bo‘lgan. Qadimiy xorazmiylarning tili hozir o‘lik bo‘lib, bu haqida juda kam ma’lumotlar saqlangan. Yozma yodgorliklar ham juda sanoqli. Tuproq qal’a yodgorligidan ushbu tilda bitilgan qo‘lyozma topilgan. Bu til miloddan avvalgi III – II asrlardan milodiy VIII asrga qadar Xorazm davlatining rasmiy tili bo‘lgan. Xorazmda oramiy yozuvi asosidagi yozuv ishlatilgan. IX asrdan keyin arab alifbosidan foydalanilgan va unga 5 ta harf qo‘shib ishlatilgan. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” asarining 1200-yilda Xorazmda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi ana shu yozuvda bitilgan.

Xorazm tili XV-XVI asrlarga qadar saroy ahlining tor doirasida maxfiy til sifatida ishlatilgan. Shundan keyin qadimgi xorazm tili o‘lik tilga aylangan.

Ko‘chmanchi sak qabilalari Yevrosiyo dashtlarida ko‘chib yurganlar. Markaziy Osiyoda Sirdaryo bo‘ylari, Qozog‘iston dashtlari, Kaspiy va Orol atroflarida yashaganlar. Ilk bor sak qabilalari Ossuriya poytaxtidagi Ishtar ibodatxonasini qazish vaqtida marmar taxtaga podshoh Ashurbanipal (miloddan avvalgi 669-631 yillar) yozdirgan bitikda qayd etilgan. Bu yozuvda kimmeriylar sardori sak podshohi deb atalgan. Yunon manbalarida ular skiflar deb atalgan. Behistun bitiklarida uch turli saklar qayd etilgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda hukmronlik qilgan Eron shohi Doro I yodgorligida unga sovg‘a keltirayotgan sak sardorlari tasvirlangan. Sharqiy Turkistonda joylashgan Xotan shahridagi ilk o‘rta asrlarga mansub tarixiy yodgorliklardan birida eroniy tilda yozilgan bir qo‘lyozma topilgan. Uning tilini ilm fanda “xotan-sak tili” deb atash qabul qilingan.

Sharqiy Turkistonda toxarlar yashagan. Ular oriylardan ham oldingi hind-yevropa xalqlarining oilasiga mansub bo‘lib, Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyo mintaqasiga miloddan avvalgi IV – III ming yilliklarda kirib kelganlar. Ularning tili hind va eroniy tillardan farq qilib, o‘zida hind-yevropa tillarining ulardan ham qadimgi holatini aks etdirgan. Bu tilning yozma yodgorliklari ilk o‘rta asrlarga mansub. Miloddan avvalgi II asrda toxarlarning bir qismi qabilalari bilan birga Amudaryoning janubidagi Baqtriya hududlariga ko‘chib, bu yerda Kushon davlatiga asos solganlar. Rasmiy muomalada ular boxtar tili va yozuvidan foydalanganlar. Kushonlarning asl tili esa haligacha aniqlanmagan. Kushonlar davrida yana bir yozuv ishlatilgan, lekin uni hali hech kim qoniqarli o‘qiy olmagan. Taxmin qilinishicha, bu yozuv kushonlarning asl tilini aks etdirishi mumkin. Ilk o‘rta asrlarda qadimgi Baqtriya hududi Tohariston deb atalgan va avval eftaliylar davlati, keyin esa Turk xoqonligining tarkibiga kirgan. Bu davrga kelib kushonlar va toharlar mahalliy boxtarlar bilan qorishib ketgan. Toxarlarning Sharqiy Turkistonda qolgan qismi ham keyinchalik tilini yo‘qotib, qo‘shni uyg‘urlar bilan qorishib ketgan va hozirgi uyg‘ur xalqining tarkibiga kirgan. Rus va tojik tarixshunosligida Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy tilli aholisi madaniyatining davomchisi hozirgi tojiklardir, degan fikr qabul qilingan. Aslida esa unday emas. Fors tili g‘arbiy eroniy tillar guruhiga mansub bo‘lib, O‘rta Osiyoda arablar istilosi davrida kirib kelgan til hisoblanadi. Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy tillari esa

sharqiy eroniy tillar guruhiga mansub bo‘lgan va g‘arbiy eroniy tillardan katta farq qilgan.

Ilk o‘rta asrlarda sug‘dlar madaniy jihatdan forslarga emas qo‘shni o‘troq va shahar turklariga yaqinroq bo‘lganlar. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, sug‘dlar o‘zlarini forslar bilan qorishishdan asraganlar va ular bilan qorisha boshlaganlar. So‘dlarning bir qismi arab va fors xalqi bilan qorishgan. Sug‘d tilining lahjalaridan biri Tojikistondagi Yag‘nob qishlog‘ida hozirgacha saqlangan. Yag‘nobliklar haligacha atrofdagi tojiklar bilan qorishib ketmaganlar va iloji boricha ulardan ayro yashaganlar.

Tojiklar esa o‘zbeklar va afg‘onlar singari islom dinining sunna mazhabiga rioya qiladilar. Umuman olganda, tarixda hech qachon “tojik tili” va “tojik xalqi” degan alohida etnik birlik bo‘lmagan. Bu tushunchalarni Rossiya mustamlakachilari o‘ylab topganlar. Aslida “tojik tili” bu fors tilidir. Fors tili esa islom dinini qabul qilgan turklarning ikkinchi tili hisoblangan. Su’gd tili yo‘qolgandan keyin uning o‘rnini fors tili egallagan. Arab alifbosiga asoslangan fors tilining yuksalishida ham turklarning xizmati katta bo‘lgan.

Shunday qilib, eroniy tilli xalqlar Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan hisoblanib, turkiy xalqlar bilan hamkorlikda mintaqada davlatchilik, madaniyat va sivilizatsiyani yaratishga, o‘ziga xos taraqqiyatni shakllanishiga hussa qo‘shganlar. Xolis tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, Markaziy Osiyo hududlarida “etnik ustunlikka” ega bo‘lgan bironta xalq va millat bo‘lishi mumkin emas, bu erda ming yillar davomida shakllangan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yutuqlar ham ushbu mintaqada yashovchi barcha xalqlar mulkidir.

Xulosa qilib aytganda Arxeologik, lingvistik, toponimik va yozma manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqa ibtidoiy jamoa davridan boshlab turli madaniyatlar, tillar va xo‘jalik turlarining kesishgan hududi sifatida shakllangan. Neolit va jez davrlarida Anov, Kalta Minor va Hisor madaniyatlari Markaziy Osiyoda o‘ziga xos madaniy muhitni vujudga keltirib, keyingi davrlardagi shaharchilik, dehqonchilik va hunarmandchilik taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratgan. Mazkur madaniyatlar aholisi til jihatidan ham bir xil bo‘lmagan: dravid, ural-oltoy, ugor, yenisey kabi turli til oilalariga mansub guruhlar mintaqada bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket yashagan. Miloddan avvalgi II ming yillikda oriy qabilalarining ommaviy kirib kelishi esa Markaziy Osiyo tarixida tub burilish yasab, mavjud etnik va lingvistik muhitni jiddiy o‘zgartirgan. Natijada ayrim qadimgi tillar va xalqlar mintaqadan siqib

chiqarilgan, ayrimlari esa yangi kelgan aholi bilan qorishib ketgan. Shunga qaramay, qadimgi til qatlamlarining ayrim izlari hozirgacha saqlanib qolganligi Markaziy Osiyoning chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Yozuv madaniyatining kirib kelishi va eroniy tillarning rasmiy til sifatida ustun mavqega ega bo‘lishi esa mintaqadagi real til manzarasini to‘liq aks ettirmaydi. Yozma til va jonli muloqot tillari o‘rtasidagi farqni inobatga olmasdan turib, Markaziy Osiyo aholisining etnik va lingvistik tarkibini biryoqlama talqin qilish ilmiy jihatdan asossizdir. Bu hudud tarixan ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli makon bo‘lib kelgan. Sug‘dlar, boxtariylar, xorazmiylar, saklar va qadimgi turklar mintaqa tarixida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri Markaziy Osiyoning keyingi etnik shakllanish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, qadimgi turklarning Markaziy Osiyoda juda qadimdan yashab kelgani arxeologik, toponimik va lingvistik dalillar bilan isbotlanadi. Turklarning faqat ko‘chmanchi bo‘lgan degan qarash esa tarixiy haqiqatni to‘liq aks ettirmaydi, chunki xo‘jalik turi etnik emas, balki iqlim va tabiiy sharoitlar bilan belgilanadi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo tarixi bir xalq yoki bir til doirasida tushuntiriladigan sodda jarayon emas. U turli davrlarda turli etnik guruhlar, tillar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan murakkab tarixiy makondir. Shu bois mintaqa tarixini o‘rganishda siyosiy yoki mafkuraviy yondashuvlardan voz kechib, kompleks, fanlararo va tanqidiy ilmiy yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Hindi-evropa tilli xalqlarning kelib chiqishi haqida qanday ilmiy farazlar mavjud?
2. Oriylar va eroniy tilli xalqlar orasida qanday etnik bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?
3. ”Etnik ustunlik” nazariyasi qanchalik ilmiy asosga ega?
4. Sharqiy eron tilli xalqlarga Markaziy Osiyoning qaysi qadimiy xalqlari mansubligini gapirib bering.
5. Markaziy Osiyoning o‘lik tillari toifasiga qaysi tillar kiradi?
6. O‘zbek tili va xalqining shakllanishida muhim component sifatida qatnashgan sharqiy eron tillari haqida gapirib bering.

17-mavzu. O‘zbek xalqi va atamasining kelib chiqishi haqida

Darsning o‘quv maqsadi. O‘zbek xalqining kelib chiqishi haqidagi turli xil qarashlar bilan tanishtirish O‘zbek adabiy tilining shakllanishi varivojlanish bosqichlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: O*’zbek xalqi***,** *etnogenez, etnik tarix, etnonimlar,“o‘zbek” etnonimi, etnik qorishuv, turkiy tillar, yozma til, chig‘atoy tili, eski o‘zbek tili, sart tili, o‘zbek tili.*

Darsning rejasi:

1. O‘zbek xalqining etnogenezi: turli talqinlar va qarashlar.
2. O‘zbek xalqi - turkiy xalqlarning qadimiy tarmog‘i.

Ozbek xalqining kelib chiqishi masalasi, mana yuz yillarki ilmiy-siyosiy jamoatchilikning bahs-munozara markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, 1990 yillarning boshlarida SSSR parchalanib, Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqil davlatlarning tashkil topishi asnosida mazkur munozaralar yangi bosqichga ko‘tarildi. Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi, millat sifatida shakllanishi, ularning qadimiyligi muammosi ilmiy bahsdan ko‘ra davlatlar darajasidagi siyosiy –populistik masalaga aylandi. O‘tmish davlatlar tarixini va madaniy yutuqlarni bitta millat doirasida izohlash tarix ilmining vazifasi bo‘lib qoldi. Bu ishlarga davlat rahbarlarining bevosita aralashishi muammoni yanada chigallashtirdi. Yakka hokimlik tizimiga aylangan mintaqa respublikalardagi ayrim “soxta” tarixchilar, jurnalistlar, injenerlar, millatlar, davlatlar tarixi haqida asarlar bitishdi. Bu jarayonga rahbarlar va siyosiy elitaga yoqish maqsadida kasbi tarixchi bo‘lgan olimlar ham qo‘shildilar. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari tarixini buzib talqin va bayon qilgan “tadqiqotlar” nashrdan chiqa boshladi.

Shunday “chaynalgan” muammolardan biri “o‘zbek”larning kelib chiqishi masalasidir. Bugungi kunda “o‘zbek” etnonimi xususida yozilgan ilmiy maqola-yu manba’larda aksariyat bu atamani bepoyon Dashti Qipchokda istiqomat qilgan turk urug‘larining ayrim qismi o‘zlarini erkin, hech kimga bo‘ysunmagan deb bilganlari sababli «o‘zbek», ya’ni «o‘ziga bek» deb atagan deb da’vo qilinsa, yana bir guruh olimlar Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (yashagan yillari: 1283-1341, taxtda o‘tirgan yillari: 1213-1241) nomidan kelib chiqqan deb yozishlari asossiz ekanligini va bu ism juda qadimdan mavjud ekanini, demak, «o‘zbek» ildizini ham olisdan izlash lozimligini uqtirib o‘tishdan iborat. G‘arb olimlaridan bo‘lmish Allen J. Frank va Peter B. Golden «o‘zbek» atamasi Turkiston kengliklarida Oltin O‘rda xoni O‘zbekxondan anchagina oldin paydo bo‘lgan deb ta’kidlashsa, boshqa bir guruh (P. P.Ivanov. A. Yu.

Yakubovskiy, X. Hukhem) bu atamani O‘zbekxon (yashagan yillari: 1283-1341, taxtda o‘tirgan yillari: 1213-1241) nomi tufayli paydo bo‘lgan deb da’vo qilishadi. Ba’zi olimlar esa, masalan, M. Ermatov «o‘zbek» so‘zining paydo bo‘lishini turkiy qabilalardan bo‘lmish “o‘z” (o‘z)lar bilan bog‘laydi. Shunisi e’tiborliki, keyingi yillarda Turkiston tarixi bilan shug‘ullanuvchilar «o‘zbek» etnonimi xususida yozilgan ilmiy maqola-yu manba’larda aksariyat bu atamani bepoyon Dashti Qipchoqda istiqomat qilgan turk urug‘larining ayrim qismi o‘zlarini erkin,hech kimga bo‘ysunmagan deb bilganlari sababli «o‘zbek», ya’ni «o‘ziga bek» deb atagan deb da’vo qilinsa, yana bir guruh olimlar Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1340) nomidan kelib chiqqan deb yozishlari asossiz ekanligini va bu ism juda qadimdan mavjud ekanini, demak, «o‘zbek» nomini ildizini ham olisdan izlash lozimligini uqtirib o‘tishdan iborat.

Shuni qayd qilish lozimki, o‘tgan asrlarda ko‘hna Sharq tarixini o‘rganish bilan asosan ovrupolik olimlar ko‘proq shug‘ullanishdi. Bu eng avvalo qaddini tiklab olgan Ovrupo o‘zining och nazarini Osiyo qit’asi mulklariga tikishi bilan, faqat shundan keyingina ilm-fan fidoyilarining o‘rganishga tashnaligi bilan izohlanadi. Shu sababdan, Sharq tarixini asosan ovrupoliklar tadqiq qilgani uchun bu qadimiy hududda yashab o‘tgan xalqlar, elatlarning nomi ma’nosi, kelib chiqishi asosan Evropa tillari nuqtai-nazaridan chiqib o‘rganilgan. O‘sha davrda turkiy tillarni o‘rganish sust bo‘lgani sababli, bu tillarga deyarli murojaat qilinmagan. Buning oqibatida bir tomonlama fikrlar paydo bo‘ldi. Shu sababdan ham juda ko‘p ovrupolik tilchilar O‘rta Osiyoda yashagan qadimiy xalqlar, elatlar sharqiy eron tillari guruhiga mansub Sug‘d va Xorazm tillarida gaplashganlar deganlari gumonlidir. Saklar va massagetlar Orolbo‘yi, Yettisuv, Tangritog‘ (Tyan-Shan) va Oltoy etaklarida yashagan turkiy tilli xunlar, senbiylar, uyg‘urlar bilan yonma-yon yashaganini hisobga olib,ayrim rus va G‘arb tadqiqotchilari ko‘chmanchi xalqlarning eron tilli guruhga kirishiga shubha bilan qaraydilar. Yunon muarrixi Herodotning “Tarix” asarini tarjima qilgan I. Pyanov: “Massagetlar deganda faqat turkiylarni nazarda tutish kerak”, - deb yozadi.

G‘arb, Rossiya va qo‘shni davlatlardagi ayrim “soxta” tarixchilar o‘zbeklarning kelib chiqishi masalasida asossiz ravishda, qarama - qarshi talqin va qarashlarni bayon qila boshlashdi. Ular, o‘zbeklarning xalq va millat sifatida kelib chiqishini uch muhim sana: XVI asr - Shayboniylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi, 1924 yil – O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va 1991 yil - Mustaqil O‘zbekiston davlatiga asos

solinishi bilan bog‘lashadi. Bu faktlarning kulguliki shindaki, siyosiy voqelik - davlatlarning qurilishi, millatning vujudga kelishi bilan izohlanmoqda. Vaholanki, biron xalqning kelib chiqishi bu uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, etnik jarayon ming yillar davom etgan. O‘zbek xalqining shakllanishi ham shunday tarixiy bosqichlardan o‘tgan.

1941-yilda sovet olimi A. Yu. Yakubovskiy tomonidan o‘zbek xalqining kelib chiqishi haqida kichik bir risola nashr etilgan. Tadqiqotchi o‘zbek xalqining etnogenezini xolis va ilmiy jihatdan asosli nahlil qilishga harakat qilgan. Olim o‘z tadqiqotida xalqlarning kelib chqishiga oid “Milliy avtoxtonizm” nazariyasi ilgari surgan. Unga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududida XI – XII asrlarda, ya’ni qoraxoniylar davrida, mahalliy sug‘d, xorazmiy va boxtariy etnik jamoalarning turk qabila va elatlari bilan qorishuvidan yangi etnos shakllangan. Aynan shu etnos o‘zbek xalqining asosini tashkil etgan. XVI asrda O‘rta Osiyoga Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari ana shu etnos tarkibiga qo‘shilib, unga o‘z nomlarini berganlar. Bu konsepsiya ko‘pchilik olimlar, shu jumladan, S. P.Tolstov, L. V.Oshanin, Ya. G‘ulomov singari olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va sho‘rolar davrida ilmiy nazariya sifatida qabul qilingan. O‘zbek olimi K. Shoniyozov shu konsepsiyaga asoslanib, o‘zbek xalqi IX – X asrlarda etnos bo‘lib shakllandi va hududiy jihatdan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, shuningdek, Janubiy Qozog‘iston, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g‘arbiy hududlarini egallagan, degan xulosaga keldi. Tojikistonlik olim, sovet tarixchisi B. G‘afurov ham bu konsepsiyani ma’qullab, “o‘zbek xalqi nafaqat XVI-XIX asrlarda, balki ungacha bo‘lgan barcha davrlar tarixida teng huquqli qatnashchi hisoblanadi”, deb ta’kidlagan edi.

O‘zbekistonlik tarixchilar Ilhamov “O‘zbeklar haqida ilk bor Hamdulloh Qazviniy (taxminan 1280 yilda tug‘ilgan) asarida tilga olingan bo‘lib, u o‘zining “Tanlangan tarix” (“Tarix-i Guzide”) asarida 1335-yilda Xon O‘zbekning Eronga bostirib kirishi haqida hikoya qilib, Oltin O‘rda qo‘shinini “o‘zbeklar” deb atagan”- degan qarashni ilgari suradi. Temur tarixchisi Nizomaddin Shomiy 1377-yilda Temurning ikki amirining qochib ketishi haqidagi ma’lumotlarida ular “O‘zbeklar hududiga qochib, O‘zbek xoni deb ataydigan Urusxon huzuriga panoh topganliklari” haqida xabar beradi. Temurning yana bir tarixchisi Sherif addin Ali Yazdiy Oltin O‘rda xoniTemur Qutlug‘ning 1397 yildagi elchixonasini tilga olib, kelgan elchilarni o‘zbeklar deb ataydi. Bu manbalar “o‘zbek” atamasi O‘zbekxon davrida muomalaga kirganligi va

shuning uchun uning nomi bilan bog‘langanligini tasdiqlaydi; keyinchalik Urusxon va Edigey boshchiligidagi Oltin O‘rda fuqarolariga, nafaqat turkiyzabon qabilalarga, balki o‘shanda Jochi ulusi tarkibida o‘zbek ulusini tashkil etgan turk-mo‘g‘ul qabilalari uchun ham qo‘llanila boshlandi

SSSR parchalangandan keyin A. Yu. Yakubovskiyning “Milliy avtoxtonizm” nazariyasi tanqid qilinib, uning o‘rniga “Konstruktivizm” sosiologik nazariyasi rivojlana boshladi. Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning, shu qatori o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi qo‘shni davlatlar va jahon ilm ahlini ham qiziqtirdi. Bu haqda xalqaro darajada ham “ilmiy” munozaralar olib borildi.

2015-yilda akademik A. Asqarov o‘zining “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” nomli kitobida mazkur masala bo‘yicha mavjud konsepsiyalar va aytilgan fikrlarni batafsil tahlil etib, bu boradagi bahslarni yangi bosqichga olib chiqdi. Umuman olganda, bu kitobning asosiy g‘oyasi A. Yu. Yakubovskiyning “Milliy avtoxtonizm” nazariyasiga asoslangan. Faqat A. Asqarov o‘zbek xalqining ikkita o‘q tomiri, ya’ni “turkiy va eroniy o‘q tomirlari” bor degan fikrga ko‘proq urg‘u bergan. Shu o‘rinda aytish mumkinki, dunyodagi hech bir xalq bitta etnik komponentdan tashkil topmagan. Har bir xalqning etnik tarixida turli xil komponentlar ishtirok etgan. Lekin har bir xalq o‘zining etnogenezini, ya’ni boshlang‘ich o‘q tomirini faqat bitta etnos bilan bog‘laydigan tadqiqotchilar ham bor. Ularning fikricha ruslarning kelib chiqishi slavyanlar, forslarning kelib chiqishi oriylar, Turkiya xalqining kelib chiqishi qadimgi turklar bilan bog‘lanadi. Boshlang‘ich asosga keyingi davrlarda kelib qo‘shilgan qatlamlar etnik tarixga kiradi. Su bilan birga “… o‘zbek xalqining etnik tarixida turli komponentlar ishtirok etgan, lekin boshlang‘ich o‘q tomir bitta – qadimgi turklar bo‘lgan”- degan qarash ilgari suruladi. Ammo, bunday yondashuv chuqur ilmiy asosga ega emas.

Hatto, mintaqadagi ayrim nazariyatchilar o‘zlari mansub xalqlarni oriylarlarning avlodlari ekanligini isbotlash masalasida ham tortishuvlari tuxtamayapti. Qozog‘istonlik, Tirkmanistonlik tadqiqotchilar oriylar turkiylarning ajdodi deyishsa, Tojikistonliklar esa ular tojiklarning ajdodi deb da’vo qilishadi. Bu borada o‘zbek olimlari oriylikka da’vo qilayatgani yo‘q. Bunday qarashlar albatta o‘z isbotini talab qiladi.

Shuni etirof qilish kerakki, o‘zbek xalqining kelib chiqishi bu uzoq davom etgan etnik jarayonlar natijasidir. Etnogenez bo‘yicha fundamental tadqiqotchilarning fikrisha, millat va xalq nomini paydo bo‘lishi va uning

etnogenezi masalasi bir-birini to‘ldiradigan ikki xil ilmiy muammodir. Yani, xalqning kelib chiqishi tarixi bilan uning nomini bir tarixiy davrda vujudga kelishi fanda deyarli uchramaydigan hodisa. Shunisi aniqki, o‘zbeklar bevosita qadimiy turkiy xalqlarning avlodlari bo‘lib, ularning etnik tarixi Markaziy Osiyo hududlarida ibtidoiy davrlarda yashagan tub aholiga borib taqaladi. Albatta, bu erda ikkita subetnos turkiy va eroniy tilli xalqlar o‘zbeklarning etnogenezisida asosiy komponent bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birgalikda, asrlar davomida mintaqaga kirib kelgan, boshqa hududlarga ko‘chib o‘tgan yoki mahalliy xalq bilan qorishib o‘troqlashgan o‘nlab qavmlar, xalqlar ham bevosita ishtrok etgan. Etnik jarayonlarga mintaqadagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, urushlar, tabiiy ofatlar, mustamlakachilik tuzumlari ham na’sir qilgan.

Haqiqatan ham Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida katta iz qoldirgan turkiy xalqlar (o‘zbeklar) dastlab ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar va shaharchilik madaniyatining vujudga kelishida faol ishtirok etganlar. Shuning uchun qadimgi turk tilida nafaqat dehqonchilik va bog‘dorchilik, balki hunarmandchilik va shaharchilik sohalarida boy tarixiy atamalar majmuasi mavjud va boshqa o‘troq xalqlarnikidan qolishmaydi.Turkiy xalqlar oriy qabilalari, forslar, keyinchalik yunonlar, ko‘chmanchi xalqlar kuhonlar, xiyoniylar, eftaliylar va turklar bilan assimilatsiyaga kirishgan.

Ko‘chmanchi turklar O‘rta Osiyodagi mahalliy o‘troq turklarga kelib qo‘shilib, ularning madaniyatini qabul qilganlar va mahalliy aholiga o‘zlarining etnik nomlarini berganlar. Shunga o‘xshash jarayonlar o‘rta asrlarda, xususan, XVI asrda ham yuz bergan. Unda Dashti Qipchoq o‘zbeklari O‘rta Osiyoning o‘troq turkiy tilli xalqlariga kelib qo‘shilganlar va unga o‘z nomini berganlar. Shunday qilib, O‘rta Osiyoning mahalliy o‘troq turkiy xalqlari qadimdan bu mintaqada yashab kelganlar, ularning nomi turli davrlarda o‘zaro qo‘shilib turgan ko‘chmanchi qabilalarning hokimiyatga kelishi tufayli o‘zgarib borgan. Lekin tirkiylarning madaniyatini belgilovchi asosiy xususiyatlar o‘zgarmagan.Chunki, birinchidan, ular o‘zaro turkiy tilda so‘zlashganlar, ikkinchidan, asosan o‘troq hayot tarzi olib borib, shahar va qishloqlarda yashaganlar, uchinchidan, ular dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganlar, shaharchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishida faol ishtirok etganlar. Hozirgi o‘zbek xalqining madaniyati ham xuddi shu xususiyatlarga ega. Chunki o‘zbek xalqi qadimgi turkiy

xalqlarning dehqonchilik, bog‘dorchilik va shaharchilik madaniyatining davomchisidir. Ma’lumki, adabiy til asosan yozuv madaniyati bilan bog‘liq bo‘ ladi. Qadimgi turklarda yozuv madaniyati nisbatan kech rivojlana boshlagan. O‘rta Osiyodagi o‘troq turklar eroniy xalqlar orasida yashagani uchun ularning yozuvidan foydalanganlar. Buni biz ilk o‘rta asrlar misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlar sug‘d yozuvi va tilidan keng foydalanganlar. Qadimda ham xuddi shunday hol bo‘lgan. Hatto, Oltoydagi ko‘chmanchi turkiylar ham avval pahlaviy, keyin sug‘d yozuvlaridan, Sharqiy Turkistondagi tuiy xalqlarlar esa hindilarning brahmi va kharoshti yozuvlaridan foydalanganlar. Turklarning ilk yozuvi runik belgili yozuv hisoblanadi. Bu yozuvning ayrim belgilari va ramzlari ming yil davomida ishlatilib kelingan va milodiy V-VI asrlarga kelib, to‘la-to‘kis yozuv tizimi sifatida shakllangan. Sharqiy Yevropa, Qora dengizning shimoliy sohili va Kavkazda xunlar davriga mansub runik yozuvlar topilgan. Milodiy I asrda xunlar imperiyasi parchalangandan keyin mazkur yozuv va adabiy til ikkiga bo‘lingan: sharqiy xun va g‘arbiy xun yozuvi. G‘arbiy xun yozuvi va tili asosida keyinchalik qadimgi bul’gar, xazar, avar va venger tillari va yozuvlari shakllangan. Sharqiy xun yozuvi va tili asosida qadimgi o‘g‘o‘z, uyg‘ur va qipchoq tillari va yozuvlari shakllangan.

Turkiy adabiy tili VI-VII asrlarga kelib yuksak darajada rivojlangan til bo‘lib, uning o‘sha davrdagi holati uzoq vaqt davomida rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Bu tilda ko‘plab yuksak darajadagi she’riy asarlar yaratilgan. Bu she’riy uslub hatto Xitoy she’riyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xitoyliklar turk tilini yaxshi bilganlar va VII-asrda ilk bor turk-xitoy lug‘atini tuzganlar. Runik yozuvda yozilgan eng so‘nggi yodgorliklar X asrga mansub. VII-VIII asrlarda Sharqiy Turkistonda runik yozuv bilan bir qatorda sug‘d yozuviga asoslangan uyg‘ur yozuvi muomalaga kiritildi. Bu yozuv O‘rta Osiyoda ham ishlatilgan va hatto islom davrida ham turkiy sulolalar, xususan, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va Shayboniylar o‘zaro ichki yozishmalarda ushbu yozuvdan foydalanganlar. Usmonli imperiyasida XVI asrda bu yozuvni bilgan kotiblar bo’lgan, mazkur yozuvni Xitoydagi turkiylar XVIII ga qadar saqlaganlar. Islom davrida turk tilidagi adabiy asarlar arab alifbosida yozila boshladi. Adabiyotshunoslikda bunday asarlar XI-XII asrlarda yozilgan deb hisoblanadi. Bular Ahmad Yugnakiyning “Hibat al-haqoiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yassaviyning “Devon-i hikmat” asarlari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon lug‘otat-turk” va Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” lug‘atlaridir.

Somoniylarning kelib chiqishi turkiy sulola bo‘lsa ham, ular fors she’riyatini qo‘llab-quvvatladilar. Ulardan keyin hukm surgan turkiy sulolalari ham shunday qilganlar. Shu bilan birga turkiy tildagi adabiyot ham rivojlanib bordi. Qoraxoniylar davrining adabiy tili “xoqoniya” deb atalgan, unda qarluq lahjasining xususiyatlari asosiy o‘rin egallagan. Xorazmshohlar davrida adabiy tilda o‘g‘o‘z lahjasining ta’siri o’sib borgan. Mo‘g‘ullar davrida ham turk adabiy tili rivojlanishda davom etdi. Mana shu adabiy tillar ta’siri va vositasida o‘zbek adabiy tili ham shakllanib borgan. Demak, o‘zbek xalqi va tilining shakllanishi jarayoni bir tarixiy davr va bosqichlarda ro‘y bergan.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezi masalasiga qiziqishining sabablarini qanday izohlaysiz?
2. O‘zbek xalqining kelib chiqishiga oid qanday qarash va talqinlar mavjud?
3. O‘zbeklarning etnogenezi bilan dastlab shug‘ullangan olim kim qdi va u qanday nazariyani ilgari surgan?
4. O‘zbeklarning ajdodlari qaysi xalqlar bo‘lgan?
5. O‘zbeklar xalq sifatida qaysi davrda shakllangan va qaysi hududlarda yashaganlar?

18-mavzu. Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalarining o‘zaro bog‘liqligi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo tarixida “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalarining o‘zaro bog‘liqligi va tarixiy davomiyligini o‘rta asr tarixiy-geografik tushunchalari va zamonaviy O‘zbekiston davlati shakllanishi batafsil tahlil qilish, “Turon” atamasining qadimiy etnik va madaniy makon, “Turkiston” esa o‘rta asrlar va tarixiy-geografik hudud, ekanligi, O‘zbekiston nomi milliy-hududiy birlik va mustaqil davlatni ifodalashini talabalarga tushuntirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Markaziy Osiyo, tarixiy atama, “Turon”, “Turkiston”, “O‘zbekiston”, tarixiy-geografik mintaqa, tarixiy-madaniy mintaqa, etnik tarix.*

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy nomlari. “Turon”.
2. “Turkiston” - tarixiy-geografik mintaqa
3. “O‘zbekiston” – yurt, vatan, mamlakat.

Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy mintaqa sifatida insoniyat tarixida muhim rol o‘nagan. Ma’lumki, hududda yashagan xalqlarning etnik mansubligini aniqlashda joy nomlarining ahamiyati bor. O‘tgan uch ming yillik tarix davomida joy nomlarining etimologik tahlili bu hududda qanday xalqlar va elatlar yashaganligini aniqlashga yordam beradi. Dastlabki joy nomlari “Avesto”da, forsiy, yunon, xitoy, rim manbalarida keltiriladi. “Turon”, “Xorazm”, “Baqtriya”, “Sug‘diyona”, “Parfiya”, “Marg‘iyana”, “Tohariston”, “Parkana”, “Choch” kabi nomlar mintaqaning eng qadimiy joy nomlari hisoblanadi. Mazkur joy nomlari shu hududda yashagan elat va xalqlarning etnik guruhi va xalqlari haqida ma’lumot beradi. Mazkur joy nomlari lingvistik jihatdan sharqiy eron tilida bitilgan bo‘lib, ilk o‘rta asrlargacha ushbu mintaqada eroniy tilli xalqlar yashab, turkiy xalqlarning etnogenezisida ishtrok etganligini anglatadi. Keyinchalik, turkiy va forsiy manbalarda Turon, Turkiston nomlari uchraydi.

Bundan ko‘rinadiki, “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalari muhim tarixiy-etnik hamda madaniy atamalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, “Turon” atamasi qadimgi davrlardan boshlab turkiy xalqlar yashagan hududlarni ifodalovchi umumiy nom sifatida qo‘llanib kelingan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu atama bundan 3000–2500 yil avval shakllanib, “Avesto” kitobida chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar yurti sifatida tilga olingan. “Turon” tushunchasi faqat geografik hududni emas, balki turkiy xalqlarning ijtimoiy va etnik

birligini ham ifodalagan. Keyingi davrlarda ushbu atama bilan bir qatorda “Turk yurt”, “Turk eli” kabi nomlar ham yozma manbalarda uchray boshlagan. Milodiy VII asrdan e’tiboran esa “Turkiston” atamasi keng qo‘llanilib, turkiy xalqlar yashagan hududlarning tarixiy - geografik nomiga aylangan. Ushbu nomlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda Markaziy Osiyoning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. XX asrgacha “Turon” tushunchasi turkiy xalqlarning umumiy madaniy va tarixiy makoni sifatida saqlanib qolingan. Tadqiqotchilar “Turon”, “Turkiston” atamalari “ turk” so‘zidan kelib chiqqan degan qarashni bildirishadi. “Turk” etnonimi birinchi eslatilishi Xitoy yilnomalarida uchraydi va 542 yilga to‘g‘ri keladi. Turklar haqida ilk bor Yevropa yilnomalarida Vizantiya tarixchilari Menandr va Teofan tilga olingan, o‘shanda Turk xoqoni 568-yilda Yustin II ga elchilik yuborgan. Bilgahohoqonnning Xitoy imperatori Ven-diga yozgan maktubida “turklarning buyuk xoni” ta’riflanadi. Daniyalik turkolog Vilgelm Tomsen tomonidan 20-asr boshlarida etnonimning dastlabki tahliliga asoslangan versiyada bu atamaning kelib chiqishi ko‘pchilik turkiy tillardan “to‘g‘ri turgan” yoki “kuchli” deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan “toruk” yoki “turuk” so‘zidan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi.

Akademik V. V. Bartold Vilgelm Tomsenning mazkur gipotezasini tanqid qiladi va “turkut” matnlarini batafsil tahlil qilish asosida bu atamaning "tur" so‘zidan kelib chiqishi ehtimoli ko‘proq degan xulosaga keladi va aynan “o‘rnatish”, “qonuniylik”- degan ma’nolarni bildiradi deb hisoblaydi. Boshqa bir rus turkologi A. N. Kononov bu borada V. V. Bartoldning “turk” so‘zining asl ma’nosi “kuchli”, “mustahkam” degan talqiniga qo‘shiladi

Bugungi kunda esa “O‘zbekiston” nomi ushbu tarixiy hududning muhim qismi bo‘lgan zamonaviy mustaqil davlatni ifodalaydi. Demak, “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalari tarixiy davomiylik va milliy o‘zlikni anglashda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir.

Markaziy Osiyo hududining tarixiy nomlanishida “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalari turli davrlarda shakllangan bo‘lsa-da, ular yagona tarixiy makon bilan bog‘liqdir. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t turk” (XI asr) asarida shunday yozadi: “G‘arbda Rum chegarasidan Sharqda Chin ichigacha bo‘lgan hududda turk urug‘ va qabilalari shu tartibda joylashgan: pecheneg, qipchoq, o‘g‘o‘z, yemek, boshqird, basmil, qayi, yabaqu, tatar, qirg‘iz, chigil, to‘xsi, yag‘mo, ug‘roq, charuq, cho‘mul, uyg‘ur, tangut, xitay”. Turkiy

xalqlar Sharqiy va hatto G‘arbiy Evropada, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo va G‘arbiy Sibirda turli nomlar bilan bir necha ming yildan buyon yashab kelgan. Ularning etnik tarkibi asosan o‘zgarmagan bo‘lsa-da, turli davrlarda turli turkiy xalqlar va qabilalarning hukmron mavqega erishuvi natijasida umumiy nomlari o‘zgarib turgan. O‘rta Osiyo mintaqasiga nisbatan ham Turon va Turkiston atamalari ishlatilgan.

Tarixiy manbalarda “Turon” atamasi ikki ma’noda qo‘llangan:

Keng ma’noda – turkiy qabilalar yashaydigan hududlar.

1.Tor ma’noda – Amudaryo havzasi va undan Sharqda joylashgan hamda asosan

turkiy qabilalar yashaydigan hudud.

“Turon” atamasi haqida zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da va Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ma’lumotlar mavjud.

Avestoda O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi turlar (turonliklar) sifatida qayd etilgan. Avestoda u “Thura” shaklida keltiriladi. Dastlab Avestoda qayd etilgan “Tur” etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyoning dasht va tog‘ erlarida yashovchi chorvador aholi bilan bog‘langan. Olimlarning fikriga ko‘ra, turlar tushunchasi – bu sak-massagetlarning dastlabki nomi bo‘lishi mumkin.

Boshqa bir talqinga ko‘ra, Tur qadimgi eroniylarning peshdodiylar sulolasidan bo‘lgan shohi Faridun (Traetona)ning o‘g‘li. Atoqli fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy (taxminan 934-1030) qalamiga mansub “SHohnoma” dostoniga ko‘ra, Tur turkiy xalqlarning bobokaloni, akasi Salm (Silm, Selm) esa somiy xalqlar bobokaloni hisoblangan. Dunyoning taqsimlanishi haqidagi fors an’analariga ko‘ra, Faridun o‘z saltanatini o‘g‘illari Tur, Salm va Eroj o‘rtasida taqsimlagan. Katta o‘g‘il Salm – boylik, o‘rtanchasi Tur – harbiy shon-shavkat, kichik o‘g‘li Eroj – qonun va dinni so‘ragan. Ularning iltimoslariga ko‘ra, podsho otalari Salmga Rum erlarini, Turga Turkiston va cho‘lu biyobonni, kenja o‘g‘li Eronga esa Eron taxtini va akalari ustidan oliy hokimiyatni topshirgan.

Avestoda dastlab etnonim nomi sifatida keltirilgan Tur Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida kurashchan va yovuz qahramonga, ya’ni Turon va Turkiston hukmdoriga aylantiriladi. Firdavsiy Turni jangovar Turon hukmdori sifatida Eron va uning podsholariga qarama-qarshi qo‘yadi. Afrosiyob aynan Turning avlodidan tug‘ilgan Turon hukmdoridir. U ham dostonda Turonning eroniylar nazaridagi yovuz podshosi sifatida ko‘rsatilgan.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida O‘rta Osiyodan Qora dengizgacha bo‘lgan hududda hukm surgan Sak imperiyasining mashhur hoqoni Alp Er To‘nga (Afrosiyob) haqida rivoyatlar uchraydi. Eronliklar bu imperiyani Turon deb ataganlar. Bu ma’lumotlardan bizga ma’lum bo‘ladiki, Movarounnahr hududidan to Xitoy yerlarigacha u paytda (qadimgi davrlarda) “Turonzamin” deb hisoblangan

Turon mintaqasining hududiy doirasi juda keng – G‘arbda Qora dengizning shimoli-sharqiy sohillaridan Sharqda to Janubiy Baykalgacha cho‘zilgan cho‘l va dasht mintaqalaridan iborat. Uning shimoliy chegarasi Ural daryosi va undan ham shimolroqqa, qalin taygaga borib taqalgan. Ural tog‘i qadimdan to so‘nggi o‘rta asrlargacha slavyanlar bilan turkiy qabilalarning hududiy chegarasi bo‘lgan. U janubi-sharqda Shimoliy Xitoy va janubi-g‘arbda Sharqiy Eron hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Antik davr yunon mualliflari Yaksart (Sirdaryo)ning quyi oqimi so‘g‘diylar bilan turkiy tilli qabilalarning chegara rayonlari bo‘lganligini alohida ta’kidlashadi.

Qadimgi fors manbalariga tayangan arab geografi Yoqut Hamaviy "Movarounnahr” atamasini Turon mamlakatining nomi sifatida bilgan. Akademik A. Muhammadjonovning fikrisha "Turon " atamasi so‘g‘dcha — yer, tuproq, dala va dasht kabi ma’nolarni bildirgan. Shunga ko‘ra, "Turon" toponimi pasttekislik, dalayu - dashtliklar, ya’ni keng yaylovlar degan ma’noni anglatadi deb hisoblaydi.

Tarixchi SH. Kamoliddin fikricha, Markaziy Osiyo mintaqasining eng qadimgi nomi “Turon” bo‘lib, bu atamaning keyingi asrlardagi davomchisi va ekvivalenti Turkiston hisoblanadi.“Turon” va“Turkiston” atamalari tarixiy atamalar bo‘lib, forslarda muayyan davlatlarga nisbatan ishlatilgan – IV – V asrlarda “Turon” atamasi xiyoniylar va eftaliylar davlati, VI – VIII asrlarda “Turkiston” atamasi Turk xoqonligiga nisbatan qo‘llanilgan. “Turon” va “Turkiston” atamalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, sinonimlar sifatida ham ishlatilgan.

“Turkiston” atamasi milodiy 445 -yildan boshlab turli manbalarda tilga olinadi. “Turkiston” — Markaziy Osiyoning o‘rta asr tarixiy - geografik adabiyotlarda uchraydigan nomi. Manbalarda “Turon” va “Turkiston” atamalari o‘rnida qayd etilgan. 639 yilda Turfonda tuzilgan so‘g‘d hujjatida O‘rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ishlatilgan. "Turkiston " atamasi "O‘rta Osiyo" va "Movarounnahr" nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etnogeografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy - huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

Mahmud ibn Valining yozishicha: "Turkiston — bu keng va ko‘ngilli yurtdir., bu yurtning uzunligi Sayhun daryosining qirg‘og‘idan Qoramurun daryosi qirg‘og‘igacha bo‘lib, bu yerni Mo‘g‘uliston nomi bilan ataganlar". Muallif yana davom ettirib, Turkistonning yana bir nomi — bu Turon va uning aholisi turklar deb yozadi. Shu davrdagi Mo‘g‘uliston Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Oltoyni qamrab olgan. XIX asr o‘rtalarida Turkiston hududi g‘arbda Ural tog‘lari etagi va Kaspiy dengizi, sharqda Oltoy tog‘lari va Xitoy, janubda Eron va Afg‘oniston, shimolda Tomsk va Tobolsk gubernyalari bilan chegaradosh bo‘lgan. 1867-yildan Turkiston o‘lkasi rasman Turkiston general –gubernatorligi deb atala boshlangan. XIX asrning 20 – yillaridan bu atama sun’iy ravishda iste’moldan chiqib, uning o‘rniga O‘rta Osiyo atamasi qo‘llanila boshlandi va o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Markaziy Osiyo mintaqasining yana bir tarixiy nomi mavjud bo‘lib, u ham bo‘lsa “O‘zbekiston”dir. Bu atamaning lotincha ekvivalenti bo‘lgan “O‘zbek” va “O‘zbekiya” atamalari XVI-XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida nashr etilgan tarixiy, siyosiy va etnik xaritalarda hamda globuslarda qayd etilgan. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyo deyilganda, Orol dengizining shimoliy nuqtasidan to Balxash ko‘lining shimoliy nuqtasigacha o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziqdan Eron, Afg‘oniston, Xitoy va Kaspiy dengizi chegaralarigacha bo‘lgan oraliqda joylashgan hudud tushunilgan. Milliy hududiy chegaralanish natijasida mahalliy aholining haqiqiy etnik tarkibini aks ettiruvchi “O‘zbekiston” atamasi qo‘llanila boshlandi.

Qadimgi yozma manbalarda “Turon” atamasi turkiy xalqlar yashagan hududlarni ifodalovchi tarixiy-etnik tushuncha sifatida tilga olinadi. O‘rta asrlarga kelib, turkiy xalqlarning siyosiy va madaniy faolligi ortishi natijasida “Turkiston” nomi keng qo‘llanila boshlagan. “Turkiston” atamasi geografik tushuncha sifatida turkiy xalqlar yashagan mintaqani ifodalab, tarixiy manbalarda mustahkam o‘rin egallagan. XX asr boshlarida mintaqada amalga oshirilgan siyosiy-ma’muriy jarayonlar natijasida milliy davlatlar shakllandi. Shu jarayon “O‘zbekiston” nomining siyosiy-hududiy birlik sifatida qaror topishiga olib keldi. Demak, ushbu uch atama tarixiy davomiylik asosida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan.

Qadimgi eron mifologiyasida Turon Fereydun podshohning o‘g‘li Turga tegishli yerlar sifatida tasvirlanadi. “Shohnoma” asarida esa Turon va Eron o‘rtasidagi siyosiy va harbiy qarama-qarshiliklar badiiy tarzda yoritilgan. Dastlab Turon hududi Amudaryoning shimolida joylashgan

yerlar bilan bog‘langan. Keyingi asrlarda Markaziy Osiyoda turkiy xalqlarning keng tarqalishi natijasida Turon tushunchasi turkiy aholi bilan qiyoslanib kelingan. Shunga qaramay, ayrim olimlar Turon va qadimgi turkiy xalqlar o‘rtasida bevosita etnik aloqadorlik bo‘lmaganini ta’kidlaydi. Islomiy davr manbalarida esa Turon atamasi Turkiston hududi bilan tenglashtirila boshlagan. Demak, “Turon” atamasi tarixiy jarayonlar ta’sirida o‘z mazmunini kengaytirib, Markaziy Osiyoning muhim tarixiy tushunchasiga aylangan.

“Turkiston” atamasi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “turklar yashaydigan yurt” ma’nosini anglatadi. Ushbu atama dastlab fors geograflari tomonidan turkiy xalqlar istiqomat qilgan hududlarni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, “Turkiston” hech qachon yagona milliy davlat nomi bo‘lmagan, balki keng tarixiy-geografik mintaqani bildirgan. O‘rta asrlarda bu hudud g‘arbda Kaspiy dengizidan - sharqda Gobi cho‘ligacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Arab manbalarida “Turkiston” hududi ko‘pincha “Movarounnahr” va “Transoksiana” nomlari bilan ham atalgan. Mintaqa, tarix davomida hunlar, turkiy xoqonliklar, arab xalifaligi, mo‘g‘ullar va boshqa ko‘plab siyosiy kuchlar ta’siri ostida bo‘lgan. XIX asrda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olgach, “Turkiston” nomini rasmiy ma’muriy atama sifatida qo‘llay boshlagan. Shu davrda “Turkiston general-gubernatorligi” tashkil etilib, atama siyosiy mazmun kasb etgan. XX asr boshlarida milliy-hududiy chegaralanish jarayonida Turkiston hududi bir necha respublikalarga bo‘lib yuborilgan. Natijada “Turkiston” atamasi tarixiy tushuncha sifatida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning o‘rnini alohida milliy davlat nomlari egallagan.

O‘zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyoda joylashgan davlat bo‘lib, uning poytaxti Toshkent shahri hisoblanadi. Qadimda bu hudud Xorazm, Sog‘diyana, Baqtriya, Choch, Parkana nomlari bilan tanilgan. Xiva, Samarqand, Buxoro, Quva, Termiz kabi shaharlar o‘sha davrlarda siyosiy va madaniy markazlarga aylangan. Keyinchalik turkiy xalqlar mintaqaga kirib kelib, asta-sekin ustun etnik guruhga aylangan. XIV asrda Amir Temur Temuriylar saltanatini barpo etib, Mavoraunnahr – hozirgi O‘zbekiston hududlarini jahon fan - madaniyatini markazga aylantirgan. XVI asrda Shayboniylar imperiyasi tashkil topib, hozirgi hudud atrofida turli o‘zbek xonliklarini birlashtirgan. XIX asrda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olib, o‘lkaga “Turkiston” nomini berib, Toshkent shahirini o‘zining siyosiy markaziga aylantirgan. 1924 yilda Markaziy Osiyo hududida milliy-hududiy chegaralanishining o‘tkazilishi natijasida

“O‘zbekiston SSR” tashkil qilindi. 1991 yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi bilan “O‘zbekiston” mustaqil davlat - O‘zbekiston Respublikasi deb e’lon qilingan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo tarixida “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalari uzviy bog‘liq bo‘lgan tarixiy-geografik va madaniy tushunchalarni ifodalaydi. “Turon” qadimiy tarixiy va etnik makon, “Turkiston” esa o‘rta asrlar va zamonaviy tarixiy-geografik tushuncha bo‘lsa, “O‘zbekiston” nomi esa siyosiy va milliy-hududiy birlikni ifodalaydi. Ushbu atamalar bir-birini to‘ldirib, Markaziy Osiyo hududining tarixiy davomiyligini, turkiy xalqlarning etnik va madaniy birligini, hamda mustaqil milliy davlat shakllanish jarayonini aks ettiradi. Shu sababli, “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarixiy, etnik va madaniy jarayonlarning doimiy uzluksizligini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Joy nomlarining xalqlarning kelib chiqishi masalasida qanday o‘rni bor?
2. ”Turon” – tarixiy atamasining ilmiy tahlili va mohiyati haqida gapirib bering.
3. ”Turkiston” – atamasi qaysi davrlardan muomalaga kiritilgan va qanday manbalarda bu haqda ma’lumotlar berilgan.
4. ”O‘zbekiston”- atamasi qachondan manbalarda aks eta boshlagan?
5. “Turon”, ”Turkiston”, ”O‘zbekiston”- atamalarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab bering.

Qo‘shimcha mavzu. Markaziy Osiyo mustamlakachilik davrida

O‘quv kursining maqsadi. Mazkur mavzuning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoda, xususan Turkiston o‘lkasida chor Rossiyasi va sovet hokimiyati davrida shakllangan mustamlakachilik tizimini, uning siyosiy, ijtimoiy va milliy taraqqiyotga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish jarayonlari va Turkiston muxtoriyati kabi tarixiy hodisalarning mohiyatini ochib berish ko‘zda tutiladi.

Tayanch iboralar. Mustamlakachilik, Turkiston general-gubernatorligi, jadidchilik, milliy uyg‘onish, siyosiy tashkilotlar, Turkiston muxtoriyati, bolshevizm, sovet hokimiyati, milliy identifikatsiya, shovinistik siyosat.

Reja:

1. Turkistonda Rossiya mustamlakachilik tuzumining mohiyati
2. Sovetlar davrining mustamlakachilik mohiyati
3. Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun kurashi.

Mustamlakachilik - kuchli davlatlar tomonidan zo‘rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etib, o‘ziga bo‘ysundirish, qaram qilish, talash siyosati. Tarixdan mustamlakachilik imperiyalarning shakllanishi va o‘zga davlatlarni bosib olishi bilan bevosita bog‘liq ekani ma’lum. Mustamlaka mamlakatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaif va qaram bo‘lgan yarim mustamlakalar, vassallar (prorektorat) ham mavjud bo‘lgan. Hukmron kuchlar, siyosiy elita va ularning monopolistik birlashmalari mustamlaka va qaram mamlakatlardan xom ashyo manbai, daromad olish bozori, sarmoya qo‘yish sohasi, shuningdek, harbiy harakatlar hamda yangi joylarni egallab olish uchun tayanch maydoni sifatida foydalanib kelganlar. Mustamlakachilar mustamlaka va qaram o‘lkalarning xalqlarini ekspluatatsiya qilish va ezish hisobiga mustamlakachilar katta daromadga ega bo‘lganlar. Qaram o‘lkalar esa agrar xom ashyo yetishtiriladigan bir tomonlama ishlab chiqarishga asoslangan qoloq iqtisodiyot bilan qolavergan. Markaziy Osiyo ham Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovet hokimiyati uchun ham geostrategik maydon, sanoati uchun hom oshyo manbai, mahsulotlarini sotish uchun bozor, arzon ishchi bilan ta’minlaydigan mehnat resursi makoni vazifasini bajargan.

Evropalik, rossiyalik va sovet davri siyosatchilari, tarixchilari o‘z davlatlarining Osiyo hududlariga istilochilik, bosqinchilik yurishlarini, o‘rnatgan mustamlakachilik tuzumini “qoloq”, “ johil” xalqlarga yordam berish uchun qilingan “ma’rifiy missiya”, “sivilisatsiya” olib kelish deb

oqlashga urinishmasin, ularning bu xalqlarga etkazgan zulm va qabohatlariga tarix o‘z hukmini chiqarib bo‘lgan.

Nemis tarixchisi Yurgen Osterxammel mustamlakachilikni imperatorlik markazi tomonidan jismoniy, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy va madaniy egallash va mustamlaka ustidan nazoratni saqlab turishning murakkab jarayoni sifatida ta'riflaydi. Mustamlakachilik "tsivilizatsiya missiyasi" g‘oyasini o‘z ichiga olishi mumkin, bu orqali bosqinchilar "sivilizatsiya" va boshqa xalqlarning dunyo tartibi, davlatchiligi va turmush tarzi haqidagi g‘oyalarini singdirishga intilishadi

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida mustammlakachilik davri deyarli bir yuz ellik yildan oshiqroq davom etgan. Mustamlakachilik davriy jihatdan 2-bosqichga bo‘linidi. 1- Rossiya imperiyasi davri – 1850-1917 yillar; 2- sovet davri -1917-1991 yillar.

Ma’lumki, XVIII-XIX asrlar dunyo tarixida Evropaning yirik davlatlari Osiyo va Afrikani egallab, u erlarda mustamlakachilik tartibotlarini o‘rnata boshladilar. Osiyo qit’asi uchun kurash Buyuk Britanuya va Rossiya imperiyasi o‘rtasida kechdi. Bu davlatlar o‘zlarining istilochilik yurishlari va mustamlakachilik tartibotini “qoloq”, “johil”, “yarim yavvoyi” xalqlarga “ma’rifat”, “sivilizatsiya” olib kelish bilan oqlashga harakat qildilar. Eng achinarlisi, mazkur davlatlarning ayrim tarixchilari jarayonlarni “evrosentrtizm” konsepsiyasi nuqtai – nazardan, yani, Evropalik va Rossiyalik tarixchilar tomonidan bosqinchilik siyosatlarini oqlash asosida yoritilgan. Markaziy Osiyo mintaqasida ustunlik uchun Rossiya va Angliya o‘rtasidagi raqobat jahon tarixiga “Katta o‘yin” (“Great game”) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Ikki davlat o‘rtasidagi norasmiy kelishuvga muvofiq Markaziy Osiyoni Rossiya imperiyasi “ ta’sir hududi” sifatida e’tirof etishdi

Rossiyaning Markaziy Osiyoga qiziqishlari imperator Pyotr – I (1689-1725) davridan boshlangan. XVIII asr davomida Qozoq juzlari erlari egallandi. XIX asrning o‘rtalaridan Qo‘qon xonlilari hududlariga hujum boshlandi. 1865 yilda Toshkent, 1868 yilda Buxoro amirligi, 1873 yilda Xiva xonligi, 1876 yilda Qo‘qon xonligi, 1885 yilda Turkman erlari, 1895 yilda esa Pomir egallandi. Shu tariqa Markaziy Osiyo bo‘sundurildi. 1867 va 1886 yillarda qabil qilingan “Nizom”larga muvofiq Turkistonda muctamlakacnilik tizimi o‘rnatildi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining mohiyati - bu asosan Turkistonni siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan butunlay qaram qilish, o‘lkaning iqtisodiy, tabiiy resurslarini talon – taroj qilish bo‘lgan.

